


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

A. MAVRULOV, I. DEHQONOV

MADANIYAT TARIXI



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2007

BBK 71.0

O'quv qo'llanmada jahon va O'zbekiston madaniyatining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan tarixi haqida fikr yuritiladi. Jahon madaniyati tarixidagi umumiylig va alohidalik qadimgi Misr, Hindiston, Rim kabi mamlakatlar misolida tahlil ettiladi. O'zbekiston madaniyati bosqichma-bosqich, eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan tarix asosida tadqiq qilinadi.

Qo'llanma madaniyat va san'at yo'nalishidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga hamda shu soha bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

M—4402000000—126
353(04)—2007 Buyurt. var. — 2007

ISBN 978 — 9943 — 02 — 109 — 9

© „O'qituvchi“ NMIU, 2007

KIRISH

Ushbu o'quv kursini o'qitishdan maqsad, insoniyat ongi, tafakkuri, bilimi, qobiliyatining yuksak mahsuli bo'lgan ijtimoiy hodisa — madaniyat tarixini qalbingizga singdirishdir. Ma'lumki, o'zbek xalqi jahon madaniyati tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Ayni paytda, O'zbekiston uch ming yillik buyuk davlatchilik tarixiga ega. Mamlakatimizda qadimdan istiqomat qilib kelgan ajdodlarimiz yaratgan madaniy meros, jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Siz o'rganayotgan mazkur o'quv fanida ana shu masalalar o'z ifodasini topadi. Shuningdek, jahon madaniyati, uning tarixini o'rganmay turib, yetuk mutaxassis bo'lish ham qiyin. Shu ma'noda o'zbek milliy madaniyatini jahon madaniyati tarixi bilan uyg'unlikda o'rgana borish, tafakkuringizni boyitadi va ma'naviy dunyoqarashingizni chuqurlashtiradi.

Siz ushbu o'quv fanini o'rganish asosida o'zbek milliy va jahon madaniyati tarixiga oid dastlabki bilimlarni olasiz. Shunga ko'ra o'qish va faol ijtimoiy hayotingizda uni yanada mustahkamlab borishingiz lozim bo'ladi. Buning uchun siz, jamiyatda o'z o'rningizni topishingiz, komillik sari intilishingiz, zamon talablariga mos yuksak darajali mutaxassis bo'lishingiz, ijtimoiy faollik darajangizni oshirib borishingiz, ma'naviy dunyoqarashingizni yanada boyitib borishingiz zarur. Ayni paytda madaniyat tarixini, nazariyasini ham qunt bilan o'rganishingiz kerak.

„Madaniyat tarixi“ o'quv fanini chuqur, har tomonlama o'rganish natijasida quydagilarga erishasiz:

— o'zbek xalqi, mamlakatimiz hududida azaldan yashab kelayotgan xalqlar jahon madaniyatiga, ilm-faniga juda katta hissa qo'shib kelayotganligini anglab yetasiz;

— ilm-fan, madaniyat, ayniqsa, diniy qadriyatlar, yozuv madaniyati milliy madaniyat rivojida, jahon sivilizatsiyasida ham o'ziga xos o'rinnegallaganligini bilib olasiz;

— mamlakatimizda mustaqillik uchun kurash, milliy madaniylarni saqlab qolish, ularni yanada rivojlantirish, uyg'un ijtimoiy hodisa ekanligini tushunib olasiz. Buyuk sohibqiron Amir Temur

tomonidan yagona davlatchilik sari olib borilgan kurashlar nati-jasida yurtimizda kuchli madaniy muhit yaratilganligi, diniy va dunyoviy bilimlar rivojiga davlat hamda uning rahbari homiylik qila olish amaliyoti yuzaga kelganligini biliq olasiz;

— o'zbek milliy madaniyatni turli xalq madaniyatlari bilan uzviy va uyg'unlikda rivoj topishida, milliy madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi, ayirboshlovi, bir-birini boyitish jarayonida ayniqsa „Buyuk ipak“ yo'lining muhim o'rın tutganligini anglab olasiz;

— ko'hna tariximizning muayyan bosqichlarida yurtimizga ko'plab dushmanlar bostirib kirganligi, ular xalqimizni bo'yinsundirish uchun eng avvalo milliy madaniyatimizni yo'q qilishga harakat qilganliklarini, shunga qaramay o'zbek xalqi o'zligini, milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini saqlab qola olganligini tushunib yetasiz;

— milliy madaniyatimiz rivoji tom ma'noda mustaqillik yillarda ro'y bera boshlaganiga, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida munosabatda bo'linayotganligiga, davlat va mamlakat Prezidenti milliy madaniyat rivojining homiysi va kafolati maqomiga ega ekanligiga ishonasiz.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi, „Ta'lim to'g'risida“ gi Qonun talablari asosida ta'lim jarayonlari tubdan o'zgardi. Ta'lim sohasining moddiy-iqtisodiy asosi mustahkamlanib bormoqda. Zamonaviy kollej, litseylar, ularning xalqaro andozalarga mutanosib ravishda axborot kommunikatsiyalar bilan jihozlanishi jamiyatimizda sodir bo'layotgan islohotlarni o'zida aks ettirmoqda.

O'qituvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini chuqur anglovechi mutaxassis hisoblanadi. Ayni paytda, u o'quvchi ongiga yuksak Vatanparvarlik g'oyalarini singdiruvchi, millatning uzoq ming yilliklar davomida qo'lga kiritgan yutuqlarini targ'ib etuvchi ziyoridir. Hozirgi muallim zukko, keng fikrlovchi, axborot almashinushi kuchaygan, dunyo bo'ylab keng tarqalib borayotgan sharoitda yoshlarga yo'l ko'rsatuvchi, yangicha tafakkur etadigan mutaxassisidir. U sivilizatsiya, madaniyatlar tarixini, hozirgi kunini oqilona baholab, ongli ravishda idrok etuvchidir.

Gap shundaki, jamiyat fuqarolari o'zlarining ma'naviy-mafkuraviy poydevorini bilmas va unga suyanmas ekan yoki uni inkor etar ekan, unday shaxs milliy rivojlanishga xalal berishi mumkin. Bu ayniqsa jamiyatning bebaho mulki bo'lgan ziyorilar, ayniqsa o'qituvchilarga ko'proq tegishlidir.

Ta'lrim tizimining hal qiluvchi bo'g'ini — **o'qituvchidir**. Shu asnoda jamiyatning kelajagi, uning ravnaqida ziyoli-o'qituvchilarning mas'uliyati katta. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, „Ta'lrim to'g'risida“gi qonun amal qilayotgan hozirgi sharoitda bu narsa alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'qituvchining salohiyati, bilimi, ko'nikmasi, hayotiy tajribasi oxir-oqibatda bo'lg'usi mutaxassisning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa ayniqsa madaniyat va san'at oliv o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilariga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. O'zbek milliy madaniyati, san'ati nazariyasi va tarixini yaxshi bilgan zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni hayotga keng joriy qila olgan o'qituvchigina zamon talablariga mos mutaxassis kadrni tayyorlashi mumkin.

Bugungi mutaxassis zamonaviy fan va texnologiyalarni qunt bilan o'rganishi barobarida, u yuksak e'tiqodli, ma'naviy-ma'rifiy kuchli bilimga ega, mafkuraviy sobitqadam, iyemoni but, go'zal **Inson** bo'lishi lozim. Ta'lrim tizimida bu narsaga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu borada muayyan yutuqlarga ham erishilmoqda.

Milliy mustaqillik yillarda sobiq tuzum davrida shakllangan mafkuraviy-siyosiy aqidalar barham topdi. Ma'naviyat-ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida tan olindi. Madaniyat tarixi va umuman, milliy tariximiz qaytadan, yangi, zamonaviy metodologiya asosida yozila boshladi. Yangi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Bularning bari hozirgi zamon ta'lrim tizimida o'zining ifodasini topmoqda. Bizning tariximiz eng avvalo yaratuvchilik, bунyodkorlik, madaniyatlar tarixi ekanligi to'g'risidagi haqiqat qaror topdi. Milliy madaniy merosning tiklanishi esa ziyorilar, birinchi o'rinda o'qituvchilarни madaniyat va san'at bo'yicha yangi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Darhaqiqat, o'zbek milliy madaniyati jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'ringa ega. Masalan, Selungur (Farg'ona) dan topilgan madaniy yodgorliklar bundan bir yarim million yillar ilgari eng qadimgi inson faoliyati boshlanganligidan dalolat beradi. Bular — tosh qurollari, toshlardan yasalgan qo'l cho'qmorlari, payraxalar, uchirindilar, inson suyaklaridir. Ta'kidlash lozimki, Selungur tosh qurollari Tanzaniyaning Olduvey darasi, Esiopiyaning Omo vohasi, Isroiilning Ubaydiya, Janubiy Xitoyning Chjod Kou Tyan g'orlaridan topilgan tosh ashyolariga o'xshaydi.

Surxondaryoning Zarautsoyidan topilgan qoyatosh suratlar esa bu yerda 14–15 ming yillar avval ilk san’at mayjud bo’lganligidan dalolat beradi. Zarautsoy madaniyati jahonga mashhur Ispaniyaning Altamira, Fransiyaning Lyasko g’orlari devoriy suratlari qadr-qimmatiga teng ekanligi isbotlandi. Shuningdek, yaqinda Qizilqum (Navoiy) da bundan 7 ming yil avvallari ajdodlarimiz yaratgan, loydan yasalgan hamda butun saqlangan xumcha topildi.

Bo’lg’usi madaniyat va san’at xodimlari bundan 5 ming yil ilgari ajdodlarimiz bronza metall eritish texnologiyasini mukammal o’rganganliklarini bilsalar foydadan xoli emas. Mis va qalay yoki mis bilan qo’rg’oshin aralashmasidan bronza metali kashf etilgan. Darhaqiqat, sifatli bronza olish uchun mis bilan qo’rg’oshin aralashmasi 9:1 nisbatda, uni eritish harorati esa 930–1030 daraja bo’lishi kerakligini bilganlar.

Umuman, bronzaning kashf etilishi mamlakatimiz hududida iqtisodiy rivojlanishga asos soldi. Xususan, Jarqo’ton, Molali, Dalvarzin kabi o’nlab shaharlar shuning natijasida yuzaga keldi va bular rostmana o’zbek sivilizatsiyasi edi. Ular Xarappa-Xind, Eron, Mesopotamiya, Misr sivilizatsiya markazlari bilan bir qatorda turardi.¹

O’qituvchilar bir narsaga e’tibor qaratishlari va uni o’quvchilar ongiga yetkazish lozim, chunonchi O’zbekiston hududi jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu hududda o’ziga xos tarzda, evolutsion asosda madaniyat, san’at rivojlanib bordi. Bu fikr arxeologik qazilmalar natijasi o’laroq qo’lga kiritilgan yutuqlar bilan ham tasdiqlanadi. Masalan, Toshkentdan yuz chaqirim narida joylashgan Obirahmat va Machay g’orlarida 22 ming tosh qurollari tadqiq etildi. Uning yuqori qatlami 42 ming yil, o’rta qatlami 48 ming yil, deb davrlandi.

Haqiqatdan, o’zbek milliy madaniyati dunyodagi eng boy va ko’hma madaniyatlardan biri ekanligi endi hech kimga sir emas. Buni barcha e’tirof etmoqda. „Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, — deb ta’kidlaydi I. Karimov, — **eng qadimgi toshyozuvlар, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo’lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik,**

¹ Xalq so’zi. 2003-yil, 2-aprel.

dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi¹.

Madaniyat va san'at xodimlari amalda o'ta nozik va murakkab vazifalarni bajaradilar. Ular eng avvalo insonning qalbi, uning yuragi, dardu tashvishi bilan band. San'at xodimi tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarни tez anglab yetuvchi,unga baho beruvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs hisoblanadi. Shu ma'noda biz madaniyat va san'at xodimini millatni tarbiyalovchi, jipslash-tiruvchi, uyushtiruvchi, yagona maqsad yo'lida yo'naltiruvchi sifatida tan olishimiz lozim. Bunchalik murakkab va mas'uliyatli vazifani bajarish uchun esa o'sha madaniyat va san'at xodimi milliy madaniyat nazariyasi hamda tarixini mukammal bilishi, ulardan xolisona xulosalar chiqara olishi lozimdir.

Haqiqatdan ham, Vatanimiz chegaralari doimo bosqinchilar nazarida bo'lgan. Yurtimizning boy tabiiy-iqtisodiy sharoiti, xalqimizning mehnatsevarligi, pok yurakliligi, yuksak ma'naviyati—bularning bari tashqi dushmanlarimiz uchun fenomenal (noyob) hodisa edi.

Dushmanlar kelib ketaverdi. Biroq xalq madaniyati, san'ati rivoj topaverdi. Buning sababi, mamlakat Prezidenti I.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, „**qadim-qadim zamonlardan o'troq yashagani, ilm-ma'rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo'lgani, o'z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun emasmi?**²“²

Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbariyati ma'naviyat-ma'rifatni jamiyatni turli xurujlardan asrovchi, mavjud muammo-larni hal etishga ko'mak beruvchi kuch sifatida e'tirof etmoqda. Shu ma'noda I.Karimov „**Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch — ma'rifatdir**³“, degani haq edi, zero „**Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz**⁴“.

Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakatimizda demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat barpo etilmoqda. Barcha sohalarda chuqur, sifat o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. Jamiyatni,

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998-yil, 3–4-betlar.

² Karimov I. O'sha asar. T., 1998-yil, 17-bet.

³ Karimov I. O'sha asar. T., 1998-yil, 7-bet.

⁴ Karimov I. O'sha asar. T., 1998-yil, 18-bet.

shaxsni, uning tafakkurini takomillashtirish, tub islohotlarni amalga oshirish bizning uzoq muddatga mo'ljallangan strategik maqsadimizga aylangan.

Boshqacha qilib aytganda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilmoqda. Ta'lif tizimida fuqarolik jamiyati asoslarini o'rganish, targ'ib etish tufayligina shunday jamiyat qurish mumkin. Shu asnoda hozirgi kunda jamiyatshunos olim, o'qituvchilarining eng asosiy vazifasi fuqarolik jamiyati mazmun-mohiyatini tushuntirish, uni o'quvchilar ongiga singdirishdir. Qo'yilgan masalaning dolzarbligi shundaki, fuqarolik jamiyati va ma'naviy omillar o'rtasida o'zaro, uyg'unlik mavjud. „Barchamiz yaxshi bilamizki, — deydi I.Karimov, — **fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzlusiz ish olib borishdan iborat**“¹.

Ushbu fikrlar zaminida uchta bir-biriga bevosita bog'liq hodisa mavjud, chunonchi: fuqarolik jamiyati — ma'naviyat va ma'rifat — barkamol shaxs. Ta'bir joiz bo'lsa aytish kerakki, ushbu holatning uyg'unligi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotni belgilab beradi, jamiyatda muhim barqarorlik, farovonlik barpo etishi mumkin. Umuman, jamiyat rivojining asosini ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi qadriyatlar tashkil etayotganligi va ular yaxlit bir tizimga aylanayotganligi mamlakatimizda ma'rifiy jamiyat qurilayotganligidan va shu asnoda uchinchi ming yillikda ma'rifatlari dunyoga erkin-emin kirib borayotganligimizdan dalolatdir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda va umuman ta'lif tizimida yana bir narsaga e'tibor berish lozim: biz, fuqarolar hozir ma'naviy qadriyatlarni yaratishda qay darajada ishtirot etamiz? Biz hozir iste'molchimizmi yoki yaratuvchimizmi?

Ushbu qo'llanmada ko'proq, o'zbek xalqi madaniyat va san'at durdonalarini yaratuvchilarini ekanligi to'g'risida fikr yuritdik. Ammo, tarixning turli bosqichlarida xalqning, ziyolilarning ma'naviy qadriyatlari yaratishdagi ishtiroti bir xil bo'lavermaydi.

Sobiq tuzum davrida milliy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan asarlar, madaniyat durdonalari o'sha davrniig siyosiy-mafkuraviy „qolipi“ga sig'maganligi bois e'tibordan chetga surilaverdi. Natijada bizning yaratuvchanlik buyuk xislatimiz ko'pincha iste'molchilik amaliyoti bilan o'rinn al mashdi. Eng yomoni, ushbu holatlar tufayli

¹ „Xalq so'zi“, 2002-yil, 30-avgust.

bizning peshonamizga „ma’naviy boqimanda“ degan yorliq yopishtirildi. Mustaqillik yillardagina ushbu salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan maskuraviy-siyosiy muhitga barham berildi. Bo‘lg‘usi madaniyat va san‘at hodimlari biz faqatgina istemolchi emas, ayni vaqtda yaratuvchilar ekanligimizni ham anglab yetishlari kerak. Qolaversa, Yurtboshimiz ta’kidlagani kabi, bizning ota-bobolarimiz shuhratidan mahliyo bo‘lib yashash davrimiz o’tdi. Endi biz yaratuvchilar, barpo etuvchilmiz.

So‘nggi paytlarda milliy istiqlol g‘oyasi va milliy maskura xususida juda ko‘p fikrlar yuritilmoqda. Buning bir qancha sabablari bor. Ushbu tushunchalar pirovard maqsadda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g‘oyalarning ma’no-mazmuni teran anglashga xizmat qiladi.

Milliy g‘oya va milliy mafkurani aholi ongiga singdirmasdan turib, jamiyatda tubdan, sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish mumkin emas. Binobarin, milliy istiqlol g‘oyasi milliy madaniy merosimizga, buyuk tariximizga suyanadi, ulardan ozuqa oladi, shuningdek, jahon tarraqqiyoti yutuqlari bilan uyg‘undir.

Ana shu holatlar madaniyat va san‘at xodimlari tomonidan anglanishi lozim, zero bizning vazifamiz „**shundan iboratki, milliy istiqlol g‘oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyorilarimiz, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma’naviy-ma’risiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillash-tirish hamda uning asosiy tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishlari zarur**“¹!

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ma’rifatli, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish har bir shaxsdan ma’naviy barkamollikni talab etadi. Mamlakatda umumiy-ijtimoiy barqarorlikni, iqtisodiy rivojlantirishni, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni ta’minlovchi omil madaniyat va san‘atdir. Shu ma’noda madaniyat va san‘at hodimlari milliy madaniyatni, uning tarixini chuqur, har tomonlama o‘rganmas ekanlar, jamiyatda umumiy farovonlikni, mamlakatning jahon hamjamiatiga qo‘shilishini ta’minalash ancha qiyin kechadi.

¹ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000-yil, 8-bet.

MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI

„Falsafa“ qomusiy lug‘ati bo‘yicha „madaniyat“ so‘zi (arabcha-madinalik, shaharlik, ta‘lim-tarbiya ko‘rganlik) degan ma’nolarni anglatadi va tabiat hamda o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli ekanligi ta’kidlanadi. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat)ni hamda ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi.

Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga, maqsadga muvofiq ta’siri (yerni ishlash va hokazolar) hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma’nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali sivilizatsiya bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi.

Madaniyat mohiyatiga ko‘ra moddiy va ma’naviy madaniyatlarga bo‘linadi. Kishilik tarixining uzoq davrlarida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish jarayoni quyidan yuqoriga, oddiydan murakkablikka, alohidalikdan umumiylikka ega, o‘ziga xos uzlucksiz jarayon hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, madaniy boyliklarning yaratilishi jarayonidagi barcha bosqichlar doimo bir-birini to‘ldirib borgan. Masalan, ibtidoiy davrda insoniyat tomonidan yaratilgan eng oddiy tosh qurollar bilan hozirgi zamonaviy mehnat qurollari o‘rtasida ham o‘ziga xos bog‘liqlik mavjud. Chunki, birinchidan, agar ibtidoiy tosh qurollar mavjud bo‘lmaganda edi, hozirgi zamon qurollari ham vujudga kelmagan bo‘lardi. Ikkinchidan, ibtidoiy qurollarning ham, zamonaviy qurollarning ham bajaradigan vazifasi bir xil.

E’tiborga olish lozimki, hozirgacha madaniyatning umume’tirof etilgan umumiy, yagona, yaxlit tushunchasi yo‘q. Umumiy holatda u kishilarning tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar, ularni qayta tiklash va rivojlantirish yo‘llari, uslublari yig‘indisidan iboratdir.

Madaniyat atamasini maxsus o‘rganishga bag‘ishlab ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lsa-da, ammo, ular o‘rtasida umumiylik yo‘q. Ammo shu narsa ma’lumki, madaniyat atamasini ilm-fanga birinchi

bo'lib E. Teylar 1871-yilda kiritgan. O'sha davrda madaniyatning 7 ta'rifi bo'lgan. XX asrnинг 50-yillariga kelib madaniyatning 150 jan ortiq, 1970-yillarda esa 250 tadan ortiqroq ta'rifi bo'lgan.

Madaniyat sohasi shu darajada keng va qamrovlik, unga lagona, barcha uchun ma'qul bo'lgan ta'rifini berish ancha mushkul. Masalan, hozirgi kunda uning ta'rifi 500 dan ortib ketdi.

Biz yuqorida madaniyat ikki qismdan iborat ekanligini aytib o'tgan edik. Xo'sh, ularning bir-biridan farqi nimada? Jumladan, moddiy madaniyat deb — moddiy ne'matlarning butun majmuyiga, ishlab chiqarish qurollariga, ya'ni inson moddiy hayoti uchun xizmat qiladigan narsalarga aytildi. Inson faoliyati jarayonida foydalaniladigan mehnat va iste'mol vositalari, ishlab chiqarish qurollari hamda kishilarning kasb-hunar qobiliyati, tajribasi va malakasi moddiy madaniyatga kiradi.

Ma'naviy madaniyat masalasi yanada murakkabroqdir. Fan, din, adabiyot, san'at, falsafa, axloq, huquq, maorif sohasidagi boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish ma'naviy madaniyat sohasi hisoblanadi. Ma'naviy madaniyat bilimlar, g'oyalilar, obrazlar, tasavvurlar, dunyoqarashlar, maskuralar tizimi sifatida bir butun ko'rinishga ega. Bunday madaniyat o'tmish va hozirgi kunda inson kechmishi ma'naviy hayotini belgilovchi, ijtimoiy-iqtisodiy, san'at, fan, axloq, huquq, taraqqiyotning ahvoli va darajasini ko'rsatuvchi hamdir.¹

Madaniyat masalalari Sharq mutasakkirlari ijodida ham keng o'rin egallagan. Madaniyat insonning ma'naviy-aqliy barkamolligi shaklida, baxt-saodatga erishuvi shaklida tushunilgan. Keyinchalik, ushbu an'anaviy tushuncha avlodlar tafakkuridan mustahkam joy olgan. Shu sababdan, „madaniyat“ deganda ko'proq insonning ma'naviyati, uning ichki kechinmalari va tashqi qiyofasining mushtarakligini ko'z oldimizga keltiramiz.

Yuqorida aytganimizdek, madaniyatlilik sharqda axloqiy fazilatlar va fozillik tushunchalari bilan uyg'unlikda o'rganilgan. Abu Nasr Forobiy madaniyatlilik deganda ideal jamiyatni tushungan. „Madaniyat, jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma bab-baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida

¹ G'afurov F., Hakimov K., Aliyev B. Madaniyat va jamiyat. T., 1993-yil, 16-bet.

farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi“ deb aytadi mutafakkir.¹

Sharq Uyg'onish davrining mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylar ham Forobiy singari yetuk jamoaga ega bo'lgan shahar turmush tarzini madaniyatllilik sifatida tushunganlar. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy esa yetuk axloqlilikni, ma'rifatparvarlikni, adolatparvarlikni, ya'ni buyuk insoniy ideallarni qamrab oluvchi insonparvarlikni madaniyatllilik deb tushungan. Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Behbudiy, Fitrat va boshqalar madaniyatllilik deganda xalqni bilimli, ma'rifatli qilishni tushunganlar. Ahmad Donish madaniyatli inson tushunchasini ilm-fan va texnikani egallagan shaxs sifatida talqin qiladi. U Yevropa madaniyatini bevosita o'z ko'zi bilan ko'rgach, xalq ongiga ilm-fanni singdirish ham zarurligini anglab yetdi.²

Shunday qilib, madaniyat tushunchasi inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan holda uning individual sifatlarini oshirish natijasida shaxsning ijtimoiylashuvini tezlatadi. Insoniy fazilatlarni boyituvchi, kishida axloqiy sifatlar shakllanishini ta'minlovchi madaniyat azal-azaldan bo'lgani kabi hozir ham, kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotning yetakchi kuchi bo'lib qolaveradi. Yuqorida fikrlardan xulosa qilib shuni ayitish mumkinki, demak, madaniyat (arabcha „madaniyat“ – Madina shahrida VII asrdan boshlab targ'ib etila boshlangan yangi dunyoqarash tarafdlari ularning izdoshlarining qarashlari, nuqtayi nazarlari, harakatlari majmuasi) kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirishi jarayonida yaratgan moddiy-ma'naviy boyliklar, ularni qayta tiklash va rivojlantirish yo'llari yig'indisidir.

So'nggi paytlarda „ma'naviyat“ so'ziga ko'proq e'tibor berilayotir. Agar yuqorida bayon qilingan fikrlarga murojaat etadigan bo'lsak, ma'naviy madaniyat insonning aqliy, ruhiy, ma'naviy olami bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'ramiz.

¹ Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993-yil, 190-bet.

² Soatov G'. va boshq. Madaniyatshunoslik. T., 2000-yil, 15-bet.

Sharq mutafakkirlari ijodiyotida esa ma'naviyat insonning ichki olami, qalbi, ruhi, undagi insonparvarlik, vatanparvarlik xislatlari bilan bog'langandir. Shu ma'noda ma'naviyat tushunchasi xususida ayrim fikrlarni bayon etish maqsadga muvofiqdir.

„Falsafa“ qomusiy lug'atida „ma'naviyat“ insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi ekanligi ta'kidlanadi. Inson o'zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, ma'naviyatini umrining oxiri-gacha shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Chunki, insonda o'z ma'naviyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi. Shu ma'noda ma'naviyat insonning ongliligini, qobiliyatini va intilishlarini ham o'z ichiga oladi.

Ma'naviyat to'g'risida gapirganda shaxs, millat va mamlakat ma'naviyati xususida alohida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Xususan, shaxs ma'naviyati deganda o'sha kishining qalbi, uning aqlililik darajasi, ma'naviy-ma'rifiy holati ko'zda tutilsa yaxshi bo'ladi. Jamiyat ma'naviyati esa o'tmish va zamonaviy ma'naviy qadriyatlar, milliy an'analar olamini qamrab oladi. Mamlakat ma'naviyati tabiiy, ijtimoiy-falsafiy, adabiy-badiiy, estetik, diniy va siyosiy qadriyatlar insoniylashuvi bilan belgilanadi. Shu tariqa odamzodning jamiyatni insoniylashtirish darajasi, ijodkorlik tuyg'usi, ilmiy, diniy, siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy, badiiy va estetik tasavvurlarining, mafkura va dunyoqarashining mezoni sifatida „ma'naviyat“ tushunchasi shakllanib hamda rivojlanib boradi.

Shunday qilib, madaniyat va ma'naviyat tushunchalari bir-birini doimo to'ldirib boruvchi, inson va jamiyatning barkamolligini ta'minlovchi muhim omillardir. Ularning mavjudligi inson va jamiyatning mavjudligi, ijtimoiy taraqqiyotning, jamiyatning selajagi asosidir.





O'ZBEKİSTONNING ENG QADIMGI MADANIYATI

Vatanimiz tarixi haqiqatdan ham juda ko'hna hisoblanadi. Bu yo'lida unga zafarlar bilan tushkunliklar, o'z ijtimoiy ahamiyati jihatidan ulkan yutuqlar bilan boy berilgan imkoniyatlar, hozirgacha butun dunyoni lol qoldirgan madaniy merosni saqlash yo'lidagi harakatlar, kurashlar bilan bir paytda, tahqir etilishlar hamroh bo'ldi. Biroq, bu yo'qotishlar, jafokash xalqimizning o'z erki va mustaqilligiga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tishiga xalaqit qilolmadi.

O'zbek xalqining uzoq davrlarga borib taqaladigan tarixi silsilasida qo'lga kiritilgan yutuqlari orasida uning xalq, millat bo'lib shakllanishida madaniyat, san'atning o'rni va roli benihoya ulkan bo'ldi. Uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyotida dastlabki bosqich bo'lib, ayni shu paytda odamlar jamoa-jamoa bo'lib yashashga, inson ongida kuch, qudrat birlikda ekanligini xis etish tarkib topa boshladi. Ana shunday murakkab, yashash uchun kurash avj olgan bir paytda madaniyat ravnaqi uchun zarur shart-sharoitlar va zamin yaratila boshlandi.

Madaniyat tarixining eng qadimgi davrini o'rganish anchagina murakkab. Shuning uchun o'qituvchilar bunda ko'proq arxeologiya fani, uning yutuqlariga murojaat qilsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi, zero tarix va arxeologiya aslida o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini doimo to'ldirib boruvchi fanning ikki muhim sohasidir.

Madaniyat masalalarini yoritishda qo'l keladigan eng muhim manbalar ikkita: birinchisi arxeologiya bo'lib, uning omillari boshqa manbalarga qaraganda juda qadimiyligi va ularning paydo bo'lishi 2,5-3 million yilga borib taqaladi. Insoniyat tarixi, uning madaniyatini o'rganishning ikkinchi manbayi yozuv bo'lib, uning paydo bo'lishi miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarga borib yetadi. Boshqacha aytganda, eramizning hozir biz yashab turgan ikki ming yilini ham qo'shsak, unda bugungi mamlakatimizda yashayotgan avlodning ota-bobolari olti ming yillik tarixga, madaniyatga ega ekanliklarini anglab olishimiz mumkin. Biroq,

bizning tasavvurimizdagι ushbu bir necha ming yillik, insoniyat tarixining paydo bo'lishiga nisbatan nihoyatda kichik davrdir. Biz kishilik jamiyati butun tarixini ramziy ma'noda 24 soat deb faraz qilsak, shundan 23 soatu 56 daqiqasi ibtidoiy — yozma manbalarsiz davrga, qolgan 4 daqiqasi yozma manbalar tarixi davriga to'g'ri keladi.¹ Shuning uchun ham tarix, jumladan, madaniyat tarixini arxeologiya fanisiz o'rganish mushkul. Mazkur fan yutuqlari tufayli topilgan mehnat va ov qurollari tufayli, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari kabi ashayoviy dalillar ibtidoiy jamoa kishisining nafosat va diniy qarashlarini bilishga, ular madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, odamlar va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va turli tasvirlar, uzoq vaqtlar tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbayi hisoblanadi va shu nuqtayi nazardan ham ularsiz o'tmish madaniyatini o'rganish ancha murakkab kechadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davri madaniyat haqida fikr yuri-tilganda o'quvchilarga madaniy qatlamlar haqida ma'lum tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir, zero bunday qatlamlar deyilganda insoniyatning turmushi, xo'jaligi va ijtimoiy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Ming yillar osha asta-sekin vujudga kelgan bunday madaniy qatlamlar ochiq — manzilgoh, g'or — makon, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarining jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda joyланishi tufayli yuzaga keladi.

O'rta Osiyo hududida hozirga qadar 20 dan ortiq yodgorliklar, ya'ni madaniy qatlamlar ochilgan, shuningdek, yuzdan ortiq manzilgohda tekshiruvlar olib borilgan bo'lib, ular O'zbekiston, Tojikiston, Qиргизистон va Turkmanistonning tog' etaklari hamda Qizilqum cho'li va Markaziy Farg'onada joylashgandir. Keyingi paytlarda Toshkent viloyatining turli hududlarida poleolit (qadimgi tosh) davriga oid o'ndan ortiq noyob arxeologik yodgorliklar topilib, tekshirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi A. Muhammadjonovning fikricha, ular tog' daralari bo'yab joylashgan g'or va ungurlar, jarliklar yoqasida barpo etilgan ibtidoiy

¹ Kабиров J., Сагдуллаев А. О'рта Осиyo археологияси. Т., 1990-yil, 5-bet.

odamlarning manzilgoh va makonlari; qoyatoshlarga bitilgan petroglif – suqilgan suratlar va boshqalardan iborat bo'lib, ular Toshkent vohasidagina emas, balki butun O'rta Osiyoda yashagan eng qadimgi odam ajdodlari hayotini, uni yaratgan ibtidoiy madaniyatini o'rganishda nodir va qimmatbaho manba hisoblanadi. Ohangaron va Qizilolmasoy yaqinida joylashgan Ko'lbuluoq makoni yuqorida aytib o'tilgan yodgorliklar orasidagi eng qadimiysidir. Ushbu qadimiy makon ming yillar davomida hosil bo'lgan 20 metrlik qalin madaniy qatlidan iborat bo'lib, undan qayroq va chaqmoq toshlardan yasalgan bir necha yuz mingdan ortiq tosh qurollar hamda gulkhan izlari, hayvonlar suyaklari topilgan. Ko'lbuluoq makonining yuqori qatlidan chiqqan ashyolar asosan o'rta tosh davriga mansub bo'lsa, uning ostki qatlamlaridan kovlab olingan qo'pol tosh qurollar ilk tosh davriga taalluqlidir. Bularga asoslanib yodgorlikning pastki qatlamin arxeologlar ashel davri bilan, ya'ni hozirgi kundan qariyb 200–300 ming yil muqaddam deb sanasalar, geologlar uni hozirgi kundan taxminan 500–700 ming yil avval yotqizilgan, deb hisoblamoqdalar.¹ Ko'lbuluoq makonidan, shu bilan birga Qizilolmasoy va Qo'shsoyda qayd etilgan ibtidoiy davr ustaxonasidan topilgan nihoyatda boy va turli-tuman tosh qurollar, hayvon suyaklari va boshqa xil topilmalar Toshkent vohasida yashagan ibtidoiy ovchi va temirchilarining turmush tarzi, yaratgan ilk madaniyati, ayniqsa shu o'lkaning uzoq o'tmishdag'i tabiatini o'rganishda tadqiqotchilarga juda qimmatli ma'lumotlar bermoqda.

O'zbekiston madaniyatining eng qadimgi davrlarini o'rganar ekanmiz, o'qituvchi o'sha paytda ham turli xalqlar madaniyatining o'zaro aloqalari mavjud ekanligiga o'quvchilarining diqqatini qaratishi to'g'ri bo'lardi. Chunonchi, eramizdan avvalgi VI ming yillikka mansub Joytun madaniyatining taraqqiyot bosqichlari va uning kelib chiqish sabablari aniqlanar ekan, uning shimoliy Iroqning Jarma madaniyati bilan bog'liq ekanligi isbotlandi. Bunday o'zaro aloqadorlik boshqa madaniyatlar, madaniy qatlamlar misolida ham aniqlangan.

Manbalardan, eramizdan avvalgi IV–III ming yilliklarda bizning hozirgi hududimizda, chunonchi cho'l va yarimcho'l

¹ Muhammadijonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1998-yil, 7–8-betlar.

mintaqalarda ovchilikka asoslangan ibtidoiy jamoa xo'jaliklari qaror topganligi ma'lum bo'ladi. Bunday jamoalarning moddiy madaniyat izlari esa qadimgi Xorazmda neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati yodgorliklari misolida o'rganilgan.

O'lkamiz tarixi, jumladan, madaniyat tarixini o'rganishda Kaltaminor madaniyatining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur madaniyat o'z taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tgan. Ilk (daryo-soy) bosqichi eramizdan avvalgi VI-V ming yilliklarni qamrab olgan bo'lsa, uning o'rta bosqichi (Jonbos-4) eramizdan avvalgi V-IV ming yilliklarga to'g'ri keladi. O'zboy nomli uchinchi bosqich esa eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarni qamrab oladi. Arxeolog olimlarning qayd qilishlaricha, kaltaminorliklarning manzilgohlari odatda O'rta Osiyoning azim daryolari quyi tarmoqlari havzalarida uchraydi, chunki ular yuqorida aytib o'tganimizdek, ovchilik, baliqchilikka xos turmush tarzidan kelib chiqqan holda o'zlarining o'troq va yarim o'troq jamoalarini suv yaqiniga, ko'l sohillariga joylashtirganlar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlardan dars o'tish jarayonida qadimiylar madaniyatning paydo bo'lishida tabiiy muhit, hududiy xususiyatlarning ham o'rni va roli katta bo'lganligiga e'tibor berish muhimdir. Gap shundaki, bunday madaniyat eng avvalo tekisliklar, yarim tekisliklar, suv bo'yalarida paydo bo'lgan bo'lsa, asta-sekin bunday hol tog' oldi va tog'li mintaqalarda ham yuz bera boshlagan. Chunonchi, Kaltaminor va Joytun madaniyatları O'rta Osiyoning tekislik va yarim tekislikdan iborat katta hududida paydo bo'lgan bo'lsa, so'ngra aynan shunday madaniyat boshqacharoq qiyofada tog'li joylarda, jumladan, Hisor madaniyati shaklida yuz berdi.

Tadqiqotchilar, jumladan, Hisor madaniyatining birinchi izlanuvchisi A. P. Okladnikovning fikricha, bu yerda tog' sharoitida dehqonchilik qilish amal qilganiga qaramasdan, ovchilik va chovchachilik muhim o'rinni egallagan. Nurek yaqinida, Vaxsh daryosi bo'yidagi Tutqavulda olib borilgan izlanishlar natijasida tosh davriga oid 40 mingdan ziyod qurol-yarog'lar, ro'zg'or buyumlari topiladi. Ayniqsa pichoq, bolta, yog'och ishlovchi asboblar, ovchilik maqsadida yaratilgan nayzalar mazkur madaniyat o'z salohiyati jihatidan katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Akademik B. Gofurovning fikricha, ushbu manzilgoh ibtidoiy odamlarning ishlab chiqarish faoliyatiga o'tish davrini

izohlaydi. Hisor madaniyati tadqiqotchilar nuqtayi nazaridan uch ming yilni o'z ichiga olib, avvalgi VI—III ming yilliklarga taalluqlidir¹.

Ibitidoiy jamoa tuzumining neolitdan keyingi bosqichi — eneolit davri yaxshi o'rganilmagan. Bu davrga oid yodgorliklar ko'proq avlod-ajdodlarimiz yashagan hududning janubiy-g'arbiy qismida o'rganilgan. Bu zaminda eramizdan avvalgi V ming yillikning oxiridan to III ming yillikning o'rtalari oralig'ida eneolit davriga oid qadimgi dehqon jamoalarining Nomozgoh (Nomozgoh I, II, III) madaniyati shakllandi. Zarafshon daryosining yuqori havzasida (Sarazm madaniyati) ham aynan shu dehqonchilik an'analariga mos keladigan madaniyat izlari tadqiq etildi. Shu davr oxirlarida Zarafshonning quyi oqimida cho'l mintaqasi urug' jamoalarining chorvachilik va dehqonchilik madaniyati (Zamonbobo madaniyati) shakllandi.²

Dars o'tish jarayonida O'rta Osiyoda shahar madaniyati ham gurkirab rivojlanganligiga alohida e'tibor berish lozim, zero eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalaridan O'rta Osiyoning keng cho'l va adirlarida chorvadorlar madaniyatining ravnaqi kuza-tilsa, uning janubiy tomonlarida hunarmandchilik xo'jaligi taraqqiy etgan bobo dehqonlarimizning ilk shahar madaniyati tarkib topganligini bilib olish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarda O'rta Osyo shahar madaniyati to'rt, to'rt yarim ming yillik tarixga ega ekanligini tushuntiriladi. Shu tariqa Vatan tuyg'usidek muqaddas tuyg'u tarkib toptiriladi va avlodlarimiz tarixi, madaniyatiga nisbatan mehr-muhabbat shakllantiriladi.

Qadimda, bulardan tashqari, Chust madaniyati, uning ta'sirida qadimgi bobo dehqonlarning manzilgohlari Toshkent vohasida Burgunli soy madaniyati, Zarafshon, Qashqadaro vohalaridagi madaniyatlar, Sopolli tepa madaniyati, eramizdan avvalgi IV—II ming yilliklarga to'g'ri kelgan Sumbar madaniyati kabi ko'plab yodgorliklar mavjud bo'lganligini qayd etish muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yodgorliklarning qadimgi ajdodlarimiz madaniyati, turmush tarzini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu davrlarda ixcham, qulay mehnat qurollari,

¹ Gafurov B.G. Таджики. Древнейшая. Древняя и средневековая история. Dushanbe, 1-tom, 1989-yil, 21-bet.

² O'zbekiston xalqlari tarixi. 1-jildi, T., 1992-yil, 14-bet.

hamon-yoy, qayiqlarning ixtiro qilinishi qadimgi odamlarning bayotini faollashtirdi, odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga zarur buyumlarni yarata boshladilar, diniy tushunchalar keng yoyila boshladi. Odamlarda „narigi dunyo“ tushunchasi paydo bo'ldi, ko'mish marosimi bilan bog'liq bo'lgan turli urf-odatlar yuzaga kela boshladi. Bularning barisi kishilarda murakkab tasavvur va fikrflashning paydo bo'layotganligidan dalolat beradi.

Topilgan suratlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir, zero bularda san'at mavzusining kengayganligini, uning janrlari ortganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, bu davrda ovchilikni, jang voqealarini aks ettiruvechi murakkab kompozitsiyalar yaratildi. Bularда asosan o'z fikrini bayon etish uchun obrazlarni sxematik va shartli belgilar tarzida tasvirlagani holda, bo'layotgan voqeanning mohiyatini ochishga intilayotganligini ko'rish mumkin bo'ldi. Jumladan, bronza davrida Farg'onadan topilgan bilaguzuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan. Kulolchilik ham taraqqiy eta boshladi, jastgohlarning paydo bo'lishi esa yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

Eramizdan avvalgi davrning so'nggi bosqichlarida cho'l aholisi orasida o'troqlashuv kuchaydi, cho'l atroflaridagi kichik vohalarda esa sug'orma dehqonchilik madaniyati markazlari yuzaga kela boshladi. Bronza davrida paydo bo'la boshlagan irrigatsiya inshootlari O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishiga olib keldi. Bu bizlarga eramizdan avvalgi II ming yillikka oid Xorazmda topilgan kanallarning mavjudligi, bularning Farg'onada ham bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlardan ma'lum.

Tadqiqotchi olimlarning guvohlik berishlaricha, eramizdan avvalgi II ming yillikning oxirlari va I ming yillikning birinchi choragida O'rta Osiyo hududida qadimiy davlat tuzilmalarining paydo bo'lganligi kuzatilgan. Nihoyatda uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot tarayonining iqtisodiy va madaniy yakuni sifatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm kabi qator tarixiy-madaniy viloyatlarning markazlari shakllandi, shuningdek, ana shu viloyatlar doirasida baqtriya, so'g'diy va xorazm xalqlari yuzaga keldi.

O'rta Osiyo madaniyatining keyingi davri esa aynan shu xalqlarning ijtimoiy holati, tarixiy taqdiri bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

O'rta Osiyo madaniyatini, uning tarixini o'rganishda, hech shubhasiz, arxeologik yodgorliklarning roli kattadir. Biroq, ular ko'proq bunday madaniyatning tashqi belgilari, xususiyatlarini ochib berishi bilan, bunday madaniyatning ruhiy-ma'naviy jihatlarini yoritishda yetarli emasdir. Shu nuqtayi nazardan madaniyatning tom ma'nosi, uning mohiyati yozma manbalarga asoslangandagina ochilishi, o'zini namoyon eta olishi mumkin. Shu o'rinda o'quvchilarga antik madaniyati, san'ati haqida ma'lumotlar berish muhimdir, zero bu davorda endi yozma manbalar paydo bo'la boshladi. Antik iborasi lotincha „antikkus“ so'zidan olingan bo'lib, „qadimiy“ degan ma'noni bildiradi. Italiya gumanistlari tomonidan XV asrda fanga olib kirilgan ushbu ibora asosan qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflashda qo'llanilgan. Antik davr eramizdan avvalgi 3000-yillardan yangi eraning V asrigacha O'rta Yer havzasasi hamda Qora dengiz sohillarida mayjud bo'lgan quzdorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi.

Biroq, antik madaniyat hududiy jihatdan chegaralangan ekan, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunonchi, Osiyo, Ovro'po, Afrikaning shimoliy hududlaridagi xalqlar ham o'z madaniyati va san'ati bilan antik ma'naviyatga aloqadordir, zero ushbu xalqlar va elatlari uzoq tarixiy davr mobaynida grek va rim san'ati, adabiyoti bilan o'zaro aloqadorlik jarayonini o'z boshlaridan kechirganlar.

Arxeologik qazilmalardan topilgan yodgorliklar biz hozir yashayotgan hududning jahon madaniyati va san'ati rivoj topgan eng qadimiy markazlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Mazkur yodgorliklar bizning qalblarimizni iftixor hissi bilan to'ldirsa-da, biroq o'sha davrning O'rta Osiyo antik davri ma'naviy holatinig mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Gap shundaki, antik davrga oid birorta ham adabiyot, yodgorlik hozirgacha saqlanib qolmagan yoki u topilmagan.

Dars o'tish va unda o'lkamiz madaniyati masalalarini yoritish jarayonida alohida ahamiyat berilishi lozim bo'lgan bir muammo bor. U ham bo'lsa, O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va san'atini hozirgi kunda qalblarga jo qilishning muhim manbayi bo'lgan grek va Rim adabiyotidan unumli foydalanishdir. Chunonchi, xalq og'zaki ijodi o'sha davr adabiyotida juda muhim o'rin egallagan. Grek va Rim adiblari o'z asarlarida O'rta Osiyo

Jadidagi xalqlar tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odati haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Bunday asarlarning aksariyati qealarning asl mohiyatini oshib beradi va aniq dalillarga shindi.

Shu o'rinda Gerodotning „Tarix“ asariga kirgan „To'maris“ Polienning „Harbiy hiylalar“ kitobidan alohida o'rin egallagan Shiroq“ afsonalarini eslatib o'tish joizdir. O'rta Osiyoning, Chunonchi Sirdaryoning antik davrini tasvirlovchi tarixiy asarlar shida Kvint Kurs Rufning „Aleksandr Makedonskiy tarixi“ asari alohida o'rin tutadi. Ushbu asarda O'rta Osiyoning eramizdan avvalgi IV—III asrlariga oid voqealar keng o'rganilgan, ikki daryo Oksus (Amu) va Yaksart (Sir) oraliq'idagi tarixiy voqealar nihoyatda mufassal ifodalangan.

Dars o'tish jarayonida o'qituvchi har qanday bosqinchilik, v'zgalar yeriga egalik qilish hissi, zabit etilgan hududlardagi qatimoiy-siyosiy, iqtisodiy, jumladan, madaniy hayotga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy ekanligini alohida uqtirishi muhimdir. Masalan, yuqorida tilga olingen asarda yozilishicha, Aleksandr Makedonskiy Marokand shahriga yetib kelib, uning devorlari baland ja mustahkam ekanligini ko'radi. Uning ichiga joylashgan qal'a yana bir devor bilan o'ralgani ma'lum bo'ladi. Aleksandr bu yerda katta qo'shinni qoldirib, o'zi yaqin atrofdagi qishloqlarni yoqib, talay boshlaydi. Tabiiyki, bunday shafqatsizliklar oqibatida o'lka madaniyati, san'ati vayron qilinar, ma'naviy-madaniy hayot esa zaiflashardi.

Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyodan behisob boyliklarni o'lja qilib oldiki, uning hisobiga yetish qiyin edi. Chunonchi, b'irgina Suz ibodatxonasidan qimmatbaho tillalar, mo'ynali buyumlar va boshqa boyliklar bilan birga 50.000 talant tilla o'lja olingen. Aleksandrning qo'shirlari O'rta Osiyo madaniyatiga vahshiylarcha munosabatda bo'lgan. Yuksak san'at obidalarimizni vayron qilgan. O'rta Osiyo madaniyati, san'ati, xususan, maishiy madaniyati nihoyatda boy va sermazmun ekanligini isbotlovchi misollar juda ko'pdir. Masalan, F.Boynazarov o'zining „O'rta Osiyoning antik davri“ kitobida grek-makedoniyaliklar Aleksandr buyrug'iga binoan so'g'diyonaliklarning urf-odatini qabul qiladilar, hattoki uning o'zi ham safarda so'g'diyonaliklarning kiyimini kiyib yurgan, chunki bu kiyimlar juda ko'rkar va ixcham bo'lib, ayniqsa jang paytida juda qulay edi. Aleksandr

grek-makedoniyaliklarning kiyimini kiysa yosh bolaga o'xshab, o'z salobatini yo'qotib qo'yardi. Agar sharqliklarning kiyimini kiysa savlatli va ko'r kam bo'lib, Osiyo shohlaridek ulug'vor qiyofada ko'rinardi.

Dars o'tish jarayonida o'sha davrga taalluqli voqealarning aksariyat qismi, So'g'diyonadagi antik davrlardagi tarixiy hodisalar grek va Rim adabiyotidan o'rin olgan o'nlab asarlar sahifalarida o'zining yorqin ifodasini topganligini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Kvint Kurs Rufning yuqorida eslatib o'tilgan „Aleksandr Makedonskiyning tarixi“, Arianning „Aleksandring yurishi“, Plutarxning „Aleksandr“, Polienning „Harbiy hiylalar“, Diodorning „Tarixiy kutubxona“, Yustinning „Pompey Trog epitomi“ (Pompey Trogning „Filipp tarixi“), Strabonning „Geografiya“ asarlarida So'g'diyonaning antik davrlari tasvirlangan.¹

Mazkur asarlar vositasida antik davrlarda yashagan avlod-ajdodlarimiz hayoti, urf-odati, madaniyati va san'ati bilan yaqindan tanishish, Vatanni himoya qilishga qodir Spitamen kabi milliy qahramonlarimiz borligidan faxrlanish, xalqimiz o'z donishmandlariga ega bo'lganligi, madaniyati esa gullab-yashnaganligini, bosqinchiliklar o'laroq madaniyat durdonalari vayron etilib, yo'q qilinganligini bilib olish mumkin.

O'zbekiston madaniyati tarixini o'rganishda yozuv muammolarini tahlil etish ham muhim. Ma'lumki, alifbo yozuvlarining kelib chiqishiga konsonant – xarfiy yozuv hisoblanuvchi qadimiylari somiy – finikiy xati asos bo'lgan. Finikiy xatida 22 ta harf bo'lgan va u keyinchalik Kichik Osiyo, Gretsiya va Italiyaga o'tib, g'arbiy yozuvlarning, jumladan, yunon, grek, lotin, slavyan alifbolarining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Uning eramizdan avvalgi ming yillarcha shakllangan tezkor, kursivli shakli esa Yaqin va O'rta Sharqqa yoyilib, sharqiy, jumladan, oromiy, yahudiy – kvadrat, paxlaviy, arab alifbolarining kelib chiqishiga sabab bo'lgandi.

Turkiy xalqlar tomonidan qadimgi va ilk o'rta asrlarda qo'llanilgan yozuvlarning ildizi qolgan sharqiy xarf – tovush tizimidagi alifbolar singari oromiy xati orqali finikiy yozuviga borib taqaladi.

¹ Boynazarov F. O'rta Osiyoning antik davri. T., 1992-yil, 14-bet.

O'rta Osiyoda ahmoniyalar davrida mix xat bilan bir qatorda Mesopotamiyadan kirib kelgan oromiy xati ham asosiy yozuv sifatida amal qilgan. Eramizdan avvalgi II asrga kelib Xorazm, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Farg'onaning mahalliy tillari oromiy tilini (ahmoniyalar davlati davrida davlat idora ishlarida keng qo'llanilardi) asta-sekin surib chiqara boshladi. Yozuvning shu tarzda taraqqiy etishi va uning mahalliy tillar xususiyatlariga asta-sekin moslashuvi xat turlarining o'zaro bir-biridan ajralishiga hamda „milliy“ — xorazm, parfiya, so'g'd, baqtriya, farg'ona, qadimgi turk yozuvlarining kelib chiqishiga imkon beradi. Biz bu haqida keyinroq to'xtalib o'tamiz.

Hozir esa yozma yodgorliklar orasida zardo'shtiylarning muqaddas kitobi „Avesto“ haqida ayrim fikrlar bildiramiz. zero zardo'shtiylik ahmoniyalar davrida (eradan avvalgi VI-IV asrlar) davlat dini sifatida, keyinchalik, eramizning III asrlaridan Eronning davlat dini sifatida arab istilosи va islom dinigacha amal qilgan.

Tarix o'qituvchisi o'quvchilarining diqqatini shu narsaga qaratishi lozimki, zardo'shtiylik o'z zamonasidagi yagona din bo'Imagan. Bu vaqtida O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimgi e'tiqodlari o'z ifodasini topgan. Chunonchi, taniqli tadqiqotchi A. O. Makovelskiy, akademik V. V. Struvening bu haqdagi fikrini rivojlanТИrib zardo'shtiylik evolutsiyasining uch bosqichini ko'rsatadi:

1. Avestoning eng qadimiyligi qismi Yashta bo'lib, unda sinfiy jamiyatgacha bo'lган qabilalarning e'tiqodlari o'z aksini topgan. Mazkur zamonda tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi ko'п xudolilik hukmronlik qilgan.

2. Ikkinci bosqich Gata bo'lib, unda yagona xudo Axuramazda haqida hikoya qilinadi. Uning muallifi miloddan avvalgi VI asrda yashagan Spitama Zarataustra (Zardo'sht) ekanligi taxmin qilinadi.

3. Ko'п xudolilik Yashta va yakka xudolilik Gata o'rtasidagi kurash natijasida miloddan avvalgi V asrda murosasozlik xarakteridagi Mazda deb ataluvchi e'tiqod vujudga keladi. U Avestoning diniy ta'lilotidagi asosiy uchinchi bosqich hisoblanadi.¹

¹ Iskandarov B. O'rta Osiyo falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrnинг akllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T., 1993-yil. 7-bet.

Avesto uzoq asrlar davomida bir necha marta o'zgartirilib, qayta-qayta tahrir etilganligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Chunonchi, mazkur yozma asar hattoki Mazdak qo'zg'olonidan keyin ham tahrir etilganligi ma'lum. Mazkur tahrirdan so'ng Avesta 21 kitobdan iborat bo'lib, uning to'rtdan bir qismigina saqlanib qolgan, xolos.¹

O'quvchilarga shu narsani tushuntirish lozimki, „Avesto“ eng avvalo bizning buyuk va takrorlanmas milliy-madaniy merosimizdir. I. Karimov bu haqida shunday deydi: „Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz „Avesto“ ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. „Avesto“ ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi“².

O'rta Osiyoda murakkab feodal munosabatlarning rivoj topishi mafkurada aks etdi: zardo'shtiylikda yangi oqim – moniychilik kelib chiqdi. Uning asoschisi Moniy degan kishi bo'lib, u 216–217-yillarda Vaviloniyada tug'ilgan va 276-yilda qatl etilgan. U fors, aramey tilida diniy va axloqiy masalalarga oid asarlar yozgan, u hattoki „moniylik yozuvi“ degan alifbo ham yaratgan.

Mazkur ta'llimotga ko'ra, hayotda dastavval nur dunyosi – yaxshilik va zulmat dunyosi – yovuzlik mavjud. Ular o'rtasidagi kurash abadiy davom etadi va pirovard natijada yaxshilik tantana qiladi, inson o'z xulqi va butun hayoti bilan yorug'likning zulmat bilan kurashiga yordam berishi va yorqin kelajak, yaxshilikning tantanasi uchun xizmat qiladi.

Yuqorida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yozma yodgorliklar – yozuvlar haqidagi fikrlarimizni keyinroq yana davom ettiramiz, degan edik. Tariximizning keyingi bosqichlari, chunonchi eramizdan avvalgi IV–III asrlardan boshlab bizning hududimizda Xorazm yozuvi, parsiya yozuvi, So'g'd yozuvi,

¹ Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. I-kitob. Dushanbe, 1989-yil, 60-bet.

² Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998-yil, 10-bet.

qadimgi turkiy yozuvi, Farg'ona yozuvlarining ta'siri katta bo'ldiki, o'sha davr madaniyatini mazkur yozuvlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxirlarida Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yashagan qadimgi so'g'dlar tomonidan „so'g'd yozuvi“ nomi bilan yuritiluvchi mustaqil yozuv kashf etildi. So'g'd xatining bizgacha saqlangan ko'hna namunalari eradan avvalgi so'nggi asrlar va eramizning I asrlarida tangalarga bitilgan. Bunday xat o'lkanning keng hududlarida o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lsa-da Buxoro va Samarqand xatlari bir-biridan farq qilardi.

Eramizning boshlarida so'g'dlarning qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari kengaydi. Natijada so'g'dlarning tili va yozuvi So'g'd davlatidan tashqariga: Marvdan Sharqiy Turkiston va hozirgi Sharqiy Mo'g'uliston hududigacha yoyildi. 1889-yilda tarixda birinchi bo'lib so'g'd xatidagi yodgorlik ham aynan Mo'g'iliston zaminidan topilgan. Mazkur yodgorlik uyg'ur xoqonlaridan birining yengilishi munosabati bilan IX asrda o'rnatilgan bitik toshdir. Asrimiz boshlarida Sharqiy Turkistondagi qadimgi savdo yo'llaridan charm va qog'ozga yozilgan so'g'd adabiyotining diniy-falsafiy mazmundagi yodgorliklari topildi. So'g'd tilida so'g'd xati bilan bitilgan xalq eposining alp Rustam haqidagi bir just lavhasi, „Kalila va Dimna“ ning so'g'dcha bayoni, eramizning 312–313-yillarida yozilgan, hozirda so'g'dshunoslikda „Ko'hna so'g'd xatlari“ nomi bilan mashhur bo'lgan bitiglar, shuningdek, VIII–IX asrlarda yaratilgan budda, moniy, xristian mazmunli diniy-falsafiy matnlar, buddizm adabiyotining namunalari va shu davrga oid boshqa hujjatlar shular qatoriga kiradi.¹

Shunday qilib, quldarlik jamiyati davridagi ilk davlatlar: So'g'diyona, Baqtriya, Parfiya davlati hamda Yunon-Baqtriya podshohligi, Qanqa, Parkana, Toxariston davlatlarida madaniyat, ayniqsa yozuv madaniyati gurkirab rivojlandi. Bu davrning me'morchilik yodgorliklari saqlanmagan, lekin ibodatxona, me'moriy binolar, haykalchalar qoldiqlari, ayollar va ot bezaklari bizgacha yetib kelgan. Biz yuqorida sanab o'tgan davlatlarda shahar madaniyati, ayniqsa, taraqqiy etdi. Ma'lumotlarga

¹ Oxunjonov E. Qadimgi yozuvlar. T., 1989-yil, 6-bet.

ko'ra yozuvlarning soni qanchalik ko'p bo'lishiga qaramay hudu-dimizdagi yashagan barcha xalqlar bir-birlarining xatlarini o'qiy olganligi, bu o'lkada madaniyatning har tomonlama rivoj-langanligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyoda rivojlangan quldorlik jamiyatni (I—IV asrlar) asosan Kushon podshohligi bilan bevosita bog'liqdir. Kushon podshohligi davrida O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari madaniyatni butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'ren egallaydi. Bu davrda antik madaniyati, tilni va dirlari har xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi va rivojlandi. Bu o'z navbatida, keyingi asr madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'ldi. Ayni paytda mazkur davr Markaziy va O'rta Osiyo xalqlarining oldingi davridagi rivojiga yakun yasadi. Shundan so'ng Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi.

Kushonlar davridagi O'rta Osiyo xalqlarining yuqorida taraqqiy etgan madaniyatidan guvohlik beruvchi juda ko'p moddiy va madaniy dalillar mavjud. Biroq kushonlarning kelib chiqishi, sultanatning shimoliy chegaralari, Kushon shohlarining hukmronlik qilgan yillarini, kushonlar davlatining ijtimoiy tuzumi, diniy e'tiqodlari, tilni va yozuvi kabi masalalarni yorituvchi yozma manbalar deyarli yo'q. Shu bois bu savollarga asosan arxeologik tadqiqotlardan javob topish mumkin.

Keyingi yillarda Shimoliy Baqtriyaning kushonlar davridagi qishloq aholisi madaniyatini, ularning diniy tasavvurlari, e'tiqodlari, maishiy hayotlari va mashg'ulotlarini o'rganishga ham alohida e'tibor berilmogda. Qishloq xarobalarida olib borilayotgan dastlabki izlanishlar, qishloq aholisining turmushi shaharliklar turmushiga ancha yaqin, ular o'rtasidagi aloqalar uzviy bo'lganligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Sherobod shahri yaqinidagi Oqqa'rg'on yodgorligida olib borilgan qazish ishlari haqida ayrim ma'lumotlar bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Oqqa'rg'on yodgorligining umumiy maydoni 0,8 hektarga yaqin bo'lib, balandligi 2–3 metr atrofida. Tekshirishlardan so'ng qadimgi uylarning qoldiqlari borligi aniqlandi. Uylarning devorlari asosan taxta va xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, hozir bu devorlar 25–30 sm balandlikda saqlanib qolgan, xolos.

Qazish davomida Oqqa'rg'on yodgorligidan sopol idishlar, tangalar, haykalchalar, taqinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari topilgan. Mazkur topilmalar, odamlar nechanchi asrda qashaganini, ularning turmush darajasini, madaniyatini, dinini, shislarini aniqlash imkonini beradi. Topilmalar qishloq aholisining moddiy madaniyati, turmush darajasi ancha yuqori bosqichda ekanligidan dalolat bermoqda. Topilmalar o'zining etati, bejirim shakli, bag'oyat nafisligi, ko'rkmagli bilan ajralib beradi. Idishlar qizil va jigarrang bo'yoqlar bilan sirlangan bo'lib, lar ko'proq bosma idishlar, hayvon va odamlarning tasviri bilan bezatilgan.¹

O'zbekiston madaniy tarixini o'rganishda turk xoqonligi davri alohida ahamiyatga egadir. Turk xoqonligi VI asr o'rtalariga kelib tarkib topgan bo'lib. U qadimgi manbalar VII—VIII asrlarda o'plangan va asosan epigrafik yodgorliklar — Urxundaga runik yozuvlar (Kultegin yodgorligi), Xitoy manbasi „Tan xonadoni tarxi“ (VII—IX asr) kabilardan iborat edi.

Shu o'rinda o'quvchilarga turk so'zninng ma'nosini anglatilsa, bydadan xoli bo'lmas. Ma'lumki, xitoylar o'zlariga tobe bo'lgan Ashin qabilasini Tu-kyu deb ataganlar. Xitoya Ashina ham seyilgan. P.Pelvo bu so'zni „turk-yut“ (ya'ni turkiylar) deb rohlagan. Turk atamasi kuchli, mustahkam demak hamdir. Turk atamasi etnik mazmunni anglatmay bir necha qabila va xalqlar birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama ham sanalgan. S.P.Tolstov esa „turkiy“ so'zi „yosh, uylanmagan jangchi“ ma'nosini anglatishini ham aytib o'tgan. So'ng bu so'z „qabila a'yonlari“ va umvoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga yaxlangan. V asrda Ashin atrofiga to'plangan o'rda aholisi turk deb surtilgan va ularning bari turk tilida gaplashganlar. Yana bir qiziq nomoni shuki, ayni shu tilda gaplashgan boshqa qo'shni qabilalarga turk nomi qo'llanmagan. Faqat hududiy birlikgina shu nomga asos bo'lgan. O'sha davrlarda O'rta Osiyoga sayohatga kelgan arab tarixchilari asarlarida shunday farqlash bor. Ya'ni, ular turk nomi tilda qaysi tilda gapirishidan qat'iy nazar, O'rta Osiyoda yashovchi hamma qabilalarni nazarda tutganlar.

Qadimiy turkiy xalqlar yozuvining paydo bo'lishi xususida ham necha tortishuvlar mavjud. Ularni o'qish muammozi ham nisbatan

¹ Pidayev Sh. Sirli kushonlar davlati. T., 1990-yil, 31-bet.

yaqinda hal etilganligini e'tiborga olish muhim. Chunonchi, Moskvadagi Gollandiya elchixonasi a'zosi Nikolay Vidzen 1691-yilda Verxoturdan uncha uzoq bo'limgan joyda noma'lum alifboda yozilgan bitigtochlarni topgan. 1696-yilda tobollik boyar o'g'li Semyon Remezov Sibiryo yerlarining xaritasini chizayotib, bir punktga Urxun toshi, deb belgi qo'ydi. Shved ofitseri Filipp Iogann Stralenberg esa o'sha noma'lum bitiglarning jadvalini nashr qiladi va ularni run yozuvlari, deb ataydi. Uning run deb atalishiga sabab got (qadimgi olmon) yozuviga tashqi jihatdan o'xshashligidir. Manbashunos olim N.Raxmonovning ta'kidlashicha, Runa — sir ma'nosini bildiradi. Qadimgi olmonlarning bu yozuvi Reyn va Dunay daryolari bo'ylaridan ko'p topilgan edi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, Olmon run yozuvi eramizning II—III asrlarida kelib chiqqan. Qadimgi turkiy yozuvning kelib chiqishi va taraqqiyoti esa olis davrlarga borib taqaladi. Ushbu fikrni qozoq olimi A.S.Omonjonov ham qayd etadi. Uning ko'rsatishicha, turkiy alifbo eramizning II asrida emas, balki eramizgacha bo'lgan I ming yillikda shakllangan bo'lib, bunga, bir tomondan qadimgi grek alifbosi, ikkinchi tomondan, shimoliy semit, finikiya va janubiy semit alifbosi ta'sir ko'rsatgan.

XIX asrning birinchi yarmida Sibiriyoni, xususan, Enasoy, Abakan daryolari qirg'oqlarini, Oltinko'l yaqini, Bo'luq daryosi bo'ylarini o'rganish asnosida ko'plab toshga bitilgan yozuvlar topildi. N.Yadrinsev esa hozircha noma'lum bo'lgan bu yozuvlarning turkiylarga tegishli ekanligini Urxun va To'la daryolariga qilgan safarida isbotlab berdi. Avvalgi Enasoy daryosi qirg'oqlaridan topilgan Enas yozuvlari N. Yadrinsev topilmasidan so'ng Urxun-Enasoy yozuvlari deb nomlandi.

O'quvchilar urxun-enasoy yozuvi turkiy xalqlarning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi xati ekanligini yaxshi bilib olishlari lozim. Birinchi va ikkinchi turk xoqonliklari davrida (551–744-yy.) G'arbiy Sibiryo va Markaziy Osiyoda keng shuhrat qozongan 38 harfli ushbu alifbo turkiy xalqlar madaniy taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Urxun-Enasoy bitiglarining eng yiriklari qabr toshlari va qoyalarga yozilgan bo'lib, ular orasida metall buyumlar, sopol, tayoqchalar, hatto qog'ozga yozilganlari ham uchraydi.

O'qituvchilar bunday yodgorliklarning eng yirik namunalari Mo'g'ulistonning Urxun va Selenga daryolari atrofidan topilgani,

ur qadimgi turk amaldorlari sharafiga bitilganligini alohida qutishlari maqsadga muvofiqdir. Bular ichida ayniqsa, Kultegin, Bilga xoqon, Ungin, Kuli Chur, Moyun Chur, To'nyuquq bitiglarining ahamiyati kattadir. Ushbu asarlar o'sha davrning umoiy-siyosiy, iqtisodiy tarixini yoritish bilan birga, o'z navbatida tarixiy-biografik, adabiy asarlar hamdir. Turkiy yozma adabiyot ham ana shu matnlardan boshlanishini esdan chiqarmaslik muhimdir.

Ushbu bitiglarda ayniqsa Vatan tuyg'usi nihoyatda yuksak bo'lgan. Jumladan, Bilga xoqon turk xalqining vatani abadiy bo'lishi uchun kurashdi. Vatanni saqlab qolish faqat xoqonning "ziga emas, xalqqa ham bog'liqdir. Bilga xoqon xalq o'z hukmadorining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda uning boshiga ko'p kulfatlar kelishini ta'kidlab, kishi o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini mulohaza qilganidan keyin sh yuritishi kerak, deydi. U yaxshi, yomon odamni ajrata bilmay, tor'kis ishonuvchan bo'lsa, fojiaga yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi: „Ey turk xalqi, to'kis ishonuvchansan, amimiyy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapisra, amimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat etilgan xoqoningning so'zini olmayin, har qayerga ketding, u erlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding. O'sha yerda qolganing har joyda zo'rga o'lib-tirilib yurgan eding“,¹ heb uqtiradi.

Shu o'rinda yuqorida qayd etilgan bitiklarning tashqi o'rinishlari xususida ayrim ma'lumotlarni ham bilib olish quvchilar uchun juda muhim deb hisoblaymiz. Chunonchi, Ungin bitiktoshi marmarga o'yilgan bo'lib, qalinligi 41 sm, balandligi 3 m 15 sm tub qismining qalinligi 1 metr-u 24 sm. U ustidan yuqoriga torayib borgan. Marmor tosh o'rtasida besh tarchakli qalqon shakli bor. Unga balandligi 65 sm, kengligi 40 sm bo'lgan lavha o'rnatilgan.

Lavhada arxar surati naqshlangan bo'lib, u xoqonlik tamg'asini bildirgan. Orqa tomoniga bitigtoshning o'rnatilishi tarixi xitoy ozuvida bitilgan. Uning old tomoniga 40 satr, o'ng va chap tomoniga 3 satrdan yozuv bitilgan.

¹ Rahmonov N. Turk xoqonligi. T., 1993-yil, 72-bet.

Bilga xoqon bitiktoshining balandligi 3 m. 45 sm. uzunligi 174 ; sm, qalinligi 72 sm. Bu bitigtosh mazmuni va ifoda uslubiga ko'ra Kul tegin bitigtoshiga yaqin turadi. Ushbu bitigtosh Kul tigin bitigtoshidan 1 km janubi g'arbga o'rnatilgan bo'lib, ikkovi bir vaqtda topilgan.

Bilga xoqon bitiktoshi xoqonning taxtga o'tirishini hikoya qilish bilan boshlanadi. Uning taxtga o'tirishidan xalq ham, turk beklari ham xursand bo'ldilar. Bilga xoqon hokimiyatni egallagach, kichik davlatlarni birlashtirib kengaytirdi. Keyingi voqealarda Bilga xoqonning turkiy qabilalar dushmanlariga qarshi olib borgan kurashlari bayon qilinadi. Xuddi Kul tigin bitigtoshidagi kabi, qay vaqtda va qay holatda kimlarga hujum qilinganligi aniqlik bilan tasvirlanadi.

O'rta Osiyoda turk xoqonligi davridagi ijtimoiy-ma'naviy vaziyat o'lkada barcha sohalar bo'yicha taraqqiy etish uchun omillar yaratdi. Mazkur davrda savodxonlik kuchli ekanligi ma'lumdir. Chunonchi, 5 yoshga to'lgan bolalar yozish va hisob-kitobga o'rgatilib, 20 yoshga to'lganda savdo-sotiq bilan shug'ullanish uchun xorijga yuborilgan.

O'lka aholisi bu davrda otashparast bo'lib, ko'pgina marhumlar otashparastlar urf-odatiga ko'ra dafn etilgan. Ayni paytda, budda va xristian dini ham rivoj topgan. O'rta Osiyoda yashagan forsiy va turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarning arablar tomonidan istilo qilingunga qadar madaniy hayoti shu tarzda kechgan edi.



MARKAZIY OSIYONING ARABLAR TOMONIDAN ISTILO QILINISHII VA MADANIY HAYOT

O'zbekiston tarixining VII asr oxiri, VIII asrning dastlabki yillardagi o'lka ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy o'soti arab istilochilar hukmronligi bilan chambarchas bog'liq. Shar VII asr boshlaridan arablar ajdodlarimiz yerlariga ondasida hujumlar uyushtirib turishgan bo'lsalar, VIII asrdan e'tiborla, xususan, 706-yildan boshlab, bu yerlarni to'liq bosib olishga tashdilar. 706-yilda Paykend, 709-yilda Buxoro, 712-yili Xorazm, Samarqand, 715-yilda Farg'ona bosib olindi. VIII asrning 30-yilligiga kelib O'rta Osiyo hududining deyarli barcha qismi to'liq istilo etildi.

O'qituvchi mazkur masalani yorita borib, eng avvalo O'rta Osiyodagi madaniy hayotning arablar istilosigacha bo'lgan davrdagi ikti, uning ahvoli xususida ayrim umumlashtiruvchi fikrlar bayon shishi maqsadga muvofiq.

Biz oldinroqda O'rta Osiyo madaniyati arablar istilosigacha bo'lgan davrda anchagina taraqqiy etganligi to'g'risida to'xtalib etgan edik. Chunonchi, O'zbekiston qadimgi davrda jahon madaniyatining eng dastlabki beshiklaridan biri ekanligi, arxeologik odgorliklarning guvohlik berishicha, bu yerda me'morchilik, aykaltaroshlik, yozma madaniyat ancha rivoj topganligi shahar madaniyati ham rivojlanganligi haqida so'z yuritganmiz. Endi bu taqda batafsilroq to'xtaladigan bo'lsak, masalan, Toshkent vohadan topilgan qadimi buyumlar, ayniqsa, yaqin va uzoq davlatlerda zarb etilgan juda ko'p turli-tuman chaqa va tangalar shundan talolat beradi. Chochda bu davrda ayniqsa madaniyat gullabashnagan edi. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, turli qurashishlar bo'yicha san'at maktablari yuzaga kelgan, monumental tevoriy rassomchilik ham san'at va madaniyatning boshqa sohalari angari taraqqiy etgan edi. Unda hayotni haqqoniy aks ettirish, qelikni obrazli ifodalash va davrning tipik hodisalarini bo'rttirib sur'atsish an'anaga aylanib borgandi. Chochda bu davrda musiqa va qo's san'ati, ayniqsa, yuksalgan, raqlari o'ziga xos uslub va ritmga

ega edi. Tub yerlik xonanda, sozanda va raqqoslarning dovrug'i Chochdan tashqari yurtlarga ham tarqalgandi. Manbalarda qayd qilinishicha, o'sha vaqtarda Xitoyning Tan imperiyasi saroyida konsert bergan Choch raqs ansambl qatnashchilarining o'ynoqi raqlari va ajoyib musiqasini, hatto, Xitoy shoirlari zavq va shavq bilan madh qilganlar.

Mazkur davrda Choch o'lkasi Turk xoqonligiga tobe bo'lishiga qaramay, o'zining tili, yozuvi va madaniyatini saqlab qolgan edi. Bu yerda so'g'd tili rasmiy til sifatida yuritilib, davlat ishlariga oid hujjat, chaqa va tangalar zarb etishda, hukmdorlar nomidan bitilgan yozuvlar so'g'd yozuvlarida ifodalangan.¹ Xuddi shunday hol O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham hukm surardi.

Boshqacha aytganda, arablar bosib olgunga qadar O'rta Osiyo madaniyati nihoyatda gullab-yashnagan va o'z mavqeyi jihatdan dunyoning boshqa madaniyatları, aytaylik Ovro'pa madaniyatidan ancha ustun darajada taraqqiy qilgan edi. Chunonchi, tadqiqotchi Z.Axmetov o'sha davr madaniyati va yozma adabiyoti xususida aniq ma'lumotlarga tayanib shunday yozadi: „Shubhasiz O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida yashagan qabilalar va xalqlar VI – VII asrlarda yozuvga ega edi, xalq og'zaki ijodi rivojlangan, epik an'analar mavjud edi, shuningdek, badiiyat nuqtayi nazaridan yetarli shakllangan turkiy til va lahjalari, boy poetik uslub, nutqning ritmik va tovush ifodaliligi haqida ham gapirish o'rinni“²

Bularning bari istilochi arab bosqinchilarining havasini keltirgan. Shu o'rinda o'qituvchi hozirgi kunda arab madaniyati, arablar hukmronligini ilohiylashtirishdan iborat ayrim fikrlarga o'z munosabatini bildirishi ma'qulga o'xshaydi, zero istilochilar O'rta Osiyoga kelib, bu yerda gurkirab rivojlangan madaniyat, san'atga duch kelganliklarini Muhammad Narshahiy , Abu Rayhon Beruniy kabilar ma'lumotlaridan ham bilib olsa bo'ladi.

Bundan tashqari, arablar O'rta Osiyoga, uning xalqlariga farovonlik, ilm-ma'rifat berish uchun kelmaganliklari, ularning asl maqsadlari o'zgalar yeridan boylik orttirish,talon-taroj qilish uchun bosqinchilik qilganliklarini esdan chiqarmaslik muhimdir.

¹ Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1998-yil, 25-bet.

² O'lmas obidalar. T., 1989-yil, 141-bet.

Shu o'rinda o'qituvchi qadimiylar yodgorliklar va asarlarga
xalq qilsa yaxshi bo'lardi. Chunonchi, Abu Bakir Mu-
hammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning „Buxoro tarixi“ , Xerman
Xorberining „Buxoro yohud Mavarounnahr tarixi“ kabi asarlari
ularning O'rta Osiyodagi bosqinchiliklari, madaniy yod-
gorliklarni talon-taroj qilish yo'lidagi xatti-harakatlari haqida
sozonarli dalillar keltiradi. Bosqinchilar aholini zo'r lab mu-
simonchilikka kiritdilar. Masalan, Narshaxiyning yuqorida zikr
etilgan asarida yozilishicha, Qutayba arablar buxoroliklar bilan
tunga yashab ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib
tarsalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda
Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab.
Qayruq chiqarishni to'g'ri topdi va shu yo'l bilan u musul-
monchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni
majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi, otashparastlik
karalarini yo'qotdi. U ko'p jiddu jahd qilib, xar kimdan-ki
shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa, uni jazolar
etdi. U masjidi jome bino qildi va odamlarga juma nomozini o'qishga
qayruq berdi, toki xudoysi taolo bu yaxshi ish savobini Buxoro
aholisini uchun oxirat zaxirasi qilsin.¹

Mazkur asarda Narshaxiy O'rta Osiyo aholisini majbur qilib
islom diniga kiritishga harakat qilinganligini ham ta'kidlab o'tadi.
Chunonchi, buxoroliklar til uchida musulmonlikka iqror bo'lib,
dashirin ravishda butga cho'qinar edilar. Shahardan tashqarida
jetti yuzta ko'shk bo'lib, ularda boylar turar edilar va ular
toatsizroq bo'lganliklaridan ko'pincha masjidi jomega hozir
bo'lmas edilar, ikki tanga olish uchun kambag'allargina borishga
qiziqar edilar.

Dars o'tish jarayonida arablarning O'rta Osiyoda azaldan
takm surib kelayotgan an'anaviy xalq ijtimoiy-madaniy turmushi
dan chiqqanligi, qadimiylar esa unutila boshlaganligini
lohiida qayd etish muhimdir. Islom dinining kirib kelishi bilan
O'rta Osiyo xalqlarining eski dini va u bilan bog'liq bo'lgan
taracha yodgorliklari vayron etildi. Qimmatbaho metallardan
shlangan amaliy suratlar esa qirib tashlandi, loydan va boshqa
kom ashyodan yasalgan haykallar parchalandi. O'lkaning ilk o'rta
estlardagi san'ati to'g'risida gapirganda, ko'pgina yodgorliklar

¹ Narshaxiy. Buxoro tarixi. „Meros“ turkumi. T., 1991-yil, 123-bet.

tasodifan yoki xaroba holida bizgacha yetib kelganligining sabab mana shunda ekanligini aytish kifoya.

Rivoyat qilishlaricha, Qutayba Bayqandni fath qilganida bii butxonada og'irligi to'rt yuz diram keladigan bitta kumush bu topgan. U yana bir qancha kumush jomlar topib olgan va ularning hammasini jamlab tarozida tortganida bir yuz ellik ming misqo chiqqan. U kabutar tuxumidek keladigan ikkita marvarid ham topit olgan. Qutayba: „Bu qadar katta marvaridlarni qayerdan keltingirdingiz? — deb so'raganda: „Ikkita qush og'zida olib kelib mana shu butxonaga tashlagan“, — deb javob bergenlar.

Shundan so'ng Qutayba bu qimmatbaho narsalarni yig'ib haligi ikkita marvarid bilan birgalikda Xajjojga yuboradi va unga Boyqandning fatx etilganligi haqida xat yozib, u ikki dona marvarid hissasini ham qayd qilib o'tdi.

Xajjoj unga shunday javob yozadi: „Xatda aytganlaring menga ma'lum bo'ldi: u ikki dona katta marvarid donalaridan va ularni qushlar olib kelganligidan men juda ajablandim, ammo shunday qimmatli narsani qo'lga kirgizib, uni bizga yuborib ko'rsatgan sahovating undan ham ajoyibroq tuyuldi; xudo senga baraka bersin!“ Keyinchalik Boyqand ko'p yillar xarob bo'lib qoldi. Qutayba Boyqand ishini oxiriga yetkazib, Xunbunga qarab jo'nadi va ko'p janglar qilib Xunbunni, Torobni hamda ko'pgina mayda qishloqlarni bosib oldi, hamma joydag'i san'at obidalarini yo'q qildi, boyliklarni tashib ketdi. Narshaxiy asarida qayd etilgan ushbu rivoyat asl haqiqatdir, zero tarixiy voqealar shundan dalolat bermoqda.

Arablar islom dinini o'zga xalqlar hayoti, turmush tarziga kiritib, joriy qilishga katta e'tibor berdilar, musulmonchilikni qabul qilmagan kishilarga „g'ayridinlik“ solig'i — jurya soldilar. Istilochilar xalqlarning asrlar davomida yaratgan juda ko'p madaniyat boyliklarini yemirib tashlab mahalliy yozuvlarni yo'q qila boshladilar, davlat ishlarida arab tili va yozuvini qo'llay boshladilar. Buyuk alloma Beruniy yurtimizga bostirib kirgan arab istilochilarining boshlig'i Qutayba haqida: „Qutayba Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi“, — deb yozgan edi.¹

¹ Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1998-yil, 33-bet.

Istilochilarining bunday xatti-harakatini, jumladan, Toshkent shahrida olib borilgan arxeologik yodgorliklar ham tasdiqlab turibdi. Ma'lumki, qadimdan Toshkentda „Oqtepa“ nomi bilan yuritilgan va aholi orasida ancha ommalashgan istiqomat maskanlari ko'p bo'lgan. Masalan, hozir ham mashhur bo'lgan Ko'kcha, Sag'bon, Chilonzor, Chig'atoy, Yunusobod kabi Oqtepalar shular umlasidandir. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi A. Muhammadjonov shaharning past-baland imoratlari, xiyobonu roq'-rog'larining rango-rang manzarasida oqishroq, tusli gumbazga o'xshab ko'zga tashlanishi tufayli bo'lsa kerak, xalq ularni Oqtepa deb nomlagan, deydi.

Oqtepalar orasida arxeologik jihatdan birmuncha yaxshi saqlangan va hajmi jihatidan eng ulkani hozirgi „Yunusobod-Shimoliy massivi“da joylashgan Oqtepadir. Unda feodal qasri va qo'rg'onning, ularga tutashib ketgan hunarmandchilik mahallalarining vayronalari topilgan. Oqtepa piramidaga o'xshab tikkayib turgan baland tepe, unga yondoshgan pastroq tepe hamda ularga tutashib ketgan bir nechta yassi tepalardan iborat bo'lib, uning eng baland qismi 21 m.ga, maydoni atrofidagi yassi tepalarni ham ko'shib hisoblaganda qariyb 100 gektardir.

Qazilma jarayonida ko'plab keramika va sopol idish bo'akkalaridan tashqari, tosh, suyak, metallardan yasalgan buyumlar, qurol-yarog', zebi-ziynat, temirdan yasalgan pichoq, xanlar, bolta, o'roq, uch parrakli o'q yoyi, nayza paykonlari, ko'ziog' billuridan yasalgan kumush uzuklar topilgan. Topilmalar orasida nuroni y mo'ysafidning surati tushirilgan terrakota bo'lagi, syniqla diqqatga sazovordir. Unda o'sha zamonalarda Shoshda yasalgan qadimgi aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan. Bu yerda Eftalitlar davlatida amal qilgan tangalar ham topilgan. Tangalarga qaraganda, bu arxeologik yodgorliklar V asrda paydo bo'lib, VIII asr o'talarida, ya'ni arablar istilosini davrida vayronaga qilangan.¹

O'qituvchi arab istilochilarining O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiyatosiy, ma'naviy hayotida yuz bergan salbiy oqibatlar, ularning istijasida paydo bo'lgan tushkunlik, madaniy taraqqiyotni mazzulga olib kelinishi, ariq va to'g'onlarning buzilishi kalarни aytib o'tish bilan birga, mazkur hududda amalga oshi-

¹ Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1998-yil, 33-bet.

Istilochilarning bunday xatti-harakatini, jumladan, Toshkent shahrida olib borilgan arxeologik yodgorliklar ham tasdiqlab turibdi. Ma'lumki, qadimdan Toshkentda „Oqtepa“ nomi bilan yuritilgan va aholi orasida ancha ommalashgan istiqomat maskanlari ko'p bo'lgan. Masalan, hozir ham mashhur bo'lgan Ko'kcha, Sag'bon, Chilonzor, Chig'atoy, Yunusobod kabi Oqtepalar shular jumlasidandir. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi A. Muhammadjonov shaharning past-baland imoratlari, xiyobonu bog'-rog'larining rango-rang manzarasida oqishroq, tusli gumbazga o'xshab ko'zga tashlanishi tufayli bo'lsa kerak, xalq ularni Oqtepa deb nomlagan, deydi.

Oqtepalar orasida arxeologik jihatdan birmuncha yaxshi saqlangan va hajmi jihatidan eng ulkani hozirgi „Yunusobod-Shimoliy massivi“da joylashgan Oqtepadir. Unda feodal qasri va qo'rg'onning, ularga tutashib ketgan hunarmandchilik mahallalarining vayronalari topilgan. Oqtepa piramidaga o'xshab tikkayib turgan baland tepa, unga yondoshgan pastroq tepe hamda ularga tutashib ketgan bir nechta yassi tepalardan iborat bo'lib, uning eng baland qismi 21 m.ga, maydoni atrofidagi yassi tepalarni ham qo'shib hisoblaganda qariyb 100 hektardir.

Qazilma jarayonida ko'plab keramika va sopol idish bo'-laklaridan tashqari, tosh, suyak, metallardan yasalgan buyumlar, qurol-yarog', zebi-ziynat, temirdan yasalgan pichoq, xanjар, bolta, o'roq, uch parrakli o'q yoyi, nayza paykonlari, ko'zi tog' billuridan yasalgan kumush uzuklar topilgan. Topilmalar orasida nuroniy mo'ysafidning surati tushirilgan terrakota bo'lagi, ayniqsa diqqatga sazovordir. Unda o'sha zamonalarda Shoshda yasalgan qadimgi aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan. Bu yerda Eftalitlar davlatida amal qilgan tangalar ham topilgan. Tangalarga qaraganda, bu arxeologik yodgorliklar V asrda paydo bo'lib, VIII asr o'rtalarida, ya'ni arablar istilosini davrida vayronaga aylangan.¹

O'qituvchi arab istilochilarining O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida yuz bergan salbiy oqibatlar, ularning natijasida paydo bo'lgan tushkunlik, madaniy taraqqiyotni tanazzulga olib kelinishi, ariq va to'g'onlarning buzilishi kabilarni aytib o'tish bilan birga, mazkur hududda amalga oshi-

¹ Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1998-yil, 33-bet.

rilgan ayrim ijobiy holatlar haqida ham o'z fikrini aytishi, unga xolisona **baho berishi** lozim. Chunonchi, o'lkada uyushmagan, o'zaro iqtisodiy, siyosiy munosabatlari bo'limgan xalqlar tarqoqligiga barham berildi, ishlab chiqaruvchi kuchlarini taraqqiyotdan to'xtatib turgan o'zaro mahalliy nizolarga barham berildi, urfi odati, ma'naviy ehtiyojlari, turmush tarzi bir bo'lgan va bir-biriga yaqin xalqlar birlashtirildi, ular markazlashgan hokimiyatga bo'ysundirildi. Natijada O'rta Osiyoda iqtisodiy jonlanish, savdo, dehqonchilik, hunarmandchilik tez tiklana bordi. Biz bu narsaga tashkil topgan Somoniylar davlatining madaniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan o'sha zamonning eng qudratli davlatiga aylanganini bilib olishimiz mumkin.

O'rta Osiyo xalqlarining arablar istilosidan keyingi ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy-maishiy hayoti islom dinining asosiy manbayi bo'lgan Qur'on bilan bog'liq ekanligini yoddan chiqarmaslik muhimdir. Ushbu muqaddas kitob yirik diniy-falsafiy va huquqiy asar bo'lib, musulmon va jahon madaniyatining o'ziga xos o'ta nodir yodgorligidir.

Ma'lumki, „Qur'on“ (arabcha — o'qimoq, qiroat qilmoq, jamlash ma'nosini bildirib) — musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi hisoblanadi. Qur'on o'zidan oldin nozil bo'lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlarini o'zida jamlaganiga ishorat bordir.

Islom an'anasida Qur'on Allah tomonidan Muhammad payg'ambarga 23 yil davomida Farishta Jabroil orqali vahiy qilingan deb tasavvur etiladi. Qur'on 114 suradan iborat, har bir sura oyatlarga bo'lingan. Suralarning har biri maxsus nomlangan (masalan, 1-sura „Fotiha“ 2-sura „Baqara“ va hokazo). Suralar Qur'onda mazmuniga yoki oldinma-keyin yozilganligi tartibida emas, balki asosan hajmiga, ya'ni har bir suradagi oyatlarning miqdori bo'yicha (katta suralar kitob boshida, kichiklari oxirida) joylashtirilgan¹.

Mazkur asar faqat falsafiy, huquqiy yozma yodgorlikkina emas, balki unda axloq-odob, ota-onaga va qarindosh-urug'larga hurmat, halollik, poklik, to'g'rilik, yetim-yesirlarga, kambag'allarga muruvvat, omonatga xiyonat qilmaslik, do'stlik, birodarlik g'oyalari mujassamlangan. Qur'on poraxo'rlik, o'g'rilik, ichkililikbozlik, zino

¹ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. — T., 2006-yil, 481-bet.

ishalik), yolg'onchilik, g'iybat, nohaq qon to'kish kabi juda p' illatlarni nihoyatda qattiq qoralaydi. Qur'on — olijanoblik, qalik tomon otlantiradi, Allohga eltadigan muqaddas yo'l, sh-e'tiqodni yuzaga chiqaradigan vositadir, vijdonomizning -zona ozuqasi, uni ezungulik yo'lida mo'tadillashtiradigan ilohiy novatdir.

Qur'on ma'rifatli bo'lish, bilim olishni zaruriy ehtiyoj sifatida qori darajaga ko'taradi. Shuning bois o'zbek xalqining 1300 yillik t'mishi islom dini bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur muqaddas kitobni huqur o'rganmay turib huquqiy va oilaviy hayotimizni, tarix va mardaniyatimiz tarixini mukammal bilib bo'lmaydi.

Islom dinining qur'ondan keyingi asosiy manbalardan biri mayg'ambaramiz Muhammad alayxissalomning sunnatlaridir. Qadimiy arablarda sunna — asosan Muhammad (a.s.) ibratlari, unni ularning so'zlari, o'gitlari, odatlari sifatida talqin etiladi. Ma shunday rivoyatlar, hadislар saralanib, maxsus to'plamlarga emlangan. Qur'ondan keyingi manba sifatida hadislар to'plami sayd etilgan bo'lib, ularda islom dini ahkomlari, ya'ni farz qib, sunnat, mustahab, halol, harom, makrux, muboh, kabiardan tashqari, axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham bayon ilinadi.

Dars jarayonida eng ishonchli deb e'tirof etilgan hadislар to'plami „Al-qutub as-sitti“ (olti kitob) deb ataladigan olti kitobga to'linishi xususida to'xtalib o'tishni lozim topdik. Biz yuqorida qayd etgan olti kitob quyidagilardan iborat:

1. Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy (810–870-yillar) tomonidan yozilgan „As-Sahih“; 2. Muslim an-Nishopuriy (817–875-yillar) tomonidan yozilgan „As-Saqih“; 3. Ibn Moja (887-yili vafot etgan) tomonidan yozilgan „Sunan“; 4. Abu Dovud as-Sijistoniy (888-yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan „Sunan“; 5. Muhammad at-Termizi (892-yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan „Aj-jami al-Kabir“; 6. An-Nisoiy (915-yilda vafot etgan) tomonidan yozilgan „Sunan“. Ular ichida hadislerning dastlabki ikkisi ancha qadrlidir. Chunonchi, Muhammad al-Buxoriy 660 ming hadisdan faqat 7250 tasinigina to'plamga eritgan bo'lsa, Muslim an-Nishopuriy 330 ming hadisdan 42 mingini ishonchli (sahih) hadis deb bilgan. Ushbu hadislар o'z namiyatiga ko'ra qur'onidan keyingi ikkinchi ishonchli manbadir, sharda ko'pincha muqaddas kitobning turli oyatlari tushuntirilib, shahanadi.

O'qituvchi bu davrda dunyoviy bilimlarning rivoji masalasiga ham e'tibor qaratishi lozim. Ayrim tadqiqotchilar dunyoviy bilimlarning rivojlanishini ijtimoiy omil — arablar zulmiga mahkum bo'lgan xalqlarning to'xtovsiz kurashiga bog'laydi. Mazkur kurash dunyoviy bilimlarning taraqqiyoti uchun imkon bergen O'rta Osiyo, Hind, Eron va yunon ilmiy fikrlarining yutuqlarini keng yoyishga olib keldi. Ayniqsa yunon mualliflarining ishlariga e'tibor katta bo'ldi. Katta hajmdagi tarjimonlik ishi tufayli ko'pgina qadimgi yunon mualliflarining ishlari: Aflatun („Qonun“ va „Timay“), Arastu („Siyosat“, „Kategoriyalar“, „Analitika“, „Jon haqida“, „Etika“), Teofrast Prokl, Aleksandr Afrondiziy, Porfiriy asarlari, Buqrot („Og'ir kasalliklar“, „Inson tabiat“), Jolinus („Hunat“, „Qon tomiri va kasalliklarni davolash“, „Anatomiyalashtirish“), Batlomus („Buyuk qurilish“), Arximed („Shar va silindr to'g'risida“, „Tutashuvchi doiralar“), Aristark Samosskiy va boshqalarning asarlari mashhur bo'lib qoldi. Ma'mun halifalik qilgan davrda katta kutubxonaga ega bo'lgan o'ziga xos fanlar akademiyasi „Donolik uyi“ ning faoliyati gullab-yashnadi.¹

O'qituvchi O'rta Osiyoda IX-X asrlardagi dunyoviy bilimlar xususida fikr yuritganda mashhur astronom va matematik Ahmad Farg'oniy (801-yilda vafot etgan), Muhammad Xorazmiy va ayniqsa O'rta Osiyoning buyuk uch allomasi — Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari masalasiga alohida e'tibor qaratsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Uyg'onish davri deb nom olgan mazkur bosqichning ilk davri aynan shu alloma-larning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Manbalarda „Al-faylasuf at-turkiy“ deb yuritilgan Forobiy Movarounnahrda Farob viloyatining Vasij qishlog'ida 870-yilda tug'ilgan. U avval Marvda, Bag'dodda tahsil ko'rgan. Abu Bashir Matto ibn Yunusdan mantiq darsidan saboq olgan. O'z ilmiy ijodi davrida buyuk olim 160 dan ortiqroq asarlar yaratdi, „Aflatun qonuniyatlarining mohiyati“, „Nufusli shahar aholisining maslagi“, „Baxt-saodatga erishuv haqida“ kabi tadqiqotlar muallifi bo'ldi.

¹ Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. T., 1993-yil, 14–15-betlar.

U o'zining ko'p qirrali ijodi bilan kelajak avlodining bilim va janiyatga erishishida inson kamolotiga e'tibor berdi. Forobiy un inson shunchaki bir biologik mavjudot emas, u o'z mohiga ko'ra, aql-idroki tufayli buyuk, mahluqotlar ichida azizu karramidir. Insonning hayoti stixiyali emas, balki ongli va aniq qasadi ko'zlagan bo'ladi. Forobiyning ijtimoiy-falsafiy ushlarida insonning barcha axloqiy imkoniyatlarini baxtga shishdan iborat birdan-bir maqsad mevasi deb biladi. Uning barcha, bir kishining baxti boshqalarning shaxsiy rohat-farog'atga shishining zarur shartidir. Ijtimoiy va shaxsiy jihatlarning birligi qaligina yalpi baxtga erishiladi.

Xorazmda tug'ilib o'sgan Abu Rayhon Beruniy (973–1048) tarix, mineralogiya, astronomiyaga oid bir qator asarlarni ab tilida yozdi, zero bu til arab halifaligi davrida fan tiliga aylangan. Uning „O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar“ asarida zma, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish asosida eroniylar, g'dlar, xorazmiylar va arablarning islom dinigacha bo'lgan tiqodlari to'g'risida, matematika va geografiya tushunchalari ususida favqulodda qimmatli tarixiy ma'lumotlar beriladi. Alloma ashagan davri tabiatshunosligi, falsafasi, tarixi va adabiyotining solzarb muammolariga bag'ishlangan 150 dan ortiq asarlari mavjud.

Tarixiy voqeа va hodisalarni tahlil etib, o'rganishda Beruniy ziga xos uslub yaratdi. Buni uning quyidagi fikrlaridan ham bilib Isa bo'ladi: „Asarni yozishga (kirisha) boshlab, aytamanki, mendan so'rallgan narsaga yetkazuvchi vositalarning eng muhimim – qadimgi millatlar haqidagi rivoyatlar, o'tmish avlodlar to'g'risidagi xabarlarni bilishdir, chunki bularning ko'pchiligi u millatlar avlodidan va ularning rasm-rusumi va qoidalaridan iboratdir. Aqliy (narsalardan) dalil keltirish, kuzatilgan (narsalarga) qiyos qilish yo'li bilan u xabarlarni bilib bo'lmaydi. Buni faqat „kitob ahillari“ va turli din arboblariga, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga erishish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan bilinadi. So'ngra buni ko'pchilik kishilarning tabiatini pastkashlashtiradigan yomon axloqdan, haqiqatni ko'rishga imkon bermaydagan omillardan o'zini tozalagandan keyin, ularning isbot uchun keltirilgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi. Ana shu aytib o'tganim haqiqiy maqsadga yetkazuvchi eng yaxshi

yo'l va bunga dog' tushiruvchi shak-shubhani yuvib tashlash uchun eng kuchli yordamchidir. Garchi qattiq urinib zo'r mashaqqat cheksak ham o'shandan boshqa yo'l bilan erisha olmaymiz".¹

Buyuk alloma Beruniyning ushbu uslubi, sobiq tuzum yillarida tarix ilmini o'rganishning cheklangan va xato usullari bilan almashtirildiki, bu narsa ijtimoiy hayot, jumladan madaniy jarayonlarning qonuniyatlarini ochib berishga xalaqit qildi. Endi esa Beruniy uslubini qo'llash xalqimiz madaniyatining barcha jabhalarini xolisona suratda tahlil etishda qo'l kelishiga shubha yo'qdir.

Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgandir. U inson faqat o'zi uchun yashamasligi, u umumbashariy bir borliq ekanligi, madaniy aloqalar zarur va insonlar bir-biriga yordam berishlari kerakligiga ishora qiladi. Inson o'zining falsafasida asosan pok, axloqan go'zal bo'lishi lozim.

O'rta Osiyoda uyg'onish davri madaniyatining eng yirik arboblaridan yana biri jahon madaniyati tarixidagi buyuk faylasuf, tibbiyotchi, falakiyotchi, tabiatshunos, musiqashunos, yozuvchi va shoir, buxorolik olim Abu Ali ibn Sinodir (980-1037-yillar). Forobiy „Muallimi as—soniy“ („Ikkinchi muallim“ — „Ikkinchi Arastu“) bo'lsa. Ibn Sino „Shayxur rais“ — olimlar boshlig'i, „Tabiblar podshosi“ deb nom qozondi.

Abu Ali ibn Sino o'zining tabobat sohasidagi asarlari, jumladan, „Kitob al qonun fit tib“ kitobi nafaqat bizning o'lkada, balki Ovro'pa mamlakatlarida ham mashhur bo'lib, Lion, Rim, Neapol, Venetsiya, Luven va boshqa shaharlarda lotin tilida 30 martadan ortiq qayta nashr etildi. Olimning „Kitob ash shifo“, „Najot“, „Kitob al ishorat“ kabi asarlarida uning falsafiy qarashlari bayon etilgan.

Ibn Sino hayoti davomida 200 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan, ulardan 58 tasi falsafa, 20 tasi tibbiyot, 11 tasi astronomiya, kimyo, fizika, 4 tasi she'riyat, 2 tasi pedagogika va boshqalarga bag'ishlangan bo'lib, ular asosida inson, uning kamoloti va tarbiyasi masalalari alohida o'rin egallaydi.² O'z tarbiya tizimini yaratgan alloma ushbu jarayonni aqliy, jismoniy, axloqiy, nafosat va mehnat tarbiyalarining

¹ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom, T., 1963-yil, 40–41-betlar.

² Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., 1993-yil, 37-bet.

bir butunligi tashkil etadi deydi. Uning fikricha, bolani birdan kitobga band qilib qo'ymaslik, o'qish asta-sekin, yengildan og'irga qarab olib borilishi kerak, o'quvchilar bilan olib boriladigan mashqlar ularning yoshiga mos bo'lishi, o'quvchilarning mayl hamda qobiliyatlarini hisobga olishi zarur.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini o'rganishda 1021–1022-yillarda Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'ida yashagan va 44 bobdan iborat „Qobusnom“ni yaratgan Kaykovus ijodiy faoliyatini tahlil etish ham juda muhimdir. Muallif o'zining hayotiy tajribalari bilan o'g'li Gilonshohni tarbiyalashni istaydi va pand-nasihatlarni o'g'li uchun eng qimmatbaho meros deb ta'kidlaydi. Chunonchi, u ota va ona haqini bilmak zikrida shunday deydi: „Ey farzand, bilgilki, aqyl yuzasidan farzandiga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdir, nedinkim uning asli — ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga keltirmagil, bilgilki, ular sening uchun o'llimga ham tayyor turadilar. Har farzand oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmakdan xoli bo'lmag'usidir.

...Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning seni haqingdagi duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur. Zinhor meros olmoq xirsi bilan ota-onang o'llimi tilamag'ilki, chunki ota-onsa o'lmay yursalar ham rizqing yetishaveradi...“¹!

Shu o'rinda IX–X asrlardan boshlab o'lka yana mustaqillikka erishganligi natijasida bu yerdagi ijtimoiy siyosiy, madaniy hayot yangi sifatlar bilan islom mafkurasi asosida rivoj topa boshlaganligini ta'kidlash joizdir. Ayniqsa, tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikda nodir asarlar yuzaga kela boshladi. Biz yuqorida keltirgan misollar o'lkamizning mazkur davrga kelib jahon madaniyati va fanining yirik markazlaridan biriga aylanganligidan dalolat berardi. Buxoro esa Somoniylar davrida ulug'vorlik markazi, podsholikning zamini, zamonning dongdor vakillari ijod qilgan, adabiyotning ajoyib yulduzlari tug'ilgan va zamonning ko'plab allomalari yashab, ijod qilgan Ona tuproq bo'lib qoldi.

Chunonchi, ushbu davrning eng nodir yodgorligi somoniylar maqbarasidir. Maqbara haqli ravishda jahon me'morlik san'atining yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligi va

¹ Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., 1993-yil, 38-bet.

tuzilishining aniqligi, nisbatlarining nihoyatda mutanosibligi va me'morlik shakl-bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis ug'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi to'rtburchak bo'lib, uning hajmi katta emas ($7,20 \times 7,20$ m), to'r tomonida nayzasimon arkli eshik mavjud. U tashqi tomonidar tepaga biroz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgar yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning devor yuzas pishiq g'ishtning turlicha holatda taxlanishi hisobiga badiyilashtirilgan. G'ishtning goh yoni bilan, goh burchak qilit qo'yilishi uyning serhasham bo'lishini ta'minlagan. Quyosh nurining o'zgarishi bilan uy turlanib ko'rinadi va binoga har safar qaytarilmas joziba beradi. Bir oz mungli ko'ringan binc abadiy uqqudagilar uchun nihoyatda sokin va mungli sukul saqlanayotgandek tuyuladi.¹

Bunday holni Turkmanistondagi Doya xotin, Sulton sanjar. Buxorodagi Rabati malik, Kalon machit, Magoki Attori machit, Termizdagi saroy qoldiqlari, Jarqo'rg'on minorasi, Xorazmdagi Faxriddin Roziy, Tekesh maqbaralarida ham uchratish mumkin.

O'qituvchi, shuningdek, jamiyat ijtimoiy hayot hodisa va voqealarini xolisona ravishda talqin etishda adabiyotning roli va o'rni katta ekanligiga ham e'tibor qaratishi lozim, zero adabiyot madaniyatning mohiyatini tashkil etadi va uning ko'zgusidir. Voqealar adabiy jarayonning uzoq davom etganligi, xalq tilining uzil-kesil shakllanishi va ona tilidagi adabiyotning yuzaga kelishi taraqqiyotning uzoq davri mahsuli ekanligini anglatib turibdi. Arta shu asnoda, X-XII asrlarda turkiy tilda yuzaga kelgan adabiy asarlar shu oilaga mansub bo'lgan barcha xalqlarning mushtaral merosi sifatida qabul qilinadi. Chunonchi, XI asrning mashhu tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ asaridan o'r in olgan adabiy lavhalar, xalq og'zaki ijod namunalari bo'l mish she'riy parchalar, turkiy xalqlarning otabobolari yaratib qoldirgan meros sifatida qabul qilinganidek. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“, Ahmad Yugnakiyning „Xibatul-haqoyiq“ kabi asarlari ham turkiy xalqlarning umumiyo boyligidir.

¹ Abdullayev N. San'at tarixi. T., 1982-yil, 178-bet.

tuzilishining aniqligi, nisbatlarining nihoyatda mutanosibligi va me'morlik shakl-bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis ug'unlashib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi to'rtburchak bo'lib, uning hajmi katta emas ($7,20 \times 7,20$ m), to'rt tomonida nayzasimon arkli eshik mavjud. U tashqi tomonidan tepaga biroz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi qozonni eslatadi. Binoning devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha holatda taxlanishi hisobiga badiiylashtirilgan. G'ishtning goh yoni bilan, goh burchak qilib qo'yilishi uyning serhasham bo'lishini ta'minlagan. Quyosh nurining o'zgarishi bilan uy turlanib ko'rindi va binoga har safar qaytarilmas joziba beradi. Bir oz mungli ko'ringan bino abadiy uyqudagilar uchun nihoyatda sokin va mungli sukul saqlanayotgandek tuyuladi.¹

Bunday holni Turkmanistondagi Doya xotin, Sulton sanjar, Buxorodagi Rabati malik, Kalon machit, Magoki Attori machit, Termizdagi saroy qoldiqlari, Jarqo'rg'on minorasi, Xorazmdagi Faxriddin Roziy, Tekesh maqbaralarida ham uchratish mumkin.

O'qituvchi, shuningdek, jamiyat ijtimoiy hayot hodisa va voqealarini xolisona ravishda talqin etishda adabiyotning roli va o'rni katta ekanligiga ham e'tibor qaratishi lozim, zero adabiyot madaniyatning mohiyatini tashkil etadi va uning ko'zgusidir. Voqealar adabiy jarayonning uzoq davom etganligi, xalq tilining uzil-kesil shakllanishi va ona tilidagi adabiyotning yuzaga kelishi taraqqiyotning uzoq davri mahsuli ekanligini anglatib turibdi. Ancha shu asnoda, X–XII asrlarda turkiy tilda yuzaga kelgan adabiy asarlar shu oilaga mansub bo'lgan barcha xalqlarning mushtarak merosi sifatida qabul qilinadi. Chunonchi, XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ asaridan o'rinni olgan adabiy lavhalar, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish she'riy parchalar, turkiy xalqlarning otababolari yaratib qoldirgan meros sifatida qabul qilinganidek, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“, Ahmad Yugnakiyning „Xibatul-haqoyiq“ kabi asarlari ham turkiy xalqlarning umumiy boyligidir.

¹ Abdullayev N. San'at tarixi. T., 1982-yil, 178-bet.

Turkiy tildagi adabiyotning rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ asari katta o'rin tutadi. 1069–1070-yillarda yozilgan mazkur asar falsafiy-didaktik asar bo'lib, u 73 bobdan iborat. Asar bir paytning o'zida bir necha vazifalarni bajarishga qaratilgandir. Unda bir tomonidan mamlakatni siyosiy jihatdan ji pslashtirish, qoraxoniylar davlatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash vazifasi olg'a surilgan bo'lsa, boshqa tomonidan mamlakat aholisini o'zaro ittifoqqa undash, eng yaxshi insoniy xislatlarni targ'ib qilish, shoir sifatida qalbini hayajonga solayotgan masalalarni o'rtaqa qo'yish ham turadi.

Asardagi tarixiy-etnografik ma'lumotlar XI asrdagi jamiyat va uning a'zolariga xos bo'lgan yashash tarzi, urf-odatlari, dunyo-qarashlari, tafakkur, o'ylar haqida boy materiallar beradi. Turkiy yozma adabiyotdagi masnaviy janri, xususan, turkiy yozma dostonchiligi „Qutadg'u bilig“ misolida XI asrdayoq mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqib, turkiy dostonchilikning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib bera oldi. Mumtoz adabiyotimizdagি ruboи shakli takomilida ham „Qutadg'u bilig“ning xalq an'analariga tayangan to'rtliklarining o'rni beqiyos. Turk, qasida janrlari haqida ham ana shunday fikrni bildirish mumkin.

Muallif shoirlar haqida yozarkan, ularni „so'z teruvchilar“ deb ta'riflaydi. „Tillari qilichdan o'tkirroq“, „Xotir yo'llari qildan ham ingichkaror“ ekanligini alohida uqtiradi. Qalam ahlini dengiz qa'riga tushib gavhar, inju olib chiqqan g'avvoslarga qiyoslaydi. Agar shu mezondan kelib chiqib baholanadigan bo'lsa, „Qutadg'u bilig“ ana shunday injularning o'ziga xos xazinasidir.¹

O'zbekiston madaniyatining XII asrdagi umumiyl holatini Turkistonlik Ahmad Yassaviy va uning hikmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. Yaqin-yaqingacha ham uning ijodiga bir tomonlama, sobiq mafkura nuqtayi nazaridan baho berish ustuvor edi. Biroq, milliy qadriyatlarimizning tiklana borishi jarayoni esa Yassaviy va uning ijodiga bo'lgan bizning munosabatimizni o'zgartirdi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov fikricha Yassaviyning diniy axloqiy falsafasida dunyodan yuz o'girilmaydi. Yomonlik, nodonlik, jaholat, molparastlik illatlariga rag'bat bergen

¹ To 'xliyev B. Yusuf xos Hojib „Qutadg'u bilig“. T., 1991-yil, 5-bet.

tuban dunyoni qalbdan quvishga da`vat etiladi. Shu ma`noda shoir so`zleri inson qalbida g`alayon qo`zg`aydi. „Nohaq da`vo qilg`on“ qozi, imomlar, „Harom yegan hokimlar“, „dunyo mening“ deb „jahon molin“ yiqqan amaldorlar „oqni qaro qilg`on“ mulla-yu mudarrislar, el ustiga minib olib „totlig-totlig“ deb, „turluk-turluk kiyangan“ larga qarshi ko`ngilda nafrat uyg`onadi.

Yassaviy o`zi bilan o`zi beomon kurashadigan ijodkor sifatida juda e`tiborli. U odamga o`z-o`zini kechirmaslik sirlarini o`rgatadi. Shoir o`z qalbining eng chuqur joylariga nazar tashlashni targ`ib etadi. Shuning uchun ham uning axloqiy ta`limotida shaxsning ma`naviy-ilohiy kamolatiga to`siq bo`ladigan insondagi salbiy xususiyatlar tahlili tabiiy ravishda izchil rivoj topgan. Shoirdagi samimiyat — oshkoraliykda. Ba`zan undagi oshkoraliq talablariga chidash mushkul. Buni badbinlik deb anglash esa noto`g`ridir. Yassaviy hikmatlarida badbinlikmas, g`amginlik, ma`rifatli ruhni suyaydigan dard va faryod borki, ular insonning hissiyot fojalarini erta anglashga xizmat qiladi.¹

Hikmatlar yozilganiga ham sal kam ming yil bo`ldi. Biroq ularning badiiy-ma`naviy ahamiyati yo`qolgani yo`q, aksincha u sayqallanib tobora jilolanib bormoqda. Ular o`zbek tili tarixida qadimgi yozma obidalardan biri sifatida yanada qadrlanib bormoqda.

O`qituvchi IX asrning oxirlaridan boshlab Yaqin va O`rtta Sharqda, chunonchi O`rtta Osiyoda madaniy hayot nihoyatda rivoj topganligiga diqqatni qaratishi lozim. Hozirgi kunda ham ko`pchilik ilm ahillarini lol qoldirib kelayotgan asarlar, nodir qo`lyozmalarining mavjudligi bunga dalildir. O`sha paytlarda O`rtta Osiyo olimlari haqida bataysil axborot beradigan manbalar chop etilganligini ham ta`kidlash joiz. Bular orasida, ayniqsa Ali Hasan Zayda al-Bayhaqi (1106–1169), Jaloliddin ibn al-Kifti (1172–1248), Ibn Abi Usayba (1203–1270), Ibn Xallikon (1211–1282) va boshqalar yozib qoldirgan manbalar ilmiy jihatdan qadrlidir.

Shu o`rinda Ibn al-Kiftining „Faylasuflar haqida tarix“ („Tarix al-xukama“) asari xususida ayrim ma`lumotlarni ta`kidlab o`tish joiz, zero ushbu tadqiqotda qator mamlakatlardagi antik davrdan to XIII asrgacha ijod qilgan 414 faylasuf, tabib, matematik, astronom, shoirlar biografiyasi alohida tahlil etilgandir. Chunonchi, „Tarix al-Kifti“da O`rtta Osiyoda ijod qilgan Muhammad ibn Muso

¹ Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., 1990-yil, 9-bet.

al-Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulla al-Bag'dodi, Jafar ibn Muhammad Abu Mash'ar al-Balxiy, Ahmad ibn Muhammad ibn Mervan ibn at-Tayib as-Saraxsi, Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Muhammad ibn Muhammad ibn Yaxiy ibn Ismoil al-Buzjoniy kabi ko'plab allomalar ilmiy ijodi batafsil o'rganilgan, ularning O'zbekiston madaniyati tarixida o'ziga xos tutgan o'rni belgilab berilgan.

Tarixchilararning guvohlik berishicha, al-Kifti qo'lyozmalari 20 jiddan ortiq bo'lib, ularning aksariyat qismi yo'q bo'lib ketgan va ayrimlarigina Berlin, Vena, Leyden qo'lyozma institutlarida saqlanib qolgan, xolos.¹

O'zbekiston madaniyati tarixini o'rganishda XI–XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining madaniy turmushida ro'y bergan yangi ijtimoiy hodisalardan biri — davlat arxivlari va kutubxonalarning barpo etilishi masalasini bilish ham muhim. O'lkamizda bu davrgacha qator kutubxonalar bo'lganligi ma'lum. Biroq, ularning ko'pchiligi turli nizolar, o'zaro urushlar, ayniqsa arablar istilosidagi vayron etilib, yo'q qilingandi. XI–XII asrlarga oid kutubxonalar haqida esa ma'lumotlar mufassal saqlanib qolgan.

G'aznaviyilar davrida Xorazm, Rey, Hamadon, Isfaxon singari yirik shaharlarning kutubxonalari Xurosondagi barcha iste'dodli va o'qimishli kishilarni o'ziga tortuvchi markazlar bo'lib qolgan edi.²

O'rta Osiyo yirik madaniyat markazi bo'lganligiga mo'g'ullar istilosidagi Marvda o'nta juda yirik kutubxona bo'lganligiga doir ma'lumotlar bor. Ulardan biri — shaharning Aziziya madrasasi huzuridagi kutubxonada 12 ming jildga yaqin kitob bo'lgan, bundan tashqari, Sharaf-ul mulk, Amadiya, Xitiniya madrasalari huzurida ham kutubxonalar bo'lgan. Xonaqolardan birida Dumariya nomi bilan mashhur bo'lgan kutubxona bo'lgan. Bu kutubxonalarda Beruniyning 30 dan ortiq ilmiy risolasi saqlangan, deyiladi.³

¹ „Тарих ал-хукама“ ибн ал-Кифти – ценный источник по истории культуры Ближнего и среднего Востока XII–XIII веков // О'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1985-yil, 10-soni, 38-bet.

² Семенов А.А. Очерки исторической науки в СССР. Вып.1. Т., 1955-yil, 155-bet.

³ Qosimova O. O'zbekiston kutubxonachilik tarixi. T., 1992-yil, 7-bet.

Shahobiddin Xavoqiyning Urganchdagi kutubxonasi ham mashhur bo'lgan. Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyoning juda ko'p yirik shaharlaridagi masjid va madrasalar huzurida ham kutubxonalar bo'lgan. Chunonchi, XIII asrda Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Balx va boshqa ko'p shaharlar chinakam madaniyat markazlari, olimlar to'planadigan joy bo'lib, ularda juda boy kutubxonalar mayjud edi.

O'zbekiston madaniyati tarixini o'qtish jarayonida o'qituvchi mazkur madaniyat bir necha marta vayron etilib, so'ngra yana tiklanganligi, bunga bir tomondan o'zaro urushlar sababchi bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan o'zga xalqlar bosqinchiliklari sabab bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Shu o'rinda, mo'g'ullar istilosining O'rta Osiyo madaniy-ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan keltirgan zararini hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Istilo tufayli shu paytgacha gullab-yashnab turgan o'lka san'ati va madaniyati vayron qilindi, bebaho yodgorliklar, yozma manbalar yo'q qilindi, ijodkorlar badarg'a qilindi.

Mo'g'ullar istilosini tufayli ayniqsa fan va adabiyotga katta zarar yetkazildi. XIII asr va XIV asrning boshlarida adabiyot ko'proq mo'g'ullar tomonidan zabit etilmagan joylarda, chunonchi Kichik Osiyo, Eronning janubi va Hindistonda ravnaq topdi, xolos. XIV asr oxiriga kelgandagina Movarounnahr va Xuroson yana adabiy-madaniy markazlarga aylana boshladi.

Shu o'rinda Chingizxonning Buxoroni bosib olishi, bu yerdagi xunrezliklari xususida ikki og'iz gapirish joizdir, zero shuning o'zi ham bosqinchilarning o'lkamizda olib borgan talon-tarojlari xususida umumiylasavvur berishga imkon yaratadi. Chunonchi, Chingizxon 1220-yili o'z qarorgohini Buxoro devorlari yoniga tikadi. Buxoro ahlidan tarkib topgan, oz sonli qo'shinlar tor-mor etiladi. Shahar aholisi dahshatga tushib, shafqat so'rab o'z vakillarini Chingizxonning oldiga yubordilar. Chingizxon, uning o'g'li Tuli ham xalq vakillari bilan shaharga kiradi. Bosqinchining ko'zi eng avval ulug' Sosoniylar tarafidan muhtasham bezaklar bilan qurdirilgan jome masjidiga tushdi.

Otdan tushgan Chingizxon minbarning bir necha zinasidan ko'tariladi va ortda turgan o'z lashkarlariga qarata „o'tloq o'rildi, otlaringizga yem beringiz“, deydi. Bu talon-tarojni boshlashga bo'lgan ishora edi.¹

¹ Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., 1990-yil, 22–23-betlar.

Istilochilar barcha uylarni vayron qildilar, hamma sandiqlarni buzdilar. Behisob xazinalar talandi. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida foydalanildi. Ilm ahillari, shayxlar qullar kabi, jangchilarga xizmatkor qilinib, goho mo'g'ul baxshilariga masxara uchun berildi. Ko'pgina e'tiborli qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilindi.

O'zbekiston tarixining XIII — XIV asrlardagi madaniy hayotini har tomonlama to'liq tasavvur etishga imkon beruvchi bir qator asarlar mavjud bo'lib, bular: Rashididdinning ta-shabbusi va bevosita ishtiroti bilan yaratilgan „Jome ut-tavorix“, Juvaydiyning „Tarixi jahongo'sha“, Hamdulloh Mustavfiy Qazvinniyning „Nuzhat ul-qulub“ kabi asarlarini yodga olishimiz o'sha davr ma'naviy holatini tushunishimizda muhim ahamiyatga ega.

Mo'g'ullar istilosи tufayli vayron bo'lgan madaniy hayot XIII asrning oxirlaridan yana tiklana bordi. XIV asrning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoning Samarqand, Buxoro kabi shaharlari va shaharga yaqin qishloqlarida hunarmandchilik birmuncha rivoj topdi. Savdo karvon yo'lida joylashgan Urganch bu davrda o'zining ko'pgina qadimgi an'analarini tiklab oldi.

Markaziy shaharlarda madaniy hayotning birmuncha jonlana boshlaganligini dastlab me'morchilik sohasidagi izlanishlar va ularning samaralarida ko'rish mumkin. Tarixda Oltin O'rda nomi bilan mashhur bo'lgan va Xorazmni o'zida birlashtirgan mo'g'ullar davlatiga qarashli shaharlarda olib borilgan qurilishlarda ham O'rta Osiyo me'morchilik san'atining izlari sezilardi. Oltin O'rdada Xorazm adabiyoti ta'siriga moyillik kuchli bo'lgan. XIV asrda mamluklar sultanati hukm surgan Misr va Suriyaning Xalaf, Shom va Qohira kabi markazlarida ham turkiy xalqlar madaniyatining izlari sezilarli bo'lganidek, bu yerlarda eski o'zbek tilida bir qator badiiy asarlar yaratildi.

Biz o'rganayotgan ushbu davrda o'zbek adabiyoti, ayniqsa, uning yangi badiiy shakllari — g'azal, qasida, ruboiy, soqiyonna, masnaviy ancha keng rivojlandi. Chunonchi, o'zbek adabiyoti tarixida g'azalning keng tarqalishi XIII—XIV asrlarga to'g'ri keladi. XIV asr o'zbek adabiyotining yirik g'azalnavislardan biri Sayfi Saroyi edi. XIV asrda yashab ijod etgan Mavlono Abdulmajid, Mavlono Xoja Ishoq Xorazmiy, Tug'li Xoja, Ahmad Hoja as-Saroyi, Mavlono Imod Mavloni, Mavlono qozi Muhsin Xojamiy kabi nazm

sohiblarining turkiy tilda bitilgan g'azallari ham bu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.

O'zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri ruboiy edi. Ayniqsa, XIV asrda Xorazmda yashab ijod qilgan faylasuf shoir Pahlavon Mahmud ijodida ruboiy janrining yetakchi o'rin egalla-ganligi nazarda tutilsa, shu asr lirikasining boy manzarasi yanada ravshan bo'ladi. Adiblar lirikaning deyarli barcha shakllariga murojaat etganlar. Ularning asarlari o'rtasida o'zbek, fors-tojik, hatto arab tilidan foydalaniib yaratilgan mullama (shiru-shakar) lar mavjud ekanligi bilib olinadi.

Shuningdek, bu paytdagi o'zbek adabiyotida masalchilik, nomalar, dostonlar ham ko'p uchraydiki, bularning bari madaniyatimiz tarixi nihoyatda sermazmun ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar hamda mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, arablar istilosidan to XIV asrning o'rtalarigacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy-ma'rifiy muhit juda ziddiyatli va tahlikali kechgan. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini quyidagi holatlarga tortishi lozim:

Birinchidan, arab istilosi natijasida hozirgi O'zbekiston hududida o'sha davrgacha bo'lgan madaniy hayot izdan chiqdi. Zardo'shtiylik dini rasman inkor etildi. Mahalliy xalq islom diniga jalb etila boshlandi.

Ikkinchidan, islom mafkurasi tufayli o'lkamizga Rim, yunon, arab madaniyati, fani, falsafasi kirib kela boshladi. Buning oqibatida, O'rta Osiyoda o'ziga xos milliy uyg'onish davri uchun zamin yaratilib, diniy va dunyoviy bilimlar rivojida ko'plab yangi yo'naliishlari yuzaga keldi.

Uchinchidan, O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davrida hozirgi o'zbek tiliga asos solindi. O'qituvchi ushbu holatga alohida e'tibor berishi lozim. Zero, bu davr o'zbek milliy madaniyatining shakllanishida hal qiluvchi bosqichlardan biridir.



XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

Ma'lumki, O'zbekiston hududi qadimgi sivilizatsiya mas-kanlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning har bir go'shasi insoniyat tarixi haqida hikoya qiluvchi muhim manba hisoblanadi. Biror-bir tarixiy bosqich yo'qki u jahon madaniyatiga o'zining benazir hissasini qo'shmagan bo'lsin. Agar mamlakatimiz hududida insoniyat paydo bo'lganiga 1,2 mln yil bo'lgan bo'lsa, demak e'tirof etish lozimki, madaniyat va san'at tarixi ham shuncha davrni o'z ichiga oladi.

Jahon madaniyati silsilasida Xorazm madaniyati, xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasi tarixining o'rni beqiyos.

„Bundan ming yil muqaddam, — degan edi I. Karimov, — odomzod tarixidagi ilk Akademiyalardan bo'lmish — Ma'mun akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topgani bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta... Xorazm va Xiva zaminida yashagan Pahlavon Mahmud, Sulton Vays, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Baqirg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk farzandi Jaloliddin Rumi, Abulqosim al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Ogahiy, Bayoni, Safo Mug'anniy, Chokar, Sheroziy, Hojixon, Bola baxshi kabi o'nlab va yuzlab allomalar, shoirlar va san'atrkorlar nomini biz — bugungi avlod vakillari cheksiz chtirom bilan tilga olamiz va boshimizga ko'taramiz“¹

Darhaqiqat, o'zbek xalqi juda ko'hna va boy milliy-madaniy merosga ega ekanligiga Xorazm Ma'mun akademiyasi guvohlik berishi mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning „Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida“ (1997-yil 11-noyabrda) gi farmonida ham ushbu masalaga alohida e'tibor berilgan.

Xo'sh, Xorazm Ma'mun akademiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi qay tarzda ro'y berdi. Bundan ming yil muqaddam Xorazm yurtida ilm-fanning gurkirab rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilish jarayoni qanday sodir bo'ldi?

¹ Karimov I. Asarlar. 6-jildi, 376-bet.

Ushbu savollarga javob topish har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarda Vatanga, millatga, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosga nisbatan mehr-muhabbat va faxrlanish his-tuyg'usini uyg'otadi. Qolaversa, milliy-madaniy merosga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish millatning kelajagi, uning taqdiri uchun juda zarurdir.

Xorazm Ma'mun akademiyasiga 1004–1005-yillarda asos solingan. Ushbu ilm maskani Markaziy Osiyodagi ilk akademiya hisoblanadi. Akademianing „Ma'mun“ deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997–1017-yillar) ularning homiyligida tashkil qilingan va amaliy ish olib borgan. Akademiya 1017-yilda o'z faoliyatini to'xtatishining sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi.

Xorazm Ma'mun akademiyasida ilm-fanning barcha sohalari bo'yicha tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan va hind, arab, yunon olimlarning ishlari o'r ganilgan.

Akademiya jahon ilmiy tafakkuri, madaniy va ma'naviy taraqqiyotining benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Jahon sivilizatsiyasi tarixida bunday an'analar qadimiy ildizlarga egadir. Aflatun akademiyasi „bog' suhbatlari“ — olimlarning turli mavzular bo'yicha bahs-munozaralari shaklida amal qilgan bo'lsa, keyingi davrlardagi ilmiy markazlar olimlarning doimiy ish olib boruvchi uyushmalariga aylangan.

Aynan Xorazm yurtida Ma'mun akademiyasining faoliyat ko'rsatishiga bir qancha sabablar turtki bo'lgan edi. Birinchidan, Xorazm vohasi qadimdan ajdodlarimiz uchun hayot beshigi bo'lib kelgan, bu voha buyuk Amudaryo tomonidan tinimsiz ravishda to'yintirib kelingan serhosil tuprog'i bilan dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan o'lkaza aylangan.

Ikkinchidan, manbalarda qayd etilgan etnos miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning so'nggi choragidayoq qadimgi Xorazmda xorasmiy nomi bilan shakllangan edi. Bu etnos o'sha davrdan boshlab hududiy va til birligi jihatidan uyushgan xalq edi.

Uchinchidan, qadimiy Xorazmda dehqonchilik madaniyati va davlatchilik jarayonlari shaharsozlik madaniyati bilan uyg'un holda rivoj topdi. Jonbosqal'a, Govurqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tup-

roqqal'a, Qirqal'a, Ayozqal'a, Teshikqal'a, Qo'rg'oshinqal'a. shimoliy-sharqiy mintaqada esa Devsolganqal'a. Xozarasp. To'qqal'a. Badirkent va boshqa o'nlab, yuzlab ulug'vor qadimi shahar va qo'rg'onlarning vujudga kelishi Xorazmda buyuk sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

To'rtinchidan. Xorazm Ma'mun akademiyasiga asos solinishiga, yana mahalliy aholi madaniyati, ayniqsa yozuv madaniyati katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, qadimgi Xorazmda yozuv va yozuv madaniyati miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi choragidan boshlangan dastlabki bosqichidayoq alifbo tizimida shakllangan. Yozuv madaniyatining yuksak darajaga ko'tarilishi esa Xorazmda ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Beshinchidan, Xorazm Ma'mun akademiyasining paydo bo'lishi va shakllanishiga „Ipak yo'li“ doirasidagi xalqaro aloqalar, turli xalqlarning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan yaqinlashuvi ham ta'sir ko'rsatdi. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Gurganch butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylandi. Xuroson, Mova-rounnahr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlardan karvonlari shaharda to'xtab, Ustyurt orqali Volga bo'yiga chiqib, Qora dengiz atrofiga, Yevropa tomon yo'l olardilar.

Ustyurtdagi o'sha davrda serqatnov bo'lgan karvon yo'llarining qoldiqlariga ko'ra, ular Xorazmdan chiqib, ikki tomonga ketgan: biri Uchquduq, Buloq, Qo'shbuloq, Belsuli orqali shimaliy-g'arbga, ikkinchisi Mang'ishloq tarafga yo'nalgan. Bu yo'llar bo'ylab toshdan tiklangan istehkom va karvonsaroylar joylashgan. Shuningdek, bu hududda Alan qal'a, Shemaxa qal'a, Dovkesgan qal'a — shahar xarobalari, Urga, Qiyayo'l, Qoramumbat, Shibindi soqchi minoralari, Puljoy, Qiyayo'l qal'alarini qoldiqlari topilgan.

Biz yuqorida sanab o'tgan omillar Xorazmda Ma'mun akademiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun katta zamin yaratdi. Natijada, Xorazmda o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan qomusiy olimlari, mutafakkirlari yetishib chiqdi. Bulardan tashqari, mazkur ilm maskanida boshqa mamlakatlardan kelgan ko'plab olimlar ham mehnat qildilar.

Mashhur kimyogarlar, tabitshunoslar, tibbiyotchilar, matematiklar, astronomlar, muhandis-muhosib olimlar, mantiq-

shunoslar, faylasuflar, tarixchilar, georaflar ilm-fanning deyarli barcha sohalari bo'yicha ijod qildilar. Ayniqsa, Abu Nasr Mansur Ibn Ali Ibn Iroq al-Ja'di Abulkayr Ibn Hammar, Abu Ahl Iso ibn Yaxya al-Masixi al-Jurjoniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Abu Ali ibn Muhammad as-Saxri, Abu Abdaloh Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy kabilarning xizmati katta bo'ldi.¹

Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tiklash bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar milliy-madaniy merosni tiklash yo'lidagi ulkan sa'y-harakatdir. Ushbu akademiya o'zining ilmiy ahamiyati jihatidan xalqaro mavqega ega bo'ldi. BMTning YUNESKO tashkiloti qarori bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi bo'yicha xalqaro anjuman o'tkazish taklifi qabul qilindi. Mamlakatimizda ushbu sana bo'yicha tashkil etilgan tadbirdorda ko'plab jahon mamlakatlaridan olim-tadqiqotchilar ishtiroy etdi. Bularning bari Xorazm Ma'mun akademiyasi, unda faoliyat ko'rsatgan yurtimiz mutafakkirlariga bildirilgan hurmat-ehtiromdir.



¹ Mustaqillik. Izohli ilmiy-omnabop lug'at. T., 2006-yil, 381-bet.

AMIR TEMUR OMILI VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

O'zbek milliy davlatchilik tarixida, milliy-madaniy mero-simizda, siyosiy-mafkuraviy tizimimizda Amir Temur shaxsi, u yashagan davrdagi muhitni tahlil etish ham muhimdir. Darhaqiqat, shunday. Hozirgi kunda Amir Temur omiliga, buyuk Sohibqiron shaxsiga munosabat, eng avvalo, unga nisbatan yuksak mehr-muhabbat, izzat-ikromning namunasi bo'sha, boshqa tomondan, milliy davlatchilik mohiyatini anglash, milliy mustaqillikni himoya qilish va mustahkamlash nuqtayi nazaridan mazkur masalaga e'tibor qaratilishida kuchli mantiq mavjud.

Prezident I.Karimov shu o'rinda quyidagilarni yozadi: „**Biz o'zbeklarni ulug'**, **bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham shunday.** YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning to'ylarini o'tkazishdan maqsad nima edi? Komil bu insonning, eng avvalo, buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo'lganini, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi“.¹

Ta'lim tizimida Amir Temur va Temuriylar davri to'g'risida fikr yuritilar ekan, o'qituvchi keyingi yillarda buyuk Sohibqiron shaxsi va uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy faoliyatiga munosabat o'zgarganligini aytishi lozim. Yaqin tarixda „bosqinch“, „kallakesar“, „mustamlakachi“ nomlari bilan „siylangan“ Amir Temur bunday „yorliqlar“dan xoli bo'ldi.

Umuman, o'qituvchi Amir Temur shaxsiga baho berar ekan, avvalo o'sha davrdagi siyosiy-tarixiy muammolar nuqtayi nazaridan fikr yuritishi va mulohaza qilishi ayni haqiqatdir. O'quvchi Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi yurtimizni mo'g'ul istilo-chilaridan ozod etish bilan bog'liq ekanligani bilmas ekan, unda uning bu boradagi bilimi xolis bo'lmaydi.

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998-yil, 15-bet.

Amir Temur 1370–1372-yillarda Movarounnahr yerlarini o'ziga bo'ysundirdi. 1388-yili Xorazm zabt etildi. 1393-yili esa Eron, uning Xuroson, Isfaxon, Fors viloyatlari qo'shib olindi. Endi Amir Temur davlatiga tahdid soluvchi, uning kuchayishiga to'sqinlik qila oluvchi birdan bir davlat Oltin O'rda xonligi edi, xolos. 1395-yili Terek daryosi sohilida Amir Temur va To'xtamish qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi va unda Oltin O'rda xonligiga bir umr qaddini tiklay olmas zarba berildi.

Amir Temurning Oltin O'rda xonligiga qarshi kurashi va uning bu kurashdagi g'alabasi haqida sharqshunos olim Yakubovskiy quyidagilarni bayon qiladi: „To'xtamish qo'shining Terek daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda Saroyberkaning xarob qilinishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi, shundan keyin u o'zini hech o'nglay olmadidi. Qadimgi Rusga qanchadan qancha jabr o'tkazgan davlat juda zaiflashdi. Oltin O'rda tushkunlikka tusha boshladidi. Garchi Amir Temur O'rta Osiyo manfaatlarini ko'zlagan va Moskva knyazlari bilan aloqa bog'lamagan holda Oltin O'rdaga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, bu kurash natijasida u O'rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki obyektiv ravishda, Rus uchun juda katta xizmat qildi“¹.

Haqiqatan ham, bu, xolis baho edi. Amir Temur nafaqat Rusni, ayni paytda, butun Yevro'pani halokatdan qutqardi. Shuning uchun ham ular Amir Temur bobomizni o'zlarining xaloskorisifatida qadrlaydilar.

Biroq, o'quvchilar tomonidan bilishlari lozim bo'lgan boshqa haqiqat bor. U ham bo'lsa Amir Temurning Movarounnahrning muqarrar halokatdan saqlab qolishi, mo'g'ullar istilosiga barham berishi, vayronagarchiliklarning yana davom etishining oldini olishidir. Ayni paytda shunga e'tibor berish lozimki, Amir Temurning O'zbekiston milliy davlatchilik tarixi oldidagi buyuk xizmati — mo'g'ullar istilosi xarobalari ustida yirik, kuchli, markazlashgan davlatni barpo etishidir.

Ushbu davlat o'zining mavqeyi, salohiyati nuqtayi nazaridan o'sha davrdagi dunyodagi eng yirik imperiyalardan biri edi. Amir

¹ Norqulov N. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. Xorazm, 1996-yil. 7-bet.

Temur adolat, haqiqat, yaxshilik, e兹gulik kabi ijobiy fazilatlar asnosida hududiy jihatdan juda katta davlatning poydevorini barpo etdi.

O'qituvchi yana shu narsaga e'tibor berishi lozimki, Amir Temur sobiq tuzum maskurasi ta'kidlagani kabi savodsiz, vahshiy emasdi. U o'z davrining buyuk bilimdoni, zamonasining yaktosi, komil-u fozil, benazir dahosi, Allohning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va iste'dod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlardan dars o'tish jarayonida e'tibor berilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri shundaki, odatda Sharqda, ayniqsa O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan davlat hukmdorlari ko'p holatlarda ma'naviyat, ma'rifatni o'z faoliyatidagi ustuvor jabha, deb bilganlar. Amir Temur ham bundan istisno emasdi.

U yoshlik davridan Sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san'atga, islom dini va uning axloq-odobga oid ta'limotiga iy-mon-e'tiqod bilan qaragan. U handasa, falakiyot, mantiq, ilohiyot, fikh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jo'g'rofiya, tibbiyot, adabiyot va san'at ilmlarini teran o'zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili — turkcha, forscha, arabchani chuqur va mukammal bilgan Sohibqironning shijoatli ruhiyatida ilm va ilm ahliga hurmatu e'zozi favqulodda kuchli bo'lgan. „Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'idan mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-u idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib yetishdi“.¹

O'quvchilarining Amir Temur to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashda o'qituvchi, hech shubhasiz, uning to'g'risida Prezident I.Karimov tomonidan bildirilgan fikrlari, shuningdek, „Temur tuzuklari“, „Amir Temur o'gitlari“, „Amir Temur vasiyati“, Sharofiddin al-Yazdiyning „Zafarnoma“, Ibn Arabshohning „Amir Temur tarixi“, Salohiddin Toshkandiyning „Temurnoma“, B.Ahmedovning „Tarixdan saboqlar“ va

¹ Karimov I. O'zbekiston: Milliy istiqlol. Siyosat. Masakra. T. 1-j., 1996-yil, 360-bet.

„Amir Temur“, shuningdek, A.Ahmedov, Y.Berezikov, Muhammad Ali kabilarning asarlariga e’tiborni qaratishi mantiqan to’g’ridir.

Amir Temurning ma’naviyat, ma’rifat haqidagi ta’limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti ijtimoiy-siyosiy faolligi avvalo uning „Tuzuklari“da, „Tarjimayi holi“da o’ta mukammal va chuqur bayon etilgan. Sohibqiron jahongir bo’lsa-da, u kuch-qudrat zo’rlik, zo’ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini anglab yetdi. Adolatni kuch bilan, kuchni adolat bilan uyg’unlashtirdi. Temur tamg’asining naqshi „Rosti-rusti“ bo’lib, bu „Haqgo’y bo’lsang — najot topasan“ demakdir.¹

Buyuk Sohibqironning ma’naviyati va umuman, o’sha davr ma’naviyati Amir Temurning vijdoni, amaliyatda qo’llagan tamoyillari, rahbarlik va oddiy insoniylik faoliyatida mujassam topgan edi. U shunday tamoyillarga amal qildiki, ular har doim Sohibqironning ma’naviyatini ko’z-ko’z qilardi.

Bo’lg’usi mutaxassislar shakllanishida, nazarimizda, o’sha tamoyillarga amal qilinsa va bunday hol o’qituvchilar tomonidan qat’iy ravishda qo’llab-quvvatlansa, jamiyat rivoji va takomillashuvi yanada sezilarli bo’ldi. Xo’sh, o’sha tamoyillar nimalardan iborat? Birinchisi, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatlaganligi; ikkinchisi, davlat ishlarini mamlakatning ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan quvvatlab, maslahatlashib, ken-gashib olib borilganligidir. Uchinchisi — Amir Temurning sultanat ishlarini murosa-yu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgazganligi, ko’p narsalarni bilib tursa-da, o’zini bilmaslikka olganligi, do’st-u dushman bilan murosa-madora qilganligidan iborat. To’rtinchisi, davlat ishlarini sultanat qonun-qoidalariiga ko’ra va tuzukka tayanib va asoslanib boshqarishni tashkil etgani bo’lsa, beshinchisi amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo’lib, ularga izzat-hurmat ko’rsatib, martabalarini ulug’lab, ish tutganligidir.

Oltinchisi, „Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o’zimdan rozi qildim, — deydi Amir Temur. — Gunohkorlarga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan

¹ Boboyev X., G’ofurov Z. O’zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti. T., 2001-yil, 250-bet.

hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim“.¹

Umuman, Amir Temur omili, uning shaxsi butun bir millatni, avlodlarni tarbiyalovchi kuch-qudrat ekanligini o'qituvchi muntazam ravishda o'quvchilarga tushuntirib berishi lozim. Shu ma'noda I.Karimov shunday deydi: „Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini,adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak“.²

Amir Temur hayotligi davrida o'lka madaniyati, san'ati gurkirab rivoj topdi. U ilm-fan, madaniyat rivojining tom ma'nodagi homiyisiga aylandi.

Ma'lumki, Temur vafotidan so'ng temuriy shahzodalar o'rtaida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketadi. Ammo mammalakatda og'ir ijtimoiy vaziyatga qaramasdan astronomiya, musiqa, me'morchilik birmuncha rivoj topdi. Bu davrda Mavarounnaharda Samarqand, Xurosonda Hirot asosiy madaniyat markazlaridan bo'lib qoldi.

Ayniqsa, Samarqandning bu davrdagi ilmiy va madaniy hayoti Xuroson va Mavarounnahrdagi juda ko'p olim va shoirlar diqqatini o'ziga tortar edi. Ulardan ko'plari Samarqandga o'qishga kelar edilar. Buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy ham Samarqandda Qozizoda Rumiy, Fazlulloh Abdullaysiylardan dars oladi. Bu vaqtda Mavlono Mir qarshiy, Xatoyi va boshqalar Samarqandda yashab ijod etar edilar. Buxoro va Xorazm ham shu davrning yirik adabiy markazlaridan edi. Buxoroda Xoja Ismatulloh Buxoriy va uning shogirdlari Mavlono Xayoliy va Mavlono Kavsariylar yashardilar.

¹ Temur tuzuklari. T., 1991-yil, 54–55-betlar.

² Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-j., 1997-yil, 177-bet.

O'rganilayotgan davrda barpo etilgan Ulug'bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq sanalar ediki, jihozni va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona o'sha davrda ham, undan keyin ham yaratilmadi. Rasadxonada 1080 ta yulduz tasvirlangan katalog tuzildi, yulduzlarning belgisi o'ndan to'qqizgacha aniq bo'lgan, turish burchaklari sinuslari va tangenslari natural qiymatlarining jadvallari, shuningdek, yer hududidagi ko'p sonli nuqtalar koordinatalarini qamrab olgan jadvallar ishlab chiqildi.

XV asr madaniy markazlaridan biri Hirot bo'lib, shahar baland devorlar bilan o'ralgan, ora-orada 149 ta katta-kichik minoralar qurilgan edi. Undan tashqari shahar atrofi bo'ylab ariq qazilgan va shaharning beshta darvozasi oldida ko'tarma ko'priklar o'rnatilgan. Hech shubhasiz, ushbu davr Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Donishmandning buyukligi va butun qobiliyati tarixiy jihatdan u yashaydigan muhitga bog'liq edi. Uning zamondosh do'stlari, ilm-fan fozillari, shoir, mash-shoq, me'mor, hattot, musavvirlar Hirot madaniyatining ravnaqini boshlab bergen va bu haqqoniy ravishda „Navoiy davri“ deb ataldi.

Alisher Navoiy o'zining 1491—1492-yillarda yozgan „Majolis un-nafois“ („Nafis majlislar“) asarida o'ziga zamondosh va undan oldin yashab o'tgan ko'pgina shoir, tarixchi, fan sohiblari haqida qiziqarli ma'lumotlar bergen. Unda 459 kishining nomi qayd etilgan.

Olimlarning bu davrdagi musiqaviy-nazariy fikrlari, musiqaviy-estetik qarashlari XIV-XV asr musiqasiga bag'ishlangan risolalarda o'z ifodasini topgan edi. Shunday manbalardan biri Zaynulobiddin bin Mahmud al-Xusayniy (XV asr) ning „Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy“ („Musiqaning ilmiy va amaliy asoslari“) asaridir.

Al-Husayniyning hayoti va ijodiga doir hech qanday ma'lumot saqlanmagan. Uning asari Navoiyning topshirig'i bilan yozilgan va unga bag'ishlangan bo'lsa-da, Navoiy va boshqa mualliflar asarlarida al-Husayniy haqida biror marta ham eslatib o'tilmagan.

Kirish qismida al-Husayniy asari ba'zi do'stlarning iltimosi bilan yozilgani (bu Navoiy edi) haqida aytadi. So'ngra Navoiyga bag'ishlangan qasida keltiriladi. Qasidada Navoiy madh qilinib,

unda mashhur maqomlar nomi so'z o'yin bilan mohirona bitilgan. Qasidaga Iroq, Isfaxon, Kuchak, Buzurg kabi maqomlar mazmuni asos qilib olinadi.

Al-Husayniy o'n ikki maqomlarni quyidagi tartibda keltiradi: Ushshoq, Navo, Abu Salik, Rost, Husayniy, Xijoziy, Rohoviy, Zangula, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzurg¹ Mazkur asar XV asr musiqa amaliyoti va nazariyasining juda ko'p boshqa masallalarini tushunishga ham yordam beradi. Bu noyob yodgorlikda zamonasidagi musiqaviy hayot, musiqiy-estetik qarashlar, musiqa amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qator masalalar aks etgan. Muallif o'z mulohazalarini sodda, ravon fors (tojik) tilida tushunarli uslubda izohlaydi, o'quvchiga oson yetib boradigan zo'r qo'llanma beradi.

O'zbekiston madaniyatining o'rta asrlardagi mohiyatini ochib berishda Temuriylar sulolasining yorqin vakili Bobur hamda uning mashhur „Boburnoma“si muhim o'rin egallaydi. Ushbu asar Bobur safarları, uning harbiy yurishlari, ishqiy sarguzashtlari, turmush mashaqqatlari va ko'p qirrali siyosiy hayot voqealari nomalaridan jam bo'lgan. Alloma o'zbek adabiyotiga yangi mavzular kiritdi, ular yurt manzillariga cheksiz sadoqatni aks ettirdi.

XV asr o'zbek adabiyotining shakllanishi o'zbek tilining XIV—XV asrlarda Movarounnahrda sodir bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy hamda siyosiy siljishlar tufayli tez rivojlanganligi natijasi bo'ldi. Adabiyot taraqqiyoti, o'z navbatida til jarayonlariga ta'sir ko'rsatdi, o'zbek xalqi tarkib topishining muhim qismi bo'lgan o'zbek tilining shakllanishini tezlatdi. Adabiyot Movarounnahrning barcha hududlari o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga yordam berdi, mavjud g'oyalar madaniy boyliklarning tarqalishiga zamin yarattdi, ikki ulug' daryo — Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida yashagan xalqlar, qabila va urug'lar etnik birligi va yaxlitligi vujudga keldi, shuningdek, ularning ma'naviy turmushi hamda ruhiy xususiyatlari shakllandi.

Ma'lumki, 1506-yilda Husayn Boyqaro dunyodan o'tadi. Biroq, mamlakatdagi og'ir ahvol, ziddiyatli vaziyat Xurosonda temuriylar davlatini yemira boshladidi. So'ngra hokimiyat Shayboniylar qo'liga

¹ O'zbekistonda ijtimoiy fikr. 1969-yil, 8–9-sonlari, 67-bet.

o'tadi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda yirik markazlashgan Temur va Temuriylar sultanati mag'lub bo'ldi.

Shu bilan IX asrda boshlangan Uyg'onish davri ham barham topdi. Markazlashgan yirik davlat tuzulmasining parchalanishi esa o'zaro adovatlarni kuchaytirdi. Bu esa, hech shubhasiz, madaniy hayotda ham o'z aksini ko'rsatdi: o'zbek xalqi madaniy rivojida uzoq muddatga cho'zilgan nisbiy ma'nodagi tushkunlik davri boshlandi.



O'ZBEK MADANIYATI XONLIKLER VA CHOR ROSSIYASI YILLARIDA

XVI—XIX asrning birinchi yarmi O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy, madaniy-mafkuraviy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Mintaqadagi sulolaviy tarqoqlik va hokimiyat uchun doimiy ravishda bo'lib turgan urushlar Temuriylar saltanatining siyosiy va iqtisodiy qudratini susaytirib yubordi. Bunday hol esa Shayboniyxon tomonidan mamlakatni bosib olishiga imkon yaratdi. Muhammad Shayboniy vafotidan so'ng markazlashgan hokimiyat tuzishga qarshi turgan yirik feodallarning o'zaro kurashlari yanada kuchaydi. To'g'ri, Shayboniylar hukmdorlaridan ayrimlari va xususan Abdullaxon davrida O'rta Osiyo hududlarining hammasini o'z ichiga olgan, birlashgan davlat tizimini saqlab qolish yo'lida muayyan urinishlar bo'ldi. Ammo bu urinishlar mustaqil iqtisodiy-ijtimoiy zaminga ega emasdi.

Ta'kidlash lozimki, bu davrda fan va madaniyatning rivoj topishida ma'lum yutuqlarga erishildi. Avvalo, sulola hukmdorlarining o'zлari o'qimishli shaxslar bo'lganligini qayd etish lozim. Xususan, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdullazizzon, Juvonmardali Sulton kabi Shayboniylar turkiy va forsiyda she'r bitganlar, diniy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo'lganlar. Ubaydullaxon musiqa ilmiga katta rag'batda bo'lgan, musiqiy asboblar chalgan, nozik husnixat egasi bo'lgani ma'lum.

Abdullahifxonning tarix, ilmi nujun borasida salohiyati katta bo'lgan. Abdullaxonning diniy ilmlardan ko'plab ta'llim olganligi ma'lum. Abdullazizzon va Abdullaxonlarga tegishli kutubxonalar o'z zamonasining eng yirik kitob xazinalari hisoblanar, ularda qo'lyozma asarlarni ko'chirish, ta'mirlash, miniatyuralar ishlash bilan shug'ullanilgan.¹ Shayboniyxonlar davrida, yirik arboblar

¹ Azamat Ziyo. Shayboniyxonlar // O'zbekiston ovozi. 1996-yil, 23-aprel.

o'z bolalariga turli bilimlar, xususan, hattotlik, she'riyat, harbiy bilimlar bilan birga musiqa va qo'shiq aytishni ham maxsus o'rgatishga harakat qilganlar.¹

O'rta Osiyoning XVI asrdan keyingi tarixi fanda xonliklar davri deb nomlanadi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari tashkil topadi. Bu davorda urushlar, o'zaro dushmanchilik kuchaydi, xonlar, feodalarning turli guruuhlari o'rtasida maqsadsiz va vayronagarchilikdan iborat kurashlar muttasil davom etdi.

Aytish o'rinniki, hali XVI asrning 60-yillarida Buxoro xonlik nomi bilan aytildi. XVIII asrning ikkinehi yarmidan Chingizzon sulolalaridan bo'lgan xon o'rniga Mang'iyl qabilasidan bo'lgan amirlar oliv hukmdor bo'lishdi. Mang'iylar hukmronlik qilgan davrda „Xonlik“ so'zi o'z o'rnini amirlik atamasiga bo'shatib berdi. Temuriylar davrida mintaqaning markazi Samarqand edi. Abdullaxon davrida esa Buxoroning poytaxtga aylanishi uzil-kesil hal bo'ldi. Ammo muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy markaz sifatida o'z o'rnini saqlab qola bildi.

O'zbekiston tarixidagi eng murakkab bosqichlardan biri aynan XVI-XIX asrlardir. Qariyb 300 yil davom etgan murakkab sharoitda iqtisodiy yuksalish va bo'hronlar ijtimoiy ixtiloslar kuchaydi. Adabiyot, san'at, ilm-fan, me'morchilik, musiqa, qo'shiqchilik, amaliy san'atning taraqqiyoti ham hayot sharoitlari bilan o'zaro bog'liq holda notejis rivojlandi.

O'rganilayotgan davrda xonliklar madaniy hayotida arab tili bilan birligida, avvalgidek rasmiy til sifatida fors tilidan ham foydalanildi. O'sha davrdagi hokimlarning siyosatdagi ayrim chekinishlari, ular dunyoqarashidagi eskicha, (konservativ) fikrlashlar madaniyatning pasayishiga sabab bo'ldi. Ba'zi „Muqaddas kitoblar“ ga yozilgan sharhlar tahlilsiz o'rganilar, makkabarda esa diniy fanlardangina ta'lim berish ustivorlikni kasb etadi². Bu esa ilmiy dunyoqarashlarning cheklanganligi, ko'p hollarda dunyoviy bilimlar nazar-pisand qilinmaganligidan dalo-lat beradi.

¹ Mukminova R. G. Из истории культурной жизни Ташкента конца XV – XVI века.

² Saidqulov T. O'rta Osiyo tarixining tarixshunosligidan lavhalar. T., 1993. 123-bet.

O'qituvchi shu narsaga e'tibor berishi lozimki, XIX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa sobiq ittifoq davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga, xususan, uning xonliklar davridagi ma'naviy rivojlanishiga o'ziga xos tarzda, mustamlakachilik nuqtayi nazariidan munosabatda bo'lish holati yuzaga keldi. Tarixiy, ijtimoiy-falsafiy adabiyotda XVI-XIX asrning birinchi yarmi madaniyat hamda san'at rivojida tushkunlik davri, degan g'ayriilmiy xulosalar paydo bo'ldi. Vaholanki, bu davr vakillari Xondamir o'zining o'sha davr san'atkorlari haqidagi ma'lumotlarini jamlagan „Yetuk kishilar haqida ma'lumotlar“ asarini¹, buxorolik mashhur musiqa nazariyotchisi Najmuddin Kavkabiy esa o'zining „Risolai mnsiqiy“² asarini yaratdilar. Shu bilan birga nomlari deyarli butun sharqqa mashhur bo'lgan bir necha o'nlab hofiz va sozandalar yetishib chiqdi. Yuqoridagi „xulosa“ larning paydo bo'lishi ko'proq va asosan siyosiy mulohazalardan kelib chiqardi. Xususan, XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo hudoedlarining chor Rossiysi istilochilari tomonidan bosib olinishi yuqoridagi „g'ayriilmiy“ xulosaning yuzaga kelishiga bosh sabab bo'ldi.

Istilochilar o'z mustamlakachilik siyosatining bosh maqsadi va mohiyatini yashirish, o'lka xalqlari, ayniqsa ziyorolar hamda ma'rifatparvarlarni aldash maqsadida o'zlarining bu yerlarni bosib olguncha bo'lgan davrdagi ijtimoiy hayoti, ayniqsa madaniyat, san'at, ilm-fanning tanazzuli haqidagi bo'htonlarni o'ylab topdilar. Mustamlakachilar „Yovvoyi“, „Madaniyatsiz“, „Savod-siz“, „Didsiz“ kabi yorliqlarni mahalliy xalqqa tamg'a sifatida boscilar. Shunday qilib, XX asrning 80-yillari oxirigacha jomatichilikka XVI-XIX asr birinchi yarmi madaniyatsizlik kuchaygan va qorong'ulikdan iborat davr, degan ijtimoiy xulosa singdirib kelindi.

Real holat esa mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan bu davrda ilm-fan, ma'rifat, madaniyat rivojlanganligidan dalolat berardi.

XV—XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-fan ancha rivojlandi. Adabiyot, tarix, me'morchilik va tasviriy san'at o'ziga xos rivoj-

¹ O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti arxivsi fondi. 5365-raqamli hujjat.

² O'sha joyda, 468/ IV raqamli hujjat.

lanish bosqichini bosib o'tdi. „Hasan Buxoriy Nisoriy (1566) ning „Muzakkir ul-ahbob“ va Mutribiyning (1604) „Tazkiratash-shuar“ nomli adabiyot antologiyasi buning yaqqol dalilidir. Bu qomusiy antologiyada yuzdan ziyod adabiyot arboblarining ijodlari va tarjimayi hollari o'rin olgan. Mamlakatda hunar va savdo ishlarining rivojlanishi ilm ahlining ijtimoiy doirasi kengayishiga ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkir Zayniddin Vosifiy 1512-yil Samarqandda bo'lganda bazmi mushoiralarda kosib, shoirlar, savdogarlar va oddiy kishilarning tadbirlarda faol qatnashib turganligini bayon qiladi. Ularning aksariyati she'r yozib turganligi o'sha davr tabaqalarining madaniy jihatdan yuksak saviyada ekanligidan dalolat beradi. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'plab adabiy va tarixiy asarlar o'zbek tilida yozildi. Muallifi noma'lum „Nusratnama“, Muhammad Solihning „Shaybonynom“ asarlari o'zbek tilida yozilgan. Bundan tashqari mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari, xususan, „Zafarnoma“ si, Ulugbekka bag'ishlangan „Muntahabi jome va tovorixi shohiy“ degan asarlari o'zbek tiliga o'girildi. Shayboniylar davrida fanning qator tarmoqlari rivoj topdi. 1693-yilda Amin Ahmad Roziy „Xaft iqlim“ – yetti iqlim degan jug'rofisiy-biologiyaga oid lug'at tuzadi. Unga Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilinadi. 1541-yilda Muhammad Xusayn as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiyaga oid ilmiy asar yozadi. U ko'z tabibi shoh Ali ibn Sulaymon navro'z Ahmadjon huzurida ishlab, kasalliklar haqida „Tabiblik dasturil amaliy“ risolasini bitadi. Musiqa ilmiga oid buxorolik Kavkabiyning asari ham XVI asrda bu san'at rivojidan darak beradi. Bundan tashqari, xattotlik san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Sulton Ali Mashhidiy, Mir Ali Hirviy, Mahmud Ali Shiqobiy kabi Husnixat ustalari ham ijod qilgan. 1586-yilda Darvesh Muhammad Buxoriy kalligrafiya san'ati nazariyasiga oid asar yozadi. Shuningdek, ko'plab qo'lyozmalar miniatyura va suratlar bilan bezatildi.

Xonliklar davrida qurilish inshootlari yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari (karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, hammom, tim, shuningdek boshqa savdo rastalari) quriladi. Monumental binolarning tarixi, qiyofasi o'zgaradi, hunarmandlar uyushmalari vujudga keladi. Buxoro shahri balandligi 10 metrli devor bilan o'ralib, shahar darvozalari qurildi, yirik binolar qurilishida (Mir Arab madrasasi, Xo'ja Zayniddin majid-xonaqosi)

xalq me'morchiligi an'analaridan soydalaniildi. Shahar tashqarisida ham monumental binolar (Chorbakr) qurildi. Jome' masjidlari saroy kabi serhasham qilib, madrasalar peshtoqli, minorali tarzda qurilib, hovlilar to'rt tomondan ayvon va hujralar bilan o'raldi. Buxoro va Toshkentda Ko'kaldosh madrasalari bunga guvohlik beradi. Devorlarga Temuriylar davridagi gul terish usullari rivojlantirildi. Qabr toshlarni yasashda ularga yuksak badiiy yozuvlarni o'yib bitish rivojlandi, (Shayboniyxon qabr toshi, Childuhtaronda Abu Said qabriga qo'yilgan toshlar) xullas, hozirgacha bu davrning ko'pgina betakror madaniyat sohalari o'z sirlarini mukammal saqlab kelmoqda.

O'rta Osiyoda xonliklar va amirliklar o'rtasidagi nizolar bo'lib tursa-da ma'lum darajada dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari davom etdi. Fan, adabiyot, san'atning rivojlanishi ko'proq saroy doirasida bo'lib, ham diniy, ham dunyoviy asarlar yozildi. Garchi o'z davri tarixnavisligi o'sha xonlik va amirlikdagi siyosiy voqealar solnomasini ifodalasada, ular o'sha davr ruhi aks etganligi bilan tarixiy ahamiyatga molik. Muhammad Yoqubning „Gulshan — ul mulk“, Muhammad Mirolimning „Tarixi amir Nasrullo“, Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharifning „Tarixi Amir Haydar“, Muhammad Hakimjon To'raning „Muntaxabud tavorih“ kabi asarlari diqqatga sazovordir.

Qo'qon adabiy muhiti ko'plab shoir va shoirlar ijodi bilan boyidi. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi „Amiriy“ taxallusi bilan o'zbek tilida g'azallar yozgan. Uning rafiqasi Mohlaroyim — Nodira taxallusi bilan fors-tojik tilida she'rlar yozgan. Eri Umarxon vafot etgach, Nodira davlat ishlariga ham aralashib, mamlakat xo'jaligini yaxshilash, madaniy hayotini jlonlantirish bo'yicha muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'qonda madrasalar, karvonsaroyslar, rastalar, yo'llar qurdirdi. U o'z atrofiga Uvaysiy, Mahzuna kabi qobiliyatli ijod ahlini to'pladi. Bu davrda Fazliy Namangoni, Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar ijod qilgan. Mushfiqiy Buxoro amiri Abdullaxon saroyida „Maniqush-shuar“ unvoniga sazovar bo'lgan bo'lsa, Fazliy Namangoni qo'qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan „Majmuat-ush-shuar“ to'plami tuziladi. Bu davrda Qo'qonda Xudoyorxonning saroyi arki, Xivada turli obidalar qurildi.



Ta`kidlash kerakki, bu davrda o`lkada o`ziga xos adabiy-badiiy muhit yaratildi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Farg`onada ijod qilgan Muhammad Sharif Gulxaniy taxallusni bilan tanilgan, ajoyib lirik she`rlar, masallar yozdi. Uning „Zarbulmasal“ asari qahramonlari mahluqotlar bo`lib, shoir ular orqali saroy a`yonlarining kirdikorlarini fosh etadi. Yana bir qo`qonlik shoir G`oziy ham o`z asarlarida zodagonlarni fosh qiladi. XIX asrning 30-yillarda Shahrisabzda shoir Xiromiy hind, fors adabiyotida mashhur bo`lgan „Chor Darvesh“ va „To`tinoma“ hikoyalarni o`zbek tiliga tarjima qiladi. Xalq dostonlari „Yusuf va Zulayho“, „Tohir va Zuhra“, „Bo`z o`g`lon“, „Yusuf va Ahmad“ va boshqa dostonlar vujudga keldi. Shahar maydonlarida qiziqchi va qo`g`irchoqbozlar, o`yinchis an`atkorlar xalq hayatidan hikoya qiluvchi lavhalarni o`ynab, tomosha ko`rsatar, boylar va saroy ahlining ochko`zligini fosh etib, ustidan kular edi.

Bu davrda O`rta Osiyoda ikki turdag'i maktab mavjud edi: quyisi — maktab va oliy — madrasa. Boshlang`ich maktabda savod o`rgatilar va diniy matnlar yodolinar edi. Madrasada ham diniy, ham dunyoviy ilimlar o`qitilar, shuningdek, arab tili sarfu naxfi (grammatikasi), notiqlik san`ati, aljabr va handasa asoslari o`rgatilgan. Bundan tashqari Hofiz, Bedil, Navoiy asarlari o`qitilgan.

Bu davrdagi me`morchilik yodgorliklari hajmi va pardozining jinjimadorligi bilan ajralib turadi. Samarqanddagi Registon maydoni shu davrda shakllandi. Sherdor madrasasining old peshtoqida rangin koshinlar bilan chekilgan bir just sher tasvirlangan. Tillakori madrasasining nomi „Tilla bilan pardozlangan“ degan ma`noni beradi. Devorlardagi ajoyib naqshu nigorlar va ichki devorlardagi tokis-tilla bezaklar juda nafis ishlangan.

XVIII asr oxirlaridan Xiva xonligida ta`mirlash va shaharsozlik ishlari avj oladi. Ollaqulixon madrasasi, Rahmonquli Inoq saroyi hajm jihatidan ancha mahobatli qurilgan. Qo`qon xonligi me`morchiligida rang-baranglik va yorqinlik, pardozdagi koshinlarning yorqin tovlanishi kabi xususiyatlar, ayniqsa Xudoyorxon saroyida yaqqol namoyon bo`ladi.

XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida me`morchilik hajm jihatidan ixcham binolar, goho bezak-pardozlardan butunlay xoliligi bilan ko`zga tashlanadi. Xonliklar va amirlikda me`morchilik qurilishida va bezakda o`ziga xoslik ham seziladi. Farg`ona uylari keng va ayvonli, guldor tokchali, o`yma ganjli, shiftlari naqshu nigorli

qilib qurilsa, Samarqand va Buxoro uylari uchun chiroyli ko'rnishdagi ustunli ayvon, girix va islimiylar naqshlar tushirilgan devor va ganj o'ymakorligi xosdir. Xiva uylari tashqi va ichki shaklda qurilib, ayvoni ichkariga qaragan, ustunlariga o'yma naqshlar chekilgan. Murakkab shakldagi gullar bilan bezalgan.

Shunday qilib, XVI—XIX asrlarda O'rta Osiyo o'zbek madaniyati tarixiy-geografik hududdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumga mos ravishda rivoj topdi. Feodal tarqoqliklar, o'zaro urushlar, ixtiloflar, tabiiyki, bunga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Bu davrga kelib, avval fors-tojik, turkiy xalqlar og'zaki ijodi va ikki tillik asosida mavjud bo'lgan san'at turlaridan endi mahalliy xususiyatlar ajralib chiqa boshladi.

XVI—XIX asr birinchi yarmida madaniy hayot rivojlanishiga davlatlararo madaniy aloqalar ham ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi. Masalan, Buxoro amirligining Hindistondagi buyuk Boburiylar sultanati bilan aloqalari ancha sezilarli bo'ldi. Buxorolik musiqachi va qo'shiqchilar Hindistonda o'zbek-fors ashulachiligin keng targ'ib qildilar va bu hol davlatda uning an'anaviy tarzda rivoj topishiga imkon berdi. Bunday hol Hindistonda Boqijiy Nayining „Zamzamayi vaxdat“, Vojidiy Alixonning „Matla al-ulum va majna ul-funun“ asarlarida o'z aksini topgan. Bulardan tashqari O'zbekiston shaharlari Turkiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Moskva davlati, Qozon xonlari, Novgorod knyazliklari bilan ham faol madaniy aloqalar o'rnatganlar.¹

O'zbekiston madaniyati va milliy ma'naviyati haqida gapirilganda, sobiq ittifoq bilan bog'liq holatlar to'g'risida fikrlashmasdan yaxlit xulosaga kelish qiyin. XIX asrning o'rtalaridan boshlangan mustamlakachilik davri o'zbek millati taqdiriga juda ayanchli oqibatlar olib keldi. Mamlakat Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, „Shu davr ichida xalqimiz boshiga ne-ne kulfatlar, balo-yu ofatlar yog'ilmadи“.² Yurtboshimiz ushbu davr, ya'ni mustamlaka davri tarixini tadqiq etayotgan olimlarga asosiy e'tiborni mazkur bosqichda xalqimizning tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yilganligiga qaratishlarini so'radi.

¹ История Узбекистана, 3-ж., Т., 1993-йил, 408-бет.

² Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Т., 1998-йил, 18—19-betlar.

Mustamlaka davri to'g'risida gapirib, o'quvchilarga bu to'g'rida bilim berganda o'qituvchi ikki jihatga e'tiborni qaratishi lozim. Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, bu davrda o'zbek milliy madaniyatini yakson qilishga zo'r berib harakat qilindi. Milliy o'zlikni, milliy g'urur va istixor hissini yo'qotishga urinish kuchli bo'ldi. Ayniqsa, tarixiy xotirani yo'q qilish mustamlakachilarning asl maqsadi edi. Ikkinchidan, mustabid tuzum o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy boyliklarini zo'r berib tashib ketdi va o'zbek xalqining ma'naviy micosiga bo'lgan huquqini chekladi.

Mustamlakachilarning madaniy va ma'naviy boyliklarni O'zbekistondan olib chiqib ketishi tarixi xususida so'z borar ekan, o'z-o'zidan mustabid tuzumning bu boradagi siyosati bilan bog'liq mulohazalarini bayon etish o'rinnlidir. Chor Rossiyasining Turkiston madaniy boyliklarini talash siyosati faqatgina yodgorliklar, qo'lyozma va tarixiy hujjatlarni olib chiqib ketish bilan cheklangan emas. Ma'murlar Turkistonning mahalliy xalqlari madaniy boyligi va ma'naviy hayotiga nisbatan tutgan o'z siyosatlari maqsadini yashirish u yoqda tursin, aksincha, o'lka mustamlakaga aylantirilgan dastlabki davrlardanoq bu narsani oshkora namoyish qilib keldilar.

Masalan, o'lkan iqtisodiy jihatdan mushkul ahvolga solish, uning mahalliy aholisini ijtimoiy ezishdan tashqari, chorizm uchun mahalliy xalqlar madaniyatini past darajada ushlab turish, ularni tarixiy ildizlardan mahrum etish muhim edi. Imperiya oliv tabaqalarining fikricha, davlat mafkurasining ulug' davlatchilik tabiatni tomonidan oldindan belgilab berilgan ana shu reja amalga oshirilgan taqdirdagina imperiyaning Turkistondagi hukmronligi kafolatlanishi mumkin edi. Ular chorizmning Turkistondagi haqiqiy hukmronligini qaror toptirish uchun uni faqat zabit etish, bu yerda 50 ming kishidan ortiq armiyani saqlash va o'lkan boshqarish. Buyuk davlatchilik — shovinistik tuzumni vujudga keltirishning o'zi yetarli emas, deb hisobladilar. Shuning uchun ham chorizm va ayniqsa, o'lka va uning viloyatlarining dastlabki mustamlakachi boshliqlari, avvalo, ko'p asrlar mobaynida musulmon xalqlarini jipslashtirishning qudratli negizi va ularning ijtimoiy ongi, madaniyati, ta'limi, oilaviy-maishiy an'analari va shariat vositasida huquqiy, axloqiy normalarini belgilovchi muhim omil bo'lib kelgan islom dinining roli va ta'sirini zaiflashtirish zarur, deb bildilar.¹

¹ Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati.; tarix shohidligi va saboqlari. T., 2000-yil, 370-bet.

Mustamlakachilik davrida istilochilar eng avvalo mahalliy xalq o'zligini anglashining muhim sharti sifatida milliy madaniyatni yo'q qilishga harakat qilib, turli bahonalar, siyosiy „o'yin“lar orqali sobiq ittifoq madaniyatini targ'ib etishga kiringdilar.

Mamlakatimizning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi ushbu hududda ming yillar davomida tarkib topgan, shakllangan va rivojlangan, ayni paytda o'zining an'analariga ega bo'lgan qadimiy va boy madaniyatning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Ko'plab milliy usullar, xalqning o'ziga xos yo'llariga asoslangan madaniyat va san'atga Yevropa yo'lining kirib kelishi esa xalqni bezdirdi. Shunday sharoitda milliy mafkura, milliy ongga mos bo'lmasligi o'zga xalq madaniyatini milliy ehtiyojsiz o'zlashtirib bo'lmasligi ayon bo'lib qoldi.

Ta'kidlash lozimki, „yangi“ madaniyat tushunchasi ko'proq siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Barcha istilochilar kabi chor Rossiyasi mustamlakachilari ham o'zgalar yerini bosib olish uchun eng avvalo uning madaniyatini yo'q qilish zarur ekanligini yaxshi tushunar edilar.

O'qituvchi yana shunga c'tiborni qaratishi lozimki, o'zbek milliy madaniyatining siyosiy cheklashlariga qaramasdan rivoj topganligining sababi milliy-madaniy merosning kuchliligida edi. Xususan, milliy o'zlikni ta'minlovchi milliy xususiyatlar, milliy ong, milliy ruh, milliy vijdonning mavjudligi, O'zbekistonning barcha hududlarini birlashtirib turuvchi o'zbek tilining borligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, o'zbek milliy madaniyatining o'zagi sifatida xalq og'zaki ijodi ham ustun darajada rivoj topgan edi. Ayniqsa, dostonlar o'zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy obro'ga ega edi. XIX asrning ikkinchi yarmida bu yerda 40 ga yaqin doston ma'lum edi, ular orasida „Alpomish“, Go'ro'g'li“, „Kuntug'mish“, „Shirin va shakar“ eng ko'p tarqalgan dostonlar edi. Xalq baxshilari bayramlar, to'ylarda, xalq sayllarida sadoqatli do'stlik va chin muhabbat ulug'langan „Tohir va Zuhra“, „Bo'z yigit“ dostonlarini kuylab borardilar. Ayni paytda, milliy madaniyatning muhim ko'rinishi sifatida xalq bayramlari, chunonchi, kasb, ijtimoiy, mehnat bayramlari ham ancha takomillashgan edi. Nonvoxonalar, choyxonalar, oshxonalar ochilib, ularda milliy taomlar tayyorlanar, hofizlar kuylar, mashshoqlar, ko'z boylag'ichlar, dorbozlar, hayvon o'rgatuvchilar, qo'g'irchoq teatr tomoshalari

ko'rsatilib, qiziqchilar qisqacha kulgili sahnalar namoyish qilar, askiyabozlar musobaqalashardi.

Mustamlakachilik davrida o'zbek milliy madaniyati va ijtimoiy taraqqiyotida jadidchilik harakatining o'rni va roli katta edi. Bu harakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy xarakterga ega edi. Jadidchilik chuqur mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy, milliy taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o'z ichiga olardi. Mazkur harakatning yuzaga kelishida O'rta Osiyoning o'zidagi demokratik harakatdan tashqari O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarda keng quloch yoyib rivojlangan falsafiy-diniy oqimlar va Turkiyadagi „Ittihod va taraqqiy“, „Yosh turklar“ harakatining ta'siri ham katta bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu harakatning g'oyaviy rahbari Ismoil Gasprinskiy bo'lib, uning o'l kamizdagi vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Sadriiddin Ayniy, Abdulvohid Rafiy va boshqalar edi.

Toshkentda birinchi jadid maktabi 1901-yilda ochildi. 1910-yilda ularning soni Toshkentda 10 taga yetdi, Qo'qonda esa 16 ta shunday maktablar bor edi.

Turkiston jadidlariadolat, ozodlik uchun kurashda o'z faoliyatlarini uch yo'nalishda olib bordilar. Birinchidan, yangi usuldagagi maktablar ochish, ikkinchidan, umidli yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish, uchinchidan, turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish yo'li bilan omma o'rtasida tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borish. Jadidchilik harakati tufayli milliy matbuot tashkil etildi. „Taraqqiy“. „Xurshid“, „Osiyo“, „Turon“, „Sadoi Turkiston“, „Turk eli“. „Najot“, „Hurriyat“, „Farg'ona nidosi“ kabi nashrlar millat tarbiyasida muhim rol o'ynadi, xalqni yangilik, ijtimoiy taraqqiyot sari yo'naltirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida jadidchilik harakati juda yaxshi o'yangan va ilmiy jihatdan asoslangan nazariya asosida faoliyat ko'rsatdi. Unda ikki sifat bir-birini to'ldirardi. Birinchisi, an'anaviy o'zbek milliy madaniyati tarixining ko'hnaligi va o'z zaminiga egaligi bo'lsa, ikkinchisi, bunday ma'naviyatning kelajagi dunyoviy bilimlar va boshqa xalqlar madaniyati bilan o'zaro aloqadorlikda rivoj topishida ko'rinadi.

Shunday qilib, mustamlakachilik davri qiyinchiliklariga qaramasdan o'zbek milliy madaniyati o'z asliyatini saqlab qola bildi. O'quvchilarga bilim berish jarayonida o'qituvchi shu narsani uqtirishi lozimki, madaniyat va san'atning o'z rivojlanish qoidalari mavjud. Bu narsa milliy mentalitet, milliy xarakter, mahalliy xususiyatlar, milliy vorislik kabi omillarga bog'liqidir. O'zbekiston hududida aynan shu omillar mavjudligi uchun ham milliy madaniyat rivoj topdi.

Mustamlakachilarning maqsadi O'zbekiston hududida avvaldan mavjud bo'lgan madaniy-ma'rifiy muhitni sindirishga qaratilgan bo'lsa-da, biroq, uning uddasidan chiqa olmadi. Ammo shunga qaramasdan, o'zbek xalqi tarixiy taqdirida 1917-yildan boshlangan yangi mustamlakachilik bor edi, tarixga kirgan bu davr to'g'risida alohida fikrlash lozim.



SOBIQ ITTIFOQ DAVRIDA O'ZBEKISTON MADANIYATI

Ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilari oldida turgan eng murakkab vazifalardan biri sobiq ittifoq tuzumi mazmun-mohiyatini ochib berish, o'sha davrda shakllangan va milliy madaniyatni yo'q qilishga qaratilgan g'ayrimilliy mexanizm holatiga baho berishdir.

Darhaqiqat, mamlakatimiz xalqlari tarixi, xususan, o'zbek xalqi tarixining har bir bosqichi o'ziga xos tarzda, bir tomonidan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarda misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etganligi, boshqa tomondan esa ushbu jabhalarda jiddiy yo'qotishlar bilan izohanadi. Bunday jiddiy o'zgarishlar, ayniqsa, Oktabr to'ntarishi tufayli juda keskinlashib ketdi. Oktabr to'ntarishi insoniyat taraqqiyotining qadimgi Sharq usulini sun'iy yo'llar bilan to'sib qo'ydi, uni ochiqdan-ochiq kamsitishlar tufayli deyarli to'xtatib qo'yildi. Ayni paytda Sharq yo'li o'zining jahon sivilizatsiyasida muhim o'rinn tutganligi, unda ijtimoiyadolat, siyosiy madaniyat, o'ziga xos demokratik tartib-qoidalari mavjudligi, ijtimoiy-madaniy hayotda milliy hamda umuminsoniy jihatlardagi mutanosiblikning bo'rtib turishi bilan ajralib turardi.

Ta'kidlash lozimki, Oktabr to'ntarishigacha bo'lган vaqt-dagi 50-yildan ortiq davom etgan chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri hozirgi O'zbekiston hududida ayniqsa madaniy-mafkuraviy jabhada juda keskin, bir-birini inkor etuvchi qator ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu holatlar mazmun-mohiyat jihatdan Oktabr to'ntarishidan so'ng bolsheviklar tomonidan O'zbekiston hududida amalga oshirilgan voqealar bilan ham hamohang edi. Boshqacha aytganda, 1917-yildan so'ng mamlakatimizda amalga oshirila boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-mafkuraviy voqealar Oktabr to'ntarishigacha ro'y bergan holatlarning bo'lak usullarda davom etishi edi.

O'qituvchi shu narsaga e'tibor berishi lozimki, Oktabr to'ntarishidan so'ng bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, ular siyosiy jabhada mustamlaka xalqlar, hududlardan o'z maqsadlari yo'llida foydalanishda davom etdilar. Ijtimoiy sohada o'zga xalqlarni aldash evaziga ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini pasaytirish, milliy o'zligini anglash jarayonlarini bo'g'ish davom etdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov mazkur masalaga e'tiborni qaratib, ittifoq davri tarixini o'rganish, uni sinchiklab tahlil etish, ilmiy xulosalar chiqarishdan ham muhimroq ish yo'q ekanligini qayd etadi. Shu o'rinda Yurtboshimizning quyidagi so'zlari e'tiborlidir: „**Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'limgan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bunday g'alamislarning orasida qanday qilib bo'lsa ham bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar yo'q, deysizmi? O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da'veoning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligidizning ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan tarixini yaratishdir**“¹.

Ko'tarilgan muammoni hal etishda yuqorida keltirilgan mulohazalar chuqur ilmiy-metodologik ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Sovet davrida yo'l qo'yilgan eng katta yo'qotish madaniyat, ma'naviyat sohasida yuz berdi. chor Rossiysi davrida „chekka o'lkalar“ga nisbatan madaniy sohada shakllangan mustamlakachilik munosabati va siyosati bu davrda yanada takomillashdi.

Shunday noxush holatlardan biri — Sharq xalqlari, xususan, o'zbek madaniyatining chuqur tarixiy ildizlarini inkor etish va o'z siyosiy nufuzlarini orttirish uchun mustamlakachilikka mahkum etilgan xalqlarni istilochilar yordamida jahon sivilizatsiyasi darajasigacha ko'tarishdek yolg'on bayroq ostiga toplash bo'ldi. Musulmon madaniyatining kamsitilishi, uning faqat bir tomonlama madaniyat ekanligini uqtirilishi ancha keyinchalik ham

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998-yil, 12-bet.

O'zbekistonda ijtimoiy fikr darajasigacha ko'tarildi. Siyosiy o'yinlar, aldashlar, ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri tazyiqlar milliy ziyoililar fikrlarining ham o'zgarishiga olib keldi.

Oktabr to'ntarishi hamda uning O'zbekistondagi aks sadolari ma'naviy madaniyat, uning uzoq asrlar davomida rivoj topgan jihatlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan bolsheviklar madaniyatda sinfiylik, g'oyaviylik tamoyillarini faol ravishda joriy etish natijasida butun ma'naviy-mafkuraviy sohada sovetlashtirish, siyosatlashtirish yo'lidan borgan bo'lsalar, bo'lak tomondan „proletkultchi“, „roppovichilar“ „yangicha“, „alohida“ madaniyat bayrog'i bilan maydonga chiqdilar.

Shu o'rinda proletkultchilar haqida ayrim mulohazalarni bildirish, xususan, ularning g'oyasi ayniqsa xatarli va xavfli ekanligini ta'kidlash lozim. Ular Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan barcha ma'naviyatni yo'q qilish, o'tmis madaniy merosiga biryoqlama „nigilik“ qarash g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Ularning asosiy g'oyasi va maqsadi esa „sof proletar madaniyati“ ni yaratish, ungacha mavjud bo'lgan madaniyatning barcha ko'rinishlarini inkor etish va ulardan voz kechishdan iborat edi.

1917-yildan keyingi davr ma'naviy buzilish, „yangi kommunistik ma'naviy qadriyatlarni“ ko'zlab ishlash davri bo'ldi. Bu hol, eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy sohaga siyosiy-mafkuraviy tus berishda o'z aksini topdi. San'atning butun qudrati, san'atkorlarning iste'dodi sotsializm g'alabasi va uning kelajagi uchun xizmat qilishi lozim edi. Badiiy asarlarning barchasi siyosiy-mafkuraviy tashviqotchilik sifatiga ega bo'ldi, bu narsa „inqilob“ning va istiqlolchilik harakatining borishida keng xalq ommasiga ta'sir ko'rsatish uchun ayniqsa zarur edi. Ikkinchidan, madaniyatdagi milliy an'analar o'rtasida uzilish ro'y berdi, izchillikka putur yetkazildi. Dastlabki vaqtarda o'zbek madaniyati rivojlanishida ma'lum ma'noda rus san'atkorlarining ta'siri bo'ldi. Ammo, zo'raki „xalqchilik“ sotsialistik realizmning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Bularning bari „soviet madaniyati“ haqidagi ta'rifga jamlandi, bu ta'rif „shaklan milliy, mazmunan sotsialistik“ degan ma'noga ega bo'ldi.

O'rganilayotgan davrda ma'naviy hayot bolshevikcha „yangi“ bilan mahalliy va milliy tarzdagи „eski“ o'rtasidagi beomon kurash asosida ro'y berdi. Chor hukumati siyosatiga monand

ravishda sobiq sovetlar amalga oshirgan madaniy siyosatning ustuvor yo'nalishi millat, milliy o'zligini anglashning muhim sharti bo'lgan madaniyatni yo'q qilish, ayniqsa uning milliy sifatlarini qo'porib tashlashga qaratilgan edi. Maqsadga erishish uchun sobiq ittifoq tuzumi o'rnatilgan dastlabki kunlardanoq bolsheviklar partiyasi yagona, tanho hukmron partiyaga aylanishni ta'minlash, bolshevizmga yot bo'lgan barcha nazariya va g'oyalarga qarshi kurashish, ularning ta'sirini yo'qotishga qaratilgan siyosatni olib berdi. Biroq, shu narsa ma'lumki, hali 20-yillarning boshlarida madaniyat va san'at sohasida, umuman barcha sohalarda nisbatan, ma'lum darajada bo'lsa-da, ijodiy erkinlik hukm surardi, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi esa endigina shakllanayotgan edi.

O'quvchilarning sobiq ittifoq tuzumi bo'yicha mukammal bilimi o'sha davrdagi „madaniy hayot“ to'g'risidagi tasavvurlari bilangina to'lishi mumkin. Shu ma'noda o'qituvchi sobiq ittifoq tuzumining Turkiston xalqlari savodsizligini tugatish, muktablar qurish, mutaxassis xodimlar tayyorlash, madaniyat, san'atni rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirlari, mahalliy millat manfaatlarni ko'zlab emas, balki madaniy-ma'rifiy vositalar asosida o'lka aholisini „kommunistik ruhda“ qayta tarbiyalash va sotsializmning „odobli“ mutaxassis kadrlari qilib yetishtirishga qaratilgan siyosatini to'g'ri tushuntirishi muhimdir. Maqsad barcha yoshdagي aholining savodsizligini tugatish bilan bir qatorda ularga yoppasiga „kommunizm alisbosi“ ni o'rgatishdan iborat edi. Shuning uchun ham savodsizlikni tugatish madaniy qurilishning muhim vazifasi sifatida qaraldi. 1921-yil noyabrda Turkiston ASSR XKK respublika aholisi orasida savodsizlikni tugatish to'g'risida dekret chiqardi. Unga binoan, sakkiz yoshdan qirq yoshgacha bo'lgan savodsiz fuqarolarning hammasi davlat maktablarida va savodsizlikni tugatish kurslarida o'qitilishi lozim edi. 1921-yilning oxirlarida birgina Toshkent shahrining o'zida 100 ta savodsizlikni tugatish maktablari ish boshladi. Ayni paytda Turkiston Respublikasi bo'yicha 100 dan ortiq savodsizlikni tugatish maktablari, turli to'garaklar faoliyat ko'rsatayotgan edi.¹

¹ Культурное строительство Туркестанской АССР: Сб. документов. Т., 1973-yil, 5-bet.

Turkistondagi oliy o'quv yurtlar xalq xo'jaligining turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda xalq maorifi maktablari uchun ham malakali pedagoglar tayyorlashga jalb qilingan edi. Shu maqsadda O'rta Osiyo davlat universiteti qoshida maxsus pedagogika fakulteti ochildi. Lekin bu fakultet bir yil ishlar-ishlamas yopib qo'yildi va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika instituti tashkil etilgunga qadar respublikada o'qituvchi kadrlarni tayyorlash mushkul muammolardan biri bo'lib qolaverdi. Yana muhim muammolardan biri shu ediki, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qabul qilingan yoshlarning aksariyati rusiyabon talabalar edi. Masalan, 1923—1924-o'quv yilida O'rta Osiyo davlat universitetiga o'qishga kirgan 2047 talabaladan faqat 51 nafargina mahalliy millat yoshlaridan edi, xolos.¹

O'tgan asrning 20—30-yillarida o'zbek madaniyati rivojida milliy adabiyotning o'rni va roli katta bo'ldi. Fitrat va Cho'lpon kabi erksevar adiblarning ijodiga tamg'alar qo'yila boshlandi, ularning sovet voqeligini tasdiqlovchi, ammo badiiy jihatdan sayoz asarlarigina e'lon qilindi. Partiya o'z e'tiborini adiblarning kommunistik ruhda shakllanishiga qaratdi. Shu maqsadda rus mumtoz va zamonaviy adabiyotning sobiq tuzumga mos asarlarinigina milliy tillarga tarjima qilish va ulardan o'rganish ishlari rag'batlantirildi. Shoir va yozuvchilarining o'z asarlarida Lenin va Stalin obrazlarini yaratishlariga alohida e'tibor qaratildi, communist obrazi o'zbek adabiyotining asosiy obraziga aylandi, o'zbek kishisi ongingin shakllanishi, albatta, ruslarining ishtiroti va ta'sirida ro'y berishi lozimligi adabiyot oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biri edi. Ana shu tarzda badiiy asar stereotipi paydo bo'ldi. Quruq sxemadan iborat, haqiqiy hayot nafasidan mahrum bo'lgan asarlar tinimsiz ravishda yaratilibgina qolmay, adabiyotning ulkan yutuqlari sifatida baholandi, mualliflari mu-kofotlandi.

Ushbu davr adabiyoti shubhasiz muayyan yutuqlarga ham erishdi. Avvalo shuni aytish lozimki, 30-yillarda tarjima badiiy ijodning muhim sohalaridan biri sifatida rivojlana boshladи. Rus va jahon adabiyotining ko'zga ko'ringan namunalari o'zbek tiliga

¹ O'z RMDA 60-fond, 1-ro'yxat, 3787-yig'ma jild, 9-varaq.

tinimsiz ravishda tarjima qilindi. Adabiy aloqalarning shunday shakllari ta'sirida o'zbek adabiyotida shu paytgacha mavjud bo'limgan roman, qissa, ballada singari yangi janrlar o'zbek yozuvchilar ijjodiga kirib keldi. Rus va jahon adabiyoti ta'sirida o'zbek adabiyotining realizmi kuchaydi.

A. Qodiriy „O'tgan kunlar“ romanidan keyin „Mehrobdan chayon“ asarini yozib, o'zbek romanchiligini jahon madaniyati darajasiga olib chiqdi. Ko'p o'tmay A.Qahhorning „Sarob“, Cho'lpionning „Kecha va kunduz“, Oybekning „Qutlug“ qon“, S.Ayniyning tarixiy va avtobiografik romanlari maydonga keldi. She'riy janrlarda Oybekning „Chimyon daftari“ turkumi va dostonlari, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Uyg'un, Mirtemir, Usmon Nosir va boshqa shoirlarning lirik hamda liro-epik asarlari yaratildi. Dramaturgiya asarlari orasida uzoq-yillar mobaynida tomoshabinlar e'tiborini qozonib kelgan Hamzaning „Burungi saylovlar yoxud Maysaraning ishi“, „Paranji sirlaridan bir lavha yohud Yallachilar ishi“, G'.Zafariyning „Halima“ singari pesalari paydo bo'ldi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillar O'zbekistonda avval „kommunizmga erishish“, so'ngra „rivojlangan sotsializm“ barpo etish davri bo'ldi. Bu davrda Moskva ideologlari tomonidan o'ylab topilgan soxta, hayoliy va noilmiy aqidalar girdobida butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, san'at o'ta siyosiyashgan holda rivojlanishga majbur qilindi. Shu bilan birga, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yagona sobiq „Sovet madaniyati“ yaratilganligining e'tirof etilishi sobiq ittifoqqa birlashtirilgan barcha xalqlar ma'naviyatining bundan keyingi yo'nalishini belgilab berdi.

50-yillarning o'talarida madaniy hayotda demokratiya, erkinlik uchun biroz bo'lsa-da imkoniyatlar yaratilganiga qaramasdan, keyinchalik, bunday shart-sharoit batamom tugatildi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning „rivoji“ maxsus qolipga solindi. Siyosiy o'lchovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiatga yaroqsiz shaxs sifatida „chetga surib“ qo'yildi.

Biroq, urushdan keyingi davrni butkul tushkunlik davri deyish ham xato bo'lardi. Chunki, bu davrda maskuraviy tazyiqlar, qolipa solishlar kuchaygan bo'lsa-da, madaniyat ma'lum darajada

rivojlandi. Bu yillarda amalga oshirilgan ijobiy ishlar omma orasida olib borilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'ta siyosatlashgan va sobiq tuzum uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, u baribir o'zbek xalqining shu davrdagi milliy madaniyati bo'lib qoldi, xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Xususan, bu maorif, oliv ta'lim muassasalariga tegishli edi. Maktablar, o'qituvchi, o'quvchilar soni muttasil ravishda ortib bordi, qator qarorlar, qonunlar qabul qilindi. Ammo, ularning natijasi, ish samarasini past edi.

Umumta'lim maktablarining faoliyati asosan „rivojlangan“ sotsializm g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish, ularni „kommunizm ruhida“ tarbiyalashdan iborat bo'ldi. „Kommunistik tarbiya“ dan ko'zlangan maqsad esa shu yoshlarni „proletar internationalizm“ga, sodiqlik, sinsiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Natijada o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analarga sodiqlik kayfiyatidan uzoqlashish hollari ro'y bera boshladи.

O'qituvchilarning vazifalaridan yana biri – sobiq ittifoq tuzumi davridagi adabiy-badiiy jarayonda sodir bo'lgan jiddiy kurashlar evolutsiyasini ochib berishdir. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan Oybek „Oltin vodiyyadan shabadalar“ romanini yozdi. Bu asar urush tufayli xo'jaligi izdan chiqqan kolxoz hayotining ayrim manzaralarini aks ettirdi. Ammo roman nashr etilar-etilmas, taniqli munaqqid V.Zohidovning „Sharq yulduzi“ jurnali (1950-yil 2-son) va „Qizil O'zbekiston“ (1950-yillari 10, 15, 17-dekabr sonlari) gazetasida tanqidiy maqolalari e'lon qilindi. Munaqqid o'sha davrning maskuraviy talablaridan kelib chiqqan holda asarda partyaning „dohiyona rahbarlik roli“ yetarli ko'rsatilmaganini, ilg'or qizlarning ozgina o'g'it uchun talashishlari tasvirlangan epizodda „real hayat qiyshiq oynada ko'rsatilgan“ligini qattiq tanqid qiladi.

O'sha kezlarda mamlakat bo'ylab yangi qatag'on pallasi boshlangan bo'lib, hukmron mafkura Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo singari yozuvchilarni „temir parda“ orqasiga tashlashga ulgurgan edi. Ana shunday sharoitda V.Zohidovning „Oltin vodiyyadan shabadalar“ romanini har tomonlama yaroqsizga chiqargan maqolalari Oybek taqdirida fojiali rol o'ynashi tabiiy edi.

Abdulla Qahhorning „Qo'shechinor chiroqlari”, Rahmat Fayziyning „Cho'lga bahor keldi”, Parda Tursunning „O'qituvchi”, Ibrohim Rahimning „Hayot buloqlari”, Oybekning „Nur qidirib” qissa va romanlari yaratilganini alohida qayd etish joizdir. To'g'ri, bu asarlarning birortasini „O'tgan kunlar” yoxud „Navoiy” romanlari bilan yonma-yon qo'yish mumkin emas. Amмо yaqin-yaqingacha o'zbek adabiyotining nochor sohasi bo'lib kelgan yirik nasrda miqdor o'zgarishlari bo'layotganligining o'ziyoq ijobiy hodisa edi.

Ushbu davrda siyosiy aqidaparastlikning avj olganligini ham qayd etish lozim. Bu yillar namoz o'qish, islom farzlariga rioya qilish, musulmonchilik ahkomlarini bajarishning barcha ko'rinishlari yana bir karra „eskilik sarqti” sifatida qaraldi. Bunday hol, ayniqsa 80-yillarning o'rtalarida yaqqol sezildi. Respublikaning yangi hukumati asosan „markaz”ning „ko'rsatmasi”ni to'xtatmasdan bajarish, uni hayotga tadbiq etish bilan shug'ullandi, xolos. Xalqning taqdiri, ijtimoiy-madaniy ahvoli o'sha davr rahbariyatini deyarli qiziqtirmadi. Bu yillarda respublikada ko'plab masjidlar, madrasalar yopib qo'yildi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimiyligi, islomgacha mavjud bo'lgan milliy-an'anaviy bayrami „Navro'z” ta'qib ostiga olindi. Go'yo, Navro'zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash boshlanganidan buyon respublikada „dinga ishonuvchilar soni ko'paygan“ emish.

Umuman, urushdan keyingi murakkab va o'ta ziddiyatlidagi yillarda o'zbek xalqi o'zligini, qadimiy milliy madaniyatini va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Lekin, bu oson kechmadi. Kommunistik mafkura mahalliy aholining milliy g'ururini sindirishga urindi. Xalqni milliy madaniyatdan, milliy an'analardan chalg'itish uchun „kommunizm”, „rivojlangan sotsializm” kabi xayoliy aqidalarni o'ylab topdi. Ularni xalq ommasi ongiga singdirish uchun barcha chorallardan, vosita va usullardan foydalanildi. Lekin, o'zbek xalqi bularning barchasiga chidadi. Chunki xalq ijtimoiy-siyosiy hayotda muqarrar o'zgarishlar sodir bo'lishiga ishonar edi.

Bunday ishonch ayniqsa 80-yillarнин о'ртalaridan kirib kelgan „qayta qurish” natijasida kuchaydi. Ta'kidlash lozimki, qayta qurish O'zbekistonda milliy madaniyatni, ayniqsa, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, xalqning o'zligini anglash jarayonini tezlashtirish yo'lida ma'lum qadam bo'ldi. Qayta qurish munosabati bilan madaniyatda milliylik tiklana boshladi, madaniy merosga

munosabat o'zgardi, ijtimoiy hayotda milliylik va baynalmilallik nisbatida qisman bo'lsa-daadolat tiklana bordi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun „qayta qurish“ ma'lum ma'noda uyg'onish va hur fikrlilik davri bo'lib xizmat qildi. Ilgari mumkin bo'Imagan mavzularni o'rganishga qisman bo'lsa-da imkon yaratildi. Falsafa, tarix, ayniqsa, vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyatiga, „Oq dog'lariga“ doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Jamiyat va shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarni hal etishga intilish yuzaga keldi.

„Qayta qurish“ yillarda o'zbek ziyolilarining sa'y-harakatlari bilan milliy-madaniy merosni tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarni himoya qilish, saqlash, O'zbekistondan olib chiqib ketilgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni qaytarish muhim masalalardan biriga aylandi. Shu ma'noda. 80-yillarning ikkinchi yarmidan O'zbekistonda „Meros“ dasturi amalga oshirila boshlandi. Bu harakat Respublika bo'ylab keng yoyildi. Jumladan, O'zbekiston tarixi va madaniyat yodgorliklarini saqlash Toshkent viloyati kengashi huzurida tuzilgan yangi tashkilot — „Bobur jamiyati“, 1989-yilda birinchi jamoat ekspeditsiyasi sifatida tashkil etilgan „Bobur yo'li“ ilmiy-ma'rifiy uyushmasi¹, ayni paytda Farg'onada faoliyat ko'rsatgan „Farg'ona madaniyatini tiklash“, Toshkent shahridagi 254-o'rta mакtabda vujudga kelgan „Madaniy merosga ixlos“ markazlari xalqimizda, ayniqsa yoshlarda milliy g'urur ruhida, faxr-iftixor, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishda muhim rol o'ynadi².

Ma'lumki, sobiq sovet davlati o'z tarixining dastlabki davridan boshlab uzlusiz ravishda milliy kadrlar, olimlar, adabiyot va san'at arboblari safini „tozalab kelgan“. Ana shunday „tozalash“ jarayoni natijasida A. Qodiriy, Cho'Ipon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir singari qatag'on qurbanlarigina emas, balki o'z ajallari bilan vafot etgan M.Behbudiy, A.Avloniy singari o'nlab yozuvchilar ham „Xalq dushmani“ deb e'lon qilindi va ular adabiyotimiz tarixidan sun'iy ravishda chiqarib tashlandi.

¹ Toshkent haqiqati gazetasi, 1990-yil, 19-dekabr.

² Yosh leninchi gazetasi, 1991-yil, 17 pap.

„Qayta qurish“ va „Oshkoraliq“ davrida o‘zbek adabiyoti erishgan eng salmoqli yutuqlardan biri nomlari yuqorida qayd etilgan ana shu jabrdiyda yozuvchilar nomining, ijodining qayta baholanishi bo‘ldi. Ularning „Oqlanishi“ bilan adabiyotimiz yanada boyidi. Shu tarzda M. Behbudiy, A. Avloniy, A. Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir singari yozuvchi, shoirlarimizning asarlari va ular to‘g‘risidagi maqolalar muntazam ravishda e‘lon qilib borildi. Shu tariqa bu davrda o‘zbek adabiyoti yangi izga tushib, hayot haqiqatini tasvirlash, yaqin va olis o‘tmishni Markscha-leninchalik dogmalardan xoli aks ettirish yo‘lidan rivojlana boshladi. Ayni paytda u o‘zining jangovar ruhini tiklab, jamiyat va xalq hayotining passiv kuzatuvchisidan faol ishtirokchisiga aylana bordi.

Biroq, „qayta qurish“ o‘zbek xalqi milliy madaniyatini rivojlantirishni, uni haqiqiy xalq madaniyatiga aylantirishni bosh maqsad qilib qo‘ymagandi. Madaniyatdagi „qayta qurish“ hukmron masdkuraning o‘z siyosiy barqarorligini tiklash yo‘lidagi navbatdagi urinish edi, xolos. Uning maqsadi madaniyatda shakllanib bo‘lgan sun‘iy sekinlashtirish mexanizmining „ko‘zga tashlanib“ turgan ayrim „qusurlari“ni yengil ta‘mirlashdan boshqa narsa emas edi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, sobiq ittifoq davrida „**o‘z ona tilini, milliy an’ana va madaniyatini, o‘z tarixini bilmaslik ko‘plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi**“¹.



¹ Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1995-yil, 5-bet.



MUSTAQILLIK SHAROITIDA O'ZBEKISTON MA'NAVİY HAYOTINING O'ZİGA XOS XUSUSIYATLARI

XX asrning 90-yillarida O'zbekiston ma'naviy-madaniy hayotida misli ko'rilmagan katta o'zgarishlar yuz berdi. 130 yilga yaqin davom etgan chor Rossiysi mustamlakachiligi va bolshevistik-kommunistik mafkura yakkahokimligiga mamlakatimizning mustaqillikka erishilganligining e'lon qilinishi bilan barham berildi.

Alovida ta'kidlash lozimki, mustaqillik eng avvalo xalqimizning qo'lidagi siyosiy kishanlarni yechib tashladi. Ma'naviy-ma'rify sohadagi qullik, o'z madaniy siyosatini o'zi belgilashi huquqidan mahrum bo'lish, qaysi xalq millat bo'lishidan qat'iy nazar uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyotiga to'siqdir. „**Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar**, — degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, — **o'z yo'liga. Ularni hal etish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar — qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, otabobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish — bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda“.¹**

Darhaqiqat, shunday. Ma'naviyat, ma'rifat sohasini rivojlantirmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin emasdi. Shuning uchun O'zbekiston hukumati istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mazkur masalaga e'tiborni kuchaytirdi. O'zbekiston jamiyatida ma'naviy sohadagi islohotlarni amalga oshirish uchun eng avvalo sobiq ittifoq tuzumiga xos bo'lgan siyosiy-mafkuraviy yakkahokimlikdan halos bo'lish, ma'naviyatni rivojlantirishning yangi nazariy asoslarini ishlab chiqish, madaniyat taraqqiyotini belgilashga yordam beruvchi huquqiy asoslarni yaratish lozim edi.

Shu o'rinda o'qituvchi madaniyat va boshqaruvi masalalariga, ma'naviy hayotda ma'muriy buyruqbozlik tizimini daf etishga

¹ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. I-j. T., 1996-yil, 202-bet.

qaratilgan huquqiy muammolarga e'tiborni qaratishi lozim. Haqiqatdan hukumatimiz istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yuqoridagi vazifalarni bajarishga kirishdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida „**Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi**“, deyiladi.¹ Ushbu modda O'zbekiston madaniyati ustidan davlat g'amxo'rligini o'rnatdi. Natijada, ma'naviy omillarning siyosiyashuvi, g'arbg'a qullik, madaniyatning tijoratlashuvi kabi salbiy hollarning oldi olindi.

Ayni paytda Prezident, hukumat madaniyatni boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor bera boshladi. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi to'g'risida Nizom“ (1992-y. 30-iyun) alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda vazirlikning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish hamda ish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Shuningdek, Prezidentning „O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida“gi (1995-yil 25 oktabr), „Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida“gi (1996-yil 31-dekabr), „O'zbekistonda milliy raqs, xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida“gi (1997-yil 8-yanvar), „O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida“gi (1998-yil 26-mart) Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining „O'zbekistonda milliy raqs, xoreografiya san'atini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi (1997-yil 21 fevral), „O'zbekteatr“ ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida“gi (1998-yil 22-may), „O'zbeknavo“ gastrol-konsert birlashmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida“gi (1999-yil 4-may), „Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida“gi (2001-yil 26-iyun) qarorlari Respublika ma'naviy hayotida chuqur sifat o'zgarishlari va jiddiy islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarda ma'naviy sohalardagi islohotlar sobiq kommunistik metodologiyadan voz kechish asosidagina ro'y berishi mumkin edi. Ma'lumki, sobiq

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2001-yil, 13-bet.

metodologiyaning asosini madaniy sohaga „partiyaviy-sinsfiy“ asnoda baho berish tashkil etardi.

Mustaqillik sharoitida ushbu masalaga munosabat tubdan o'zgardi. Komplekslilik, ilmiylik, tarixiylik, insoniylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, sistemalilik kabi sifat jihatdan yangi, milliy istiqlol g'oyalari manfaatlariga mos madaniyatga rahbarlik qilish va boshqarishning tamoyillari ishlab chiqildi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilishi, madaniyatning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohadagi barcha muammolarni hal etishdagi roli va o'rnining ortib borishi, milliy madaniyatning milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkura bilan uyg'unligi kabi masalalar istiqlol davri adabiy-badiiy, ma'naviy-madaniy hayotida sifat jihatdan yangilanish, poklanish va barqarorlashuvning boshlanganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, Prezident I.A.Karimovning „**jamiyat taraqqiyotining asosi uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifa fatdir**“¹, deb ta'kidlashi bu boradagi islohotlarning to'g'rilingiga va davomiyligiga ishora edi. Prezident tomonidan imzolangan „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida“gi (1996-yil 9-sentabr) Farmon esa mazkur sohanasi rivojlantirish davlat siyosatining bosh maqsadi ekanligidan darak berardi.

Ma'naviy sohadagi islohotlar bir tomonidan uzoq yillar davomida shakllangan eski boshqaruv tizimini yangilagan bo'lsa, boshqa tomonidan unga mutanosib ravishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jabhalarida barqarorlashuv jarayonlarini sodir etdi. Bunday holat esa umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik tufayli amalga oshirildi. Madaniyat va san'at sohasidagi bo'lg'usi mutaxassislar o'zları tanlagan kasbiy mutaxassisligiga ega bo'lishi bilan birga, o'z navbatida chuqur ma'naviy-ma'rifiy bilimga ega bo'lishi lozim. Shu ma'noda professor-o'qituvchilar madaniyat va san'at bilim dargohlari o'quvchilariga mustaqillik davrida milliy madaniy merosni tiklash borasidagi umummilliy jarayon to'g'risida mukammal bilim berishlari lozim.

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998-yil, 7-bet.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining boy ma'naviy merosini tiklash, mustahkamlash borasida juda katta ishlar bajarildi. Ijtimoiy jarayonlar boy va ko'hna tariximizda o'tgan buyuk alloma, mutafakkirlar shaxsiga nisbatan munosabatlarni o'zgartirib yubordi. Tarixiy jarayon, unda o'tgan buyuk shaxslarga baho berishda haqqoniylik, tarixiylik, ilmiylik, xolislikdan iborat yangi metodologik nazariyaga asos solindi. Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Forobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlarning asarlari nashr etila boshlandi. Abduholiq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'iloniylarning ruhi shod etildi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan siymolarimiz nomi, hurmati joyiga qo'yildi. YUNESKO qaroriga binoan 1994-yilda Parij, Istambul, Karachida buyuk falakiyot olimi M.Ulug'bek tavalludining 600 yillik yubileyi bayram qilindi. She'riyat sultonii A.Navoiyning 1991-yilda 550, 2001-yilda 560-yillik to'yini nishonlash, 1992-yildan an'anaviy mashrabxonlik kunlarining o'tkazilishi mamlakat ma'naviy hayotida katta voqeа bo'ldi.

Din va diniy qadriyatlarga munosabatimiz o'zgara boshladи. Prezidentning „Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to'g'risida“gi (1990-yil 2-iyun), „O'zbekiston Respublikasining „Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha komitet tashkil qilish to'g'risida“gi (1992-yil 7-mart), „Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida“gi (1992-yil 27-mart) Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida“gi (1998-yil) qonuni, 1995-yilda Toshkentda Xalqaro islam tadqiqot markazi, Toshkent Islom universitetining tashkil topishini milliy madaniy sohadagi chuqur islohotlar natijasi sifatida baholash mumkin.

Istiqlol yillarda mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash, ulardan ma'naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda ham katta ishlar bajarildi. Bu davrda mamlakatimizda 10 mingga yaqin shunday yodgorliklar bo'lib, ulardan 7 mingga yaqini Davlat muhofazasiga olindi. O'zbekiston Respublikasining madaniy merojni muhofaza qilish bo'yicha qonuni, „Meros“ umummamamlakat dasturi, „O'zbekistonda madaniy merojni saqlash va undan foydalanishning 2000-yilgacha bo'lgan davrdagi asosiy yo'naliishlari“ kabi muhim hujjalalar bu sohada jiddiy islohotlarni amalga oshirishga imkon berdi. Shuningdek,

yodgorliklarni ilmiy o'rganish sohasida YUNESKO ekspertlari bilan hamkorlikda „O'zbekiston madaniy merosini tiklash va uni mo'tadil rivojlantirish“ dasturi doirasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Bu borada Shahrisabz, Xiva, Buxoro, Toshkent, Marg'ilon, Samarqand kabi ko'hna shaharlarda olib borilgan ishlar ayniqsa diqqatga sazovor bo'ldi. Jumladan, Samarqanddagi Registon, Go'ri Amir majmualari, Bibixonim masjidida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, arki Derut-tilovat, Dasus-Saodat majmularida, Qarshidagi Ko'k Gumbaz masjidi, Qilichboy madrasalari har jihatdan yangilandi. Ta'mirlash ishlari uchun ajratilgan pul mablag'larining miqdori ham ortib bordi. Agar, 1998-yilda bu maqsadlar uchun 650 mln., 1999-yilda 700 mln. so'm sarflangan bo'lsa, 2000-yilda esa bu raqam 750 mln. so'mga yetdi.¹ O'zbekiston ma'naviy hayotini barqarorlashtirishda Madaniyat ishlari vazirligining loyihalash ilmiytadqiqot instituti, 3 ta muzey-zapovednik, Respublika me'moriybadiiy ustaxona, 11 ta ilmiy-ta'mirlash ishlab chiqarish bo'linmalari, Respublika skulptur kombinati va 58 muzeylari ham faol xizmat qildilar.

Mazkur davrda bozor munosabatlari, tabiiy iqtisodiy qiyinchiliklar, o'tish davri xususiyatlariiga qaramasdan madaniyat muassasalarini saqlab qolish, ularning tijoratlashuvining oldini olish, teatr, muzeylar, ta'lif muassasalarini, madaniy-ma'rifiy muassasalar tarmog'ini kengaytirish borasida talay ishlar qilindi. 90-yillarning oxirlarida O'zbekistonda 9538 ta madaniyat muassasalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularning 53 tasi teatr-konsert,² 3458 tasi madaniy-ma'rifiy muassasalar, 27 o'quv yurtlari edi.² Ushbu muammolarni yuqori malakali mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash ishlariaga ham alohida e'tibor berildi. Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriysi, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at instituti, Milliy raqs va xoreografiya oliy muktabi, 23 ta o'rta maxsus bilim yurtlari ko'plab yuqori malakali xodimlarni tayyorladilar.³ Konservatoriyaning jahon andozalariga javob beradigan mahobatli binosi qurib ishga tushirildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligining joriy arxivi. O'zistiqbol statistika qo'mitasi hisoboti. 6-bet.

² O'zR MDA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 47-varaq.

³ O'sha yerda. 367-ish, 60-varaq.

Eng ommaviy madaniyat maskanlari sifatida madaniyma'rifiy muassasalar faoliyati ham takomillashib bordi. 1999-yilda Respublika bo'yicha 2600 ga yaqin klub muassasalari ish olib bordi. Ulardagi 13599 havaskorlik badiiy jamoalarida 215156 nafar iqtidorli yoshlar o'z mahoratlarini oshirdilar.¹ Shu bilan birga Madaniyat ishlari vazirligi, Xalq ijodiyoti va madaniyma'rifiy ishlar respublika ilmiy-uslubiyat markazi tomonidan aholiga madaniy xizmat ko'rsatish faoliyatini boshqarish uslubining yangi modelini aks ettiruvchi „Qishloq madaniyat markazi Nizomi“ ishlab chiqildi. Bu narsa, ayniqsa, Andijon viloyatida yuksak samara berdi.²

O'zbekiston ma'naviy hayotida teatr san'atining o'rni va roli benihoya katta. Istiqlol yillarida o'zbek teatrining ijtimoiyma'naviy qiyofasi tubdan o'zgardi. Agar sobiq ittifoq tuzumi davrida O'zbekiston teatrlari asosan sobiq kommunistik maskura targ'ibotchisi sifatida ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, endi u fuqaro va jamiyat ijtimoiyma'naviy qiziqishlarini ta'minlaydigan ma'rifiy maskanga aylandi. Teatrlarning o'zbek milliy madaniyati, tarixi, milliy an'analar, buyuk shaxslar faoliyatiga doir asarlar soni ko'paya bordi. 90-yillarda Respublikadagi 34 ta teatr eng avvalo o'zining repertuar, tomoshabin, dramaturgiya muammolarini hal qila oldilar. Birgina 1995-1997-yillarda 313 yangi sahna asarlari paydo bo'ldi.³

O'zbek milliy akademik teatri, A.Hidoyatov nomli teatr, A.Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on teatri, Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatrlarida Amir Temur, al-Farg'oniy, al-Buxoriy kabi buyuk siymolar haqidagi ko'hna sahna asarlari yaratildi.⁴ 90-yillarda mamlakatimizda teatr san'atini rivojlantirishning yangi shakli sifatida turli respublika, mintaqaviy, xalqaro teatr festivallarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. „Navro'z-92“ mintaqaviy, „Teatr: Sharq-G'arb-93“; „Xumo-98“ kabi xalqaro, shuningdek, „Qo'g'irchoq teatrlari-95“ festivallari ham madaniy hayotda katta voqeя bo'ldi.

¹ Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining 1998–1999-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari. T., 1999-yil, 8-bet.

² Andijonnoma. 1993-yil, 14-sentabr.

³ Abdurahimov B. Художественная культура Узбекистана XX век. T., 2000-yil, 131-bet.

⁴ O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1992-yil, 24-yanvar.

Ma'lumki, 1998-yilda Madaniyat ishlari vazirligining teatr tashkilotlari, Respublika Teatr arboblari uyushmasi negizida Madaniyat ishlari vazirligi tizimida „O'zbek teatr“ ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi. Bunday hol o'zbek va boshqa xalqlar milliy teatrlari ishining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday ijodiy o'zgarishlar musiqiy-qo'shiqchilik sohasida ham amalga oshirildi. Mamlakat hukumati ushbu san'at sohasini ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan doimo qo'llab quvvatlab turdi. Xalqimizning qo'shiq san'atiga qiziqishini e'tiborga olgan holda 1996-yil 27-avgustda Prezidentning „O'zbekiston – Vatanim manim“ qo'shiq bayrami haqidagi maxsus farmoni chiqarildi. Farmonga binoan har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi „O'zbekiston – Vatanim manim“ qo'shiq bayrami kuni, deb e'lon qilindi. Birgina shu yilning o'zida 4269 yangi qo'shiqlar, kuylar yaratildi¹. Bularning barisi ushbu san'at sohasining ommaviy়lashib borayotganligidan darak beradi.

Shuningdek, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida ham talay ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2000-yil „Nihol“ mukofoti ta'sis etildi. „Nihol – 2000“ mukofotiga tavsiya etilgan 36 nomzod ijodiy faoliyati maxsus kengash tomonidan o'rGANILDID. Sevara Nazarxon, Tohir Sodiqov, Izzatilla Ibrohimov, Abdulaziz Karim, „Setora“ guruhi, Nilufar Rahmatova, Dilfuza Rahimova larga „Nihol – 2000“ mukofoti berildi. Shuningdek, 2000-yili yozuvchilar va bastakorlar uyushmalari, „O'zbeknovo“ gastrol-konsert birlashmasi, ommaviy axborot vositalarining demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jami-g'armasi, „Tasviriy oyina“ ijodiy uyushmasi, „Ofarin“ – yilning eng yaxshi ijodkori tanlovin o'tkazishga qaror qildilar. Bunday tanlov an'anaviy bo'lib qoldi.

Mamlakat ma'naviy hayotida ta'lim tizimidagi islohotlarning o'rni alohidadir. 1992-yil 2-iyulda Oliy Kengash qaroriga binoan „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun qabul qilingan edi. Ammo bunday qonun konseptual asnoda o'z takomilidan yiroq edi. Unda xalqimiz

¹ O'zR MDA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 367-ish. V. 93.

mentaliteti, jahon andozalari, o'tish davri xususiyatlari yetarli ravishda e'tiborga olinmagan edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagisi IX sessiyasida „Ta'lif to'g'risida“ gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. 5 mln.dan ortiq o'quvchi ta'lif oladigan 9000 dan ortiq umumiy o'rta ta'lif, 258 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlari, 68 oliy o'quv yurtlarida ta'lif islohotlari amalga oshirilmoqda. 2000-yil iyul oyida davlat ta'lif standartlari joriy etildi. Bakalavriat yo'nalishida 250 ta yo'nalish sinab ko'rildi.

Oliy ta'lif xalqaro talablarga javob bera boshladi. Faqat istiqlol-yillarida 100 mingdan ortiq mutaxassislar tayyorlandi. Oliy ta'lif tizimida 25 mingdan ko'proq professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar¹.

Istiqlol yillarida me'morlik, tasviriy, amaliy san'at ham rivoj topdi. Haykaltaroshlik, dastgohli rang tasvir, dizayn, badiiy matolar, grafika, mahobatli rang tasvir, ganjkorlik san'atida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi yaqqol sezilmoqda. Bunday hol televideniye, radio, badiiy kino, sirk va boshqa san'at turlarida ham o'z aksini topdi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida bozor munosabatlarning tabiiy qiyinchiliklari, o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlariga qaramasdan mamlakatimizda madaniy islohotlar borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Biroq, bajarilishi kerak bo'lgan ishlar hali juda ko'p. Madaniyat maskanlari tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlar samaradorligini oshirish, ma'naviy hayotni demokratlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, san'atkorlar ijtimoiy obro'yini oshirish hozirgi kundagi muhim masaladir. Mamlakatimiz hukumati tomonidan olib borilayotgan jiddiy madaniy siyosat, shubhasiz, yuqoridaqgi vazifalarni hal etish imkonini beradi.

¹ Gafarali M.S., Kasayev A.Ch. Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik asosi. T., 2001-yil, 400—401-betlar.

QADIMGI MISR MADANIYATI

Misr jahon madaniyatining eng qadimiy o'choqlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda eramizdan avvalgi o'ninchi –oltinchi ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar temirchilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanib kelishgan.

Misr, shuningdek, qadimgi davlatchilik tarixiga ega bo'lgan davlatlarning eng oldingi safida turadi. Avval, bu yerda, shimolda Quyi Misr, janubda yuqori Misr podsholiklari paydo bo'lgan. Eramizdan avvalgi 3 ming yillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan.

Qadimgi misrliklarning diniy qarashlari asosan totemistik, tabiat hodisalari va podsholarni ilohiyashtirish, ruhoniylar qudratiga e'tiqod qilish tarzida shakllangan. Ayniqsa, Urug' – qabilachilik urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan diniy e'tiqodlar uzoq davrlargacha saqlanib qolgan.

Misrda ayniqsa miflar juda mashhur bo'lgan. Ular orasida dunyoni yaratilishi, insonlarni qilgan gunohlari uchun jazolash, quyosh xodosi Ra bilan Apop obrazidagi zulmat kuchlarini o'rtasidagi kurash, Osirisining o'limi va qayta tirilishi va boshqalar markaziy o'rinni egallaydi.

Shuni anglash lozimki, Misrda diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan. Kishilar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagach, turli xil tabiat kuchlarini o'zida ifodalovchi ma'budalarga sig'inish kuchaygan. Ayniqsa, Osmon (Nut), Yer (Geb), Quyosh (Ra), Oy (Tot) va boshqa ma'budalarga sig'inish o'sha davr Misr mifologiyasida alohida ahamiyat kasb etgan.

Ushbu mamlakat aholisi tilida yozilgan eng qadimiy yodgorliklar eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikka, so'nggilari eramizning boshlariga tegishlidir. Misr adabiyoti namunalari bizgacha ko'plab ieroglif, ieratik va demotik matnlarda yetib kelgan. Ta'kidlash lozimki, Misr adabiyoti dunyodagi eng qadimgi

adabiyotlardan biridir. Uning asosiy janrlari ertaklar, qissalar, madhiyałar, duolar, didaktik asarlar, masallar, dostonlar, sevgi lirikasi va boshqalardan iboratdir.

Qadimgi misr madaniyati deganda eng avvalo bizning ko'z oldimizga uning me'moriy, tasviriy, amaliy-bezak san'ati kelishi tayin.

Uqtirish lozimki, qadimgi Misr me'morchiligi va tasviriy san'ati ibtidoiy jamoa tuzumining va ilk podsholikning vujudga kelishi bilan uyg'un holda taraqqiy eta boshlagan. Eramizdan avvalgi 1587-1071-yillarda yirik ustunli va mahobatli ibodatxonalar qurish an'anaga aylangan. Masalan, shu davrda Luksar, Karnak ibodatxonalar qurildi.

Ibodatxonaga kirish joyining o'zi o'ta odmi bo'lgan. Ibodatxonalar ro'parasida qudrat va donishmandlik ramzi hisoblangan sfinkslar xiyoboni joy olgan. Ibodatxonalarning devorlariga turli rang bilan ishlangan suratlar va Ieroglif (tasvirli yozuv) lar solingan.

Qadimgi Misr ehromlaridan birinchisini III dinastiya sulolaning fir'avni Joser o'zi uchun qurdirgan. Joser piramidasining qurilishiga astronom, tabib, donishmand va me'mor imxotep boshchilik qilgan. Mazkur piramida milloddan avvalgi 2780-yilda barpo etilgan bo'lib, u zinapoya shaklida yuqoriga ko'tarilib borgan. Piramidaning balandligi 60 metrlar chamasi bo'lgan. Uning atrofiga turli xil marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan qo'shimcha binolar qurilgan. IV suloladan boshlab qadimgi Misrda piramidalar va maqbaralar qurish odat tusiga kirgan. Sulolaning Xufu (Xeops), Xafra (Xafren) va Minkaura (Mikeren) kabi fir'avnlari ulkan piramidalar qurdirganlar. Xufu (Xeops) piramidasi eng katta piramida bo'-lib, yunonlar mazkur piramidani yetti iqlimning yetti mo'jiszasiga kiritganlar. Xufu piramidasi eng ulkan va mustahkam inshoot bo'lib, uning qurilishiga har birining og'irligi 2,5 tonnadan iborat 2,3 million dona ohaktosh bloklari ishlatilgan. Piramidaning ichki qismida bir-birini bog'lagan chalkash yo'llar bo'lib, ularning bирgina shoh jasadi qo'yilgan xonaga olib borgan. Jasad qo'yilgan xona piramidaning o'rta qismida joylashgan. Xona har birining og'irligi 60 tonnadan iborat granit bloklardan qurilgan. Piramidaning balandligi 147 metr. Pastki

qismining har bir tomoni 137 metrni tashkil etadi. Mazkur piramida 20 yil mobaynida qurilgan.¹

Suloladan boshlab hajmi uncha katta bo'limgan piramidalar qurila boshlashgan. Lekin asosiy e'tibor piramida majmuyini tashkil etuvchi ibodatxonalarga qaratilgan. Umuman Misrda 70 dan ortiq piramidalar qurilgan.

Aytish o'rinniki. Qadimgi Misrda amaliy-bezak san'ati yuksak darajada taraqqiy etgan. Bunga bizgacha saqlanib qolgan shifer, ganch, billurdan ishlangan idishlar, fil suyagi va yog'ochdan ya-salgan qoshiqchalar, tilla baldoq, uzuk, munchoqlar, qimmatbaho toshlar qadab, o'yma naqsh, tasvir ishlangan qutichalar, badiiy mebel va boshqalar guvohlik berishi mumkin.

Bizga ma'lumki, Misr Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olingan. Natijada mamlakat ellistik madaniyat, keyinchalik qadimiylar Rim madaniyati ta'siriga tushib qolgan. Qadimgi Misr IV asr oxirlaridan Vizantiya hukmronligi ostiga o'tishi Bilan bu yerda xristian san'atining o'ziga xos mahalliy ko'rinishi shakkllangan. Mamlakatni arablar fath etgach, Misr arab madaniyati tarqalgan viloyatlardan biriga aylangan.

Qadimgi Misrda musiqa san'ati ham juda taraqqiy etgan edi. Bizgacha yetib kelgan musiqa madaniyatining ilk moddiy yodgorliklari eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikka mansub. Bular turli musiqa asboblar — shiqaldoq, tartarak, chig'anoqlardan yasalgan hushtaklardir.

Maqbaralar devorlariga ishlangan bareleflar maishiy tur-mushda musiqa keng tarqalganiga guvohlik beradi. Ommaviy bayramlar, diniy marosimlar, mehnat jarayonlari musiqasiz, raqsiz o'tmagan.

Misrda bir ovozli musiqa rivoj topgan. Yangi podsholik davrida ko'p ovozli musiqaning sodda shakllari ham paydo bo'la boshladni. Raqlar, sahma tomoshalari, badiiy adabiyot musiqa bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Arfa, nay yog'och va jez karnay, argan, urma musiqa asboblari keng tarqalgan. Qadimgi Misrda musiqa ijrochilar — professional musiqachi-shoirlar mo'tabar zot sanalib, fir'avnlarga qarindosh deb hisoblangan. Ellin va Rim davrida Misrda

¹ Salohiddinov X. Fir'avnlar mamlakati. T., 1992-yil, 14-bet.

musiqa o'ziga xosligini saqlab qolgan. Rim hukmronligi barham topgach, turk, arab va boshqa xalqlar musiqa madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Qadimgi Misrliklar matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot va geografiya fanlarining rivojiga ham o'z hissalarini qo'shganlar. Misrlik olimlar murakkab matematik masalalarni yechib, kesik piramida yuzasi va aylanmaning diametriga nisbatini aniq hisoblab chiqqanlar.

Xullas, Misr madaniyati uzoq davr davomida muttasil rivojlanib keldi. Uning umumjahon madaniyati va sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni juda katta. Qadimgi misrliklarning yuksak did va aql-farosat natijasida bunyod etilgan moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari antik davr yunon Rim va shimoliy Afrika xalqlarining madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.



HINDISTON MADANIYATI

Hindiston insoniyat sivilizatsiyasining ko'hma o'choqlaridan biri hisoblanadi. Uning hududi o'zining iqlimi, tabiiy boyliklari bilan inson yashashi, ijod qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Hind, Ganga va Braxmalutra daryolaridan suv ichgan Hindiston diyori qadimdan dehqonchilik rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Arxeologik, antropologik ma'lumotlarga ko'ra Hindiston hududida taxminan bir million yillar avval ham odamlar yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Hindistonning etnolingvistik tarkibi xilma-xildir. Taxminlarga ko'ra, dastlabki davrlarda munda va drovid tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar istiqomat qilganlar va qadimgi hind madaniyatiga asos solganlar. Miloddan avvalgi II ming yilliklarga kelib Eron va Markaziy Osiyo tomonidan yevropeoid irqining janubiy tarmog'iga kiruvchi qabilalar kirib keldilar va mahalliy etnik birliklar bilan aralashib ketadilar. Ayrim ma'lumotlarga qara-ganda, Hindistonda bir yarim mingdan oshiqroq til va shevalar mavjud.

Mamlakat hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar qadimiy madaniyat mil.avv. III ming yillardayoq paydo bo'lganligini aniqlab bergen. Mohinjodaro va Harrapa qazishmalari esa miloddan avvalgi III va II ming yilliklar oralig'ida shahar madaniyati tarkib topganligini ko'rsatadi.

Hindiston madaniyatida hind adabiyotining o'rni va roli benihoyadir. Ushbu adabiyotning 3 ming yildan ko'proq davom etib kelayotgan an'anasi mavjud. Ular vedalar-sanskrit tilidagi diniy-marosimiy gimnlardan boshlangan. Hindiston madaniyati, jumladan, adabiy-badiiy merosi „Mahabxarata“ va „Ramayana“ kabi salmoqli etnik dostonlar asosida shakllangan. „Panchatantra“, „Xitopadesha“, „Vatalapanchavinshati“, „Shuksantati“ kabi qadimiy hind ertaklari to'plami mahalliy aholi madaniyatining tarkib topishida alohida o'ringa ega. Hindiston madaniyati, chunonchi, hind adabiyoti doimiy ravishda rivojlanib

borganligini ko'rish mumkin. Taxminan VII asrdan boshlab o'rta asrlar adabiyotining tarixi boshlanadi. Sanskrit va tamil tilidagi adabiyot bilan bir qatorda boshqa tillarda ham adabiyot vujudga kela boshladi.

Shuni aytish kerakki, Ushbu yangi hind adabiyoti dravid va yangi hind – yeriya tillarida birinchi ming yillik oxiridan rivojlna boshladi. Keyinroq esa Kashmir va Sindh adabiyoti , shuningdek, pushtu tilidagi adabiyot shakllana boshladi.

Dunyo sivilizatsiyasida Musulmon madaniyatining paydo bo'lishi Hindistonda fors tilidagi adabiyotning yuzaga kelishiga imkon yaratdi. Bundan adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari sifatida Xusrav Dehlaviy va Mirzo Bedillar maydonga chiqdilar. Mir Taqiy, Mirzo G'olib va boshqalar esa urdu she'riyatining eng yaxshi namunalarini yaratdilar.

Hindiston adabiy-badiiy muhitida ma'rifatparvarlik davri alohida ahamiyatga ega. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan milliy-ozodlik harakati ana shunday adabiyotning yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratdi. Dinobandxu Mitro, Premchand Mitro, Bonkimchandro Chaddokadhay kabilar bunday adabiyotning taniqli namoyondalari edilar.

Hindiston milliy madaniyatida milliy me'morchilik san'ati alohida o'rin egallaydi. Xo'jalik, mudofaa, hayot uchun zaruriy inshootlar tarzida vujudga kela boshlagan qurilish—me'morchilik usuli keyinchalik yuksak ma'naviy-falsafiy va axloqiy-insoni tuyg'ularni o'zida mujassam etgan madaniyat darajasiga ko'tarildi.

Sangxol, Lathal, Mathura, Pataliputra kabi shaharlarda miloddan avvalgi 3—1 ming yillardayooq milliy me'morchilikning yorqin ko'rinishlari shakllana boshlagan edi. Miloddan avvalgi IV—II asrlarda Pataliputradagi podsho Ashaka saroyida ulkan qal'alar, diniy ashyolarga mo'ljallangan inshoot-stupalar, memorial ustun (stambxa)lar, g'or ibodatxonalarini va monastirlar, ehromlar qurila boshlandi.

Hindiston madaniyatida budda yodgorliklari alohida ahamiyatga ega. Milod boshlarida Buddha ibodatxonalarining yangi turlari (Sangida yer ustiga qurilgan to'rt kolonnali peshayvondan iborat kub shaklidagi ibodatxona, Ellorda yaxlit qoyatoshni o'yib ishlangan ibodatxona) paydo bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Hindiston me'morchiligidagi Boburiylar davri alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda shahar va qal'a qurilishi san'atining ajoyib namunalari yaratildi. Ayniqsa, Agra, Ajmer, Olohaboddagi qal'alar, „Fatehpur-Sekri“ shahar –qal'asi (1569–1584), Qubbasimon maqbaralar (Dehlidagi Xumoyun maqbarasi, 1565). Agra shahri yaqinidagi Tojmahal majmualari qurilishi jahon me'morchiligidagi noyob hodisalardir.

Umuman, Hindiston me'morchiligidagi mahalliy va baynalmilal madaniyatning ustunligini ko'rish mumkin. Masalan, Boburiylar davri, ingliz mustamlakachiligi, so'ngra, Yevropa madaniyatining kirib kelishi Hindiston milliy me'morchiligidagi yangi usullarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Mamlakat hududida tasviriy san'at ham juda rivoj topgan. Tosh davriga oid g'orlardagi rasmlar, qizdirilgan loydan tayyorlangan buyumlar, zargarlik bezaklari saqlangan. Mohenjodaro, Xarappa va Hind daryosi havzasining markazlarida miloddan avvalgi 3–2 ming yillikda ilk sinfiy jamiyat san'ati rivojlandi.

Didarganjadan topilgan ma'budalar haykali, Sarnatxadan topilgan „Sherali kapitel“ va boshqalar miloddan avvalgi 4–2 ming yilliklarda Hindistonda toshdan yodgorliklar tayyorlash an'anasi mavjudligidan darak beradi.

Shu bilan birga mamlakatda tasviriy san'atning alohida turlari bo'yicha o'ziga xos maktablari ham shakllana boshladi. Masalan, Kushon podsholigi davrida Gandxara badiiy maktabiga mansub buddaviy haykallar yasash rivojlandi. V–VII asrlar esa mamlakatda devoriy rassomlik gullab-yashnagan davr hisoblanadi.

Shuningdek, XIII asrdan Dehli sultonligi va keyinchalik Boburiylar davlati davrida amaliy bezak san'ati va kitob miniaturasi taraqqiy etdi. Dastlabki hind miniatura maktablaridan gujarot maktabi mashhur bo'lган. XVI asrda miniatura san'atining boburiylar maktabi vujudga keldi. Bu maktab vakillari tasvirning haqqoniy bo'lishiga intildi, tarixiy risolalarga bezaklar yaratish, portret va animalistik janrlar keng tarqaldi.

Ayni paytda Hindiston o'zining 4 ming yillik tarixiga ega bo'lган musiqa san'ati bilan ham mashhurdir. Mamlakat musiqasi dunyodagi eng qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi va uning ildizlari xalq bayramlari, diniy marosimlari, an'analarida o'z aksini topgan.

Ta'kidlash lozimki, Hindistonning qadimgi yozma yodgorliklari, jumladan, „Vedalar“ — „Regveda“, „Samaveda“, „Atharvaveda“ va „Yajurveda“ lar miloddan avvalgi 2—1 ming yilliklarda shakllangan bo'lib, ularda diniy madhiyalar o'z aksini topgan. Hindistonda mumtoz musiqa san'ati ayniqsa gurkirab rivojlandi. Mumtoz musiqa, musiqiy folklor, raqs san'ati shakllari asosida an'anaviy musiqiy teatr turlari—jatra, yakshagina, tomosha va boshqalar tashkil topgan. Mumtoz raqs turlariga bharat natyam, kathakali, kathak, Manipura, Odissa va boshqalar kiradi. Mamlakat aholisi orasida vina, setar, savad, tampura, saranchi, nay, bansuri, surnay, shohnay, paklabaj, tabla kabilar nihoyatda yaxshi ommalashgan.

Shunday qilib, qadimgi hind madaniyati umumbashariy, jahon madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida keyingi davr shimoliy, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari madaniyatiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.



QADIMGI GRETSIYA MADANIYATI

Qadimgi Gretsiya Yunoniston, Ellada-Bolqon yarim orolining janubi, Egey dengizidagi orollar, Kichik Osiyoning g'arbiy sohili, Apennin yarim orolining janubiy sohili, Sitsiliya oroli, Marmar, Qora va O'rta dengiz sohillarida tashkil topgan davlatlar guruhidan iboratdir. Ma'lumki, Gretsiyaning madaniyati dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi va u umuminsoniy madaniy taraqqiyotga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Yunon-Gretsiya madaniyatining taraqqiyot bosqichlari to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lish uchun uni davriylashtirib o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki, har bir tarixiy madaniy bosqichda bir-biridan farqlanib turadigan mazmunan boy va g'oyaviy mukammal madaniy boyliklar yaratilganligi ko'zga tashlanadi.

Qadimgi Grek madaniyatini o'rganar ekanmiz quyidagi bosqichlarning madaniy hayoti va ma'nnaviy-badiiy tafakkurining asosiy jihatlarini tashkil etish mumkin:

- 1. Krit-Mikena yoki Egey madaniyati (miloddan avvalgi 3 ming yillikdan miloddan avvalgi XII asrlargacha bo'lgan davr).**
- 2. Gomer davri madaniyati (miloddan avvalgi IX—VIII asrlar).**
- 3. Arxaika davri madaniyati (miloddan avvalgi VII—VI asrlar).**
- 4. Klassika davri yoki grek demokratiyasi davri madaniyati (miloddan avvalgi V asr — IV asrning 40-yillarigacha bo'lgan davr).**
- 5. Ellinizm davri madaniyati (miloddan avvalgi IV asrning oxiri va I asrlar oralig'i).**

Albatta, Gretsiya madaniyatini uning adabiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu adabiyot Yevropadagi eng qadimiy va ta'sirchan adabiyotlardan biri bo'lib polis jamoalari orasida qon-qarindoshlik munosabatlарining yemirilishi va shaxs ongingin mu-kammallahsha borishi natijasida miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda paydo bo'ldi.

Bizgacha Yunon yozma adabiyotining eng Qadimiy namunalaridan Gomerning „Iliada“ va „Odisseya“ epik poemalari yetib

kelgan. Troya urushi voqealarini aks ettirgan bu poemalar qahramon shaxslar va mashhur tarixiy voqealar madhiga bag'ishlangan epik qo'shiqlar asosida maydonga kelgan. Eramizdan avvalgi VII—VI asrlar poeziyasida shaxsning fikr va o'yularini diniy-axloqiy qarashlar aspektida talqin etish kuchaydi. Masalan, Alkey (miloddan avvalgi VI asr) ijodida siyosiy kurashlar, muhojirlar hayoti aks etgan bo'lsa, Sapfo (miloddan avvalgi VII—VI asrlar) ijodida esa o'sha davr ayollari taqdiri kuylanadi.

Miloddan avvalgi VI asrga kelib Ioniyyada bayoniy uslubdag'i proza maydonga keldi. Tarixiy va oddiy kishilar obrazi aks etgan novelalar va Ezop nomi bilan bog'langan masalalar yaratildi. Afina madaniyatining rivojlangan davri eramizdan avvalgi V—IV asrlarga to'g'ri keladi. Ayniqsa dramatik janrlar taraqqiy etdi. Mifologik sujet asosidagi tragediya yetakehi janrga aylandi. Afina demokratiyasining qaror topishi davrining yirik shoiri Esxil (miloddan avvalgi 525—456) ijtimoiy va axloqiy masalarni qalamga oldi. U erkin inson g'oyasini olg'a suradi. Afina demokratiyasining rivojlangan davr dramaturgi Sofokl (miloddan avvalgi 497—406) o'z asarlarida erkin inson timsolini aks ettirdi. Davlat qonunlari bilan diniy, axloqiy qonunlar orasidagi nizo, burch yo'lidagi mashaqqat, fidoiylik, shaxsiy faoliyat, hatti-harakatlardan kelib chiqadigan fojalarning sodir bo'lishida asosan iloxiy kuchlar muhim rol o'ynashi masalasiga alohida e'tibor beriladi.

Eramizdan avvalgi V asrda komediya an'anaviy shakllarni saqlagani holda yangi ijtimoiy-satirik mazmun bilan boyidi, taraqqiy etdi. Bu davrda Aristofan asarlari Afina siyosiy va madaniy hayotida o'tkir satira sifatida maydonga chiqdi. Individuallashgan personajlar bilan bir qatorda umumlashma hajviy obrazlar paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida Afina polisining inqirozga yuz tutishi sofistik harakatda namoyon bo'lishi bilan birga, badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. Bu davrning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, antidemokratiya yo'nalish keng tarqaldi, ideal shoh timsoliga qiziqish kuchaydi. Ana shu kayfiyatlarning nazariy ifodasi sifatida Aristotelning „Shoirlar haqida“ va „Poetika“ traktatlari yuzaga keldi. Shuni eslash lozimki, boshqa barcha milliy madaniyatlar kabi Gretsiya madaniyati ham ba'zan jiddiy rivojlanishni boshidan kechirgan bo'lsa, ayrim hollarda u tushkunlikka yuz tutdi. Masalan, miloddan avvalgi II asrda Rim istilosi Gretsiya madaniy hayotidagi tushkunlikni yanada chuqurlashtirdi. Faqat milodning birinchi asriga kelib, grek ijtimoiy

madaniy hayotida jonlanish paydo bo'ldi. Tarixchi Plutarx (I-II asrlar) „Parallel taqdirlar“ asarida greklar va rimliklarning mashhur namoyondalari obrazini yaratadi. I-III asrlarda taraqqiy etgan grek romanı (Geliodar, Long) da asosan, ideal muhabbat tasvirlanadi. IV asrdan boshlab esa qadimgi grek adabiyoti inqirozga uchradı.

Gretsiyada me'morchilik san'ati ham rivoj topdi. Qadimgi me'morchilikning ilk manbalari Krit-miken madaniyatiga borib – taqalsa-da, biroq uning tom ma'noda shakllanishi eramizdan avvalgi VIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib grek monumental haykaltaroshligi taraqqiy etadi va unda haykaltaroshlikda o'ziga xos haykalning bo'shlidagi ko'lami, ya'ni joylanishi , a'zolarining mutanosibligi va harakatning tabiiyligi kabi uch o'lchovga qat'iy amal qilish asosiy tamoyilga aylanadi.

Arxaika davri plastikasi esa kiyimda tasvirlangan qizlar—koralar haykalida namoyon bo'ladi. Koralar haykallari o'zining histuyg'ularga boyligi, ayollarga xos latofat, ifsat va nazokatni ifoda etganligi bilan ajralib turgan. Kiyimlarning jimjimali va buklanib turishlari, ularga hamohang bo'lgan sochlarning taralishi haykal-larning tabiiyligini yanada oshirgan. Kuroslar, ya'ni kiyimsiz holda tasvirlangan yigitlar va koralar haykallariga jamlangan go'zallik va ulug'verlik qadimgi greklarning axloqiy ideali to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalagan.

Qadimgi greklar o'z shaharlari, ibodatxonalari, saroylari va turar joylarini turli xil haykallar bilan bezashga harakat qilganlar. Haykallarni yog'ochdan, marmar va bronzadan yasaganlar. So'ng'ra inson tanasi rangida bo'yaganlar yoki fil suyagi bilan qoplaganlar. Yunon haykaltaroshlari birinchi bo'lib haykalga inson tanasining tabiiy ko'rinishini berishga e'tibor berganlar.

Qadimgi yunon-grek teatri va dramaturgiyasining paydo bo'lishida diniy bayramlar, turli xil marosimlar va rasm-rusumlar muhim rol o'ynagan. Yunon dramaturgiyasining barcha turlari — tragediya, komediya hamda satiralar dramasi ana shu diniy bayramlar, rasm-rusumlar va ayniqsa Dionis (bosh xudo Zevsning o'g'li) ga bag'ishlangan marosimlar asosida maydonga kelgan.

Qadimgi yunon dramaturgiyasining asosiy janrlaridan biri hisoblangan tragediya ham, komediya ham kelib chiqishiga ko'ra Dionis bayramlariga bog'liq. Masalan, Aristotel o'zining „Poetika“ asarida „tragediya“ iborasining o'zi ham Dionis shaxsi bilan bog'liqidir, bu atama „taka qo'shig'i“ ma'nosini anglatadi deb yozadi. Qadimgi yunonlar Dionisni ham taka qiyofasida tasavvur etganlar.

Biz bilishimiz lozimki, qadimgi teatrlar hozirgi zamon teatriga umuman o'xshamagan. Birinchidan, qadimgi Yunon teatri hajm jihatdan benihoya ulkan bo'lgan. Ikkinchidan, tomoshalar kunduzi ochiq havoda ko'rsatilgan. Qadimgi Afina teatrlari qoldiqlari shuni ko'rsatadiki, yunon teatrlari hozirgi zamon stadionining yarmi ko'rinishida bo'lib, unga 17 minggacha tomoshabin sig'gan.

„Teatr“ so'zining asl ma'nosi „ko'rish“, „kuzatish“ degan ma'nolarni anglatgan. „Teatr“ atamasining butun teatr binosiga nisbatan ishlatalishi milodiy V asrlarga kelib iste'molga kiritilgan. Yunon teatrlari ko'pincha tog'lik, qiyalik, tepalik yon bag'irlarida qurilgan. Aktyorlar tomosha ko'rsatadigan joy sahna (grekcha skena) bo'lib, u chodir, degan ma'noni anglatgan. Haqiqatdan ham, aktyorlar tomosha o'tkaziladigan joyning orqa tomoniga qurilgan chodirdan kiyinishi va niqoblarni almashtirish joyi sifatida foydalanishgan. Pastda — sahna oldida xor joylashgan. Xorning vazifasi sahnada rol ijro etayotgan aktyorlarning ijro uslubini yanada kuchaytirish hamda Dionisga atab yozilgan yoki ijro etilayotgan tomoshalardagi voqealar rivojini yanada kuchaytirishdan iborat bo'lgan. Xor joylashgan sahnaning pastki qismi „Orxestro“ (Orkestr) deb jamlangan.

Qadimgi yunon teatrining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni o'z navbatida buyuk dramaturglarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Qadimgi Yunon tragediyasining asoschilaridan biri „tragediya otasi“ Esxil (miloddan avvalgi 525-456-yillar) 90 ga yaqin tragediya yaratgan. Bizgacha uning — „Eronoyer“, „Fivaning yetti dushmani“ , „Iltijogo'ylar“, „Zanjirband Prometey“, „Orestiya“ trilogiyasiga kiruvchi „Agamemnon“, „Xoeforlar“, „Evmenidalar“ kabi tragediyalari yetib kelgan.

Yuqorida fikrlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Qadimgi Sharq va Yangi davr Yevropa madaniyatini bir-biri bilan bog'lab turuvchi antik davr, yunon madaniyati o'z ahamiyati jihatidan umuminsoniy madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi.

Qadimgi yunon fani, falsafiy tafakkuri, me'morchiligi, yozuv madaniyati, teatr-tomosha san'ati — bularning bari nafaqt Gretsiya, ayni paytda, butun insoniyat sivilizatsiyasining durdonasi sifatida ko'zga yaqqol tashtanadi.

QADIMGI RIM MADANIYATI

Rivoatlarga ko'ra Qadimgi Rim miloddan avvalgi 754-yilda bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan. Milloddan avvalgi III asr o'rtalarida Rim butun Apennin yarim orolini o'ziga bo'ysundirgan. U keyinchalik Yevropaning g'arbiy va janubiy-sharqiy qismi, Kichik Osiyo , Shimoliy Afrika sohillari, Suriya va Falastinni o'z ichiga olgan davlat hisoblanadi.

Qadimgi Rim madaniyati dunyo madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Qolaversa, Rim madaniyatisiz jahon madaniyatini to'liq tasavvur etish qiyin.

Antik davr Rim madaniyatining vujudga kelishi va shakllanishi hamda keyingi yuksak darajaga ko'tarilish jarayoniga e'tibor bersak, o'zidan oldin rivojlangan ikki tarixiy-madaniy jarayonning roli o'ta muhim bo'lganligini ko'rshimiz mumkin.

Qadimgi Rimda bolalar oilada tarbiyalangan. Miloddan avvalgi V asrda ibridoiy maktablar yuzaga kela boshlagan. Bolalar mакtabga 7 yoshdan qabul qilinib, 4–5-yil o'qitilgan. Uyda va mакtabda lotin, Yunon tillari, yozish, o'qish, hisob o'rgatilgan. Bolalar dastlab xonardonlarda o'qituvchi yollab o'qitilgan, keyinchalik maktablarda ta'lim berishning yangi tizimi shakllangan. Imperator Mark Avreliy davrida (II asrda) Afinada Oliy maktablar tashkil etila boshladi. Bunday maktablar keyinchalik Rimning g'arbiy viloyatlarida ham vujudga keldi. Respublika davrida ta'lim shaxsiy tarzda olib borildi, unga davlat aralashmadni, ammo imperiya davrida nazorat ostiga olindi. O'qituvchilar davlat xizmatchilari bo'lib, maosh oladigan bo'ldilar. 362-yildan boshlab o'qituvchilarni imperator tasdiqlagan.

Rim shahar-davlat (polis) dan yirik O'rta dengiz davlatiga aylangach, murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Afin, Iskandariya, Pergam va boshqa Yunon ilmiy va madaniy markazlari ham shu davlat tarkibiga kirib, etrusk, Yunon, shuningdek, ellinizm davri madaniyatlari ta'sirida boyidi.

Qadimgi Rim madaniyatida din va mifologiya alohida o'rinish tutadi. Bu yerda ko'plab xudolarga e'tiqod qilish an'ana bo'lgan.

Kishilar turli narsalarning masalan, buloq, o'rmon, daraxt, joylarning va ekinlarning ilohiy homiysi—ma'budasi mavjud, deb ishonganlar.

Bu ma'buda va homiylar dastlab qiyofasiz, keyinchalik etrusk va yunon dinlari ta'sirida inson qiyofasida tasvir etilgan. Ularga qurbanlik qilinib turilgan.

Miloddan avvalgi I va milodning birinchi asrlaridan hukmronlik qilayotgan va ilohiylashtirilgan marhum imperatorlarga sig'inish joriy qilindi. Milod birinchi asrinig oxiriga kelib Kichik Osiyorning g'arbiy qirg'oqlaridagi shaharlarda va Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida xudo Yaxva va'da qilgan missiya (xudoning maxsus vakili-grekecha „Xrestos“) kelibdi, degan xushxabar tarqaladi va bunga ishongan kishilar guruhi paydo bo'ladi. Keyinchalik xudo yuborgan vakilni Yerusalim kohinlari xochga mixlab qatl qilganini, so'ngra u uch kundan keyin tirilib arshi-a'loga chiqib ketgan mish, u xudoga aylanibdi, mahshar kuni — qiyomat-qoyimda yana qaytib kelib adolatni tiklarmish, o'lganlarni qayta tiriltirib, zolimlarni jazolarmish, degan mish-mishlar tez tarqala boshlabdi. Milodning 30-yillariga kelib vovuzlik qilib yurgan „Xudo farzandi“ Iusis Xristos (Iso payg'ambar) to'g'risidagi qissalar paydo bo'ladi. Shunday qilib, Rim imperiyasi hududida Yangi din—xristianlik dini yoyila boradi.

Shu narsani anglash lozimki, Rim imperatori Konstantin 313-yili diniy-e'tiqodlar erkinligi to'g'risida Edikt (qonun) chiqarib xristian dinini davlat diniga aylantiradi. Milodning IV asrida xristianlik tez tarqalgan bo'lsa-da, qadimgi madaniyat va mafkura so'nggi Rim imperiyasining madaniy va siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'r-satishda davom etadi.

Qadimgi Rim madaniyatining rivojlanishi teatr san'ati taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Teatr san'atining paydo bo'lishi esa ommaviy bayramlar, xususan, hosil bayrami bilan bog'liqdir. Miloddan avvalgi 300-yillarda xalq hajviy tomoshalar bo'lgan atellanalar ko'pincha doimiy 4 personajdan iborat bo'lgan. Bunday tomoshalar avval niqob kiyib olgan yoshlari, keyinchalik profesional artistlar tomonidan ijro etilgan.

Miloddan avvalgi II—I asrlarda quiyi tabaqalarga mansub Rim fuqarolarining hayoti aks ettirilgan tomoshalar ko'rsatila boshlandi. Eng dastlabki tosh teatr binosi miloddan avvalgi 55—52-yillarda qurildi. Artistlar ozod qilinganlar va qullardan iborat

bo'lib, ular truppalarga uyushganlar, erkaklar ayol rollarini ham ijro etganlar.

Keyinchalik Rim teatr san'atida raqs usullaridan foydalanish ommalashdi, siyosiy, maishiy mavzularga oid asarlar yuzaga kela boshladi. Asta-sekin kichik ko'rinishdagi asarlar murakkab sujetli spektakllarga aylana bordi. Imperiya davrida badiiy dramalar o'rniga qon to'kiladigan tomoshalarga ehtiyoj kuchaydi.

Rim madaniyatini musiqa san'atisiz tasavvur etish mushkul. Ellinizi madaniyati ta'sirida rivojlangan Rim musiqasida tantanavor to'y, ziyofat, diniy marosim qo'shiqlari ko'p bo'lgan. Imperiya davrida poytaxtga ko'p mamlakatlardan ijrochilar (Yunon, suriya va bobillik sozandalar, aleksandriyalik ashulachi, andalusiyalik raqqosalar) to'plangan edilar.

Rimda puflama sozlardan tibiya, buksina, tuba kabilar, kifara, arfa tipidagi psalterium, trigonon, sambika, lira kabi torli sozlar xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Sirk va teatr aktyorlari katta xor ansamblari orkestrlar jo'rligida duxovoy orkestri bo'lgan. Shoir, ashulachi va sozandalar musobaqalari muntazam ravishda o'tkazib turilgan.

Shuningdek, Rimda me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak san'ati ham kuchli taraqqiy etgan. Rimdag'i ushbu san'at turlarida realizm kuchli bo'lgan, ularda qadimgi Yunoniston san'atidagidek afsonalar emas, balki, tarixiy shaxslar, real voqealar ko'p bo'l-gan.

Rim san'atining qadimgi davrida Etruriya san'atining ta'siri kuchli bo'lgan. Binolar qurildi, turar joylar tabiatga yaqinlashtirilib barpo etila boshlandi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab betondan foydalanish boshlandi. Miloddan avvalgi II-I asrlarda tomoshaxonalar, teatrlar takomillashtirildi, tamoshabinlar o'tiradigan joylar tomosha ko'rsatadigan maydon galeriya, zinapoyalar bilan sahnadan, ajratildi.

Qadimgi Rim tasviriy san'atida miloddan avvalgi III-I asrlarda portret haykal rivoj topdi, shaharlar rasmiy kishilar va qahramonlarning haykallari bilan bezatildi va respublika davrida xorijiy mavzularda reflar ko'p ishlandi, monumental bezak rassomligi, mozaika, Qimmatbaho toshlarni badiiy ishlash san'ati yuksaldi.

Shu narsa muhimki, Qadimgi Rim me'morchiligining yuksak ravnaqi Imperiya gullab yashnagan davrga to'g'ri keladi. Binolarning

monumentalligiga ahamiyat berildi, imoratlar, haykaltaroshlik, rassomlik san'ati asarlari bilan jozibadorlashtirildi. Rim me'morchiligi Imperator shaxsini ulug'lashga xizmat qildi. Birinchi asr o'rtalarida saroylar o'ta hashamatli qilib qurildi. Ulkan gumbazli pantion kabi ulug'vor binolar yirik amfiteatrlar bunyod etildi. Imperatorlardan Trayan davrida haykallarda qahramonlik ko'proq ifodalangan bo'lsa, Adrian va Antonin hukmronligi yillarida obrazlarda ruhiy-psixologik teranlik ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytish lozimki, Qadimgi Rim madaniyati antik davr madaniyatining bir qismi hisoblanib, keyingi davr Yevropa xalqlari madaniy hayotining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Rim davlatining kuchayishi va ko'plab hududlarni istilo qilishi eng avvalo lotin tili va Italiya xalqlari urf-odatlarining keng tarqalishiga olib kelgan. Ikkinchidan, Rim imperiyasi tarkibiga kirgan ko'plab shaharlarda Rim me'morchiligi asosida mahobatli ibodatxonalar, teatrlar, saroylar, amfiteatrlar, sirklar qurila boshlandi. Uchinchidan, lotin tilining keng ko'lamda yoyilishi natijasida italyan, fransuz rumiy va zamonaviy tillar yanada boyib borgan. Umuman, qadimgi Rim madaniyati jahon sivilizatsiyasining muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi va uning jahon madaniyatiga ta'siri hozirgacha ham salmoqlidir.



QADIMGI RUS MADANIYATI

Rossiya Yevropaning sharqida, Osiyoning shimolida joylashgan davlat. Maydoni jihatdan dunyodagi eng katta (17,1 mln. kvadrat kilometr) mamlakat. Rossiya ko'p millatli mamlakat, iqtisodiy jihatdan juda boy davlat sifatida dunyoda o'ziga xos o'ringa ega.

Uning hududida o'rta poleolit davrida, milodgacha 100–35 ming yillar avval quyi Volga, O'rta Uralda dastlabki inson manzilgohlari paydo bo'lган. Keyinchalik poleolit davrida odamlar qutb doirasidan o'tib, Sibirning bir qismiga joylasha boshlagan. Miloddan avvalgi 3–2 ming yilliklarda Shimoliy Kavkazda jez, Ural, G'arbiy Sibir, Yuqori Volga bo'yalarida turli metallardan buyumlar tayyorlana boshlandi.

Dasht, o'rmon-dasht mamlakatlarida chorvachilik, daryo vodiylarida dehqonchilik rivojlana boshlagan. Miloddan avvalgi 1-ming yillikda shahar – davlatlar, Bospor davlati, Skiflar davlati mavjud bo'lган. Milodning III asrida Sharqdan ko'chmanchi gotlar va IV asrda xunnnlar bostirib kelgan. IV–VIII asrlarda Shimoliy Kavkazda alanlar birlashgan. 552–745-yillarda Rossiya hududining bir qismini turkiy xalqlarning qabilaviy ittifoqidan iborat Turk xoqonligi egallab turgan. VII asrning birinchi yarmida Azov bo'yida Buyuk Bulg'oriya davlati paydo bo'ldi, ammo bulg'orlar Xazar xoqonligidan mag'lubiyatga uchrab, Dunay, Volga va Kama daryolari bo'yiga kelib joylashdi. X asrda Volga-Kama Bulg'oriya davlati paydo bo'ldi. O'rta Volga bo'yini xalqlari shu davlatga birlashdi. VI asrda Sibir, Yenisey daryosining O'rta oqimida hozirgi xakaslarning ajdodlari hisoblangan Qirg'izlar davlati, VIII asr boshlarida Uzoq Sharqda Boxay davlati hukm surdi. IX asrda esa sharqiy slavyan qabilalarining birlashuvi asosida Qadimgi Rus davlati tashkil topdi.

Qadimgi rus madaniyati juda boy va rang-barang rivojlangan. Ayniqsa xalq og'zaki ijodi asosiga qurilgan ommaviy qo'shiqlar qadimdan mashhur bo'lган. Og'zaki ijoddha dehqonlar mehnatini aks ettirish, marosim etnik qo'shiqlar, ertaklar alohida o'rin egal-lagan. Qo'shiqlarda oddiy xalq hayotining turli davrdagi muhim ijtimoiy muammolari munosabati ifodalansa, dostonlarda qadimiy

eposlarga xos an'analar davom ettiriladi. Shuningdek, folklorning ko'pgina janr va turlari yozma adabiyotga ko'cha boshladi.

Ta'kidlash lozimki, qadimgi rus adabiyotining dastlabki yozma yodgorliklari XI asrning ikkinchi choragida yaratildi. Kiev Rusi davri adabiyotining mazmuni rus xalqi va knyazligining tarixiy-siyosiy jihatdan birligi masalalari bilan bog'liq bo'lib, monumental tarixiy uslubi yetakchi rol o'ynadi.

XIV asr oxiri va XV asr adabiyotida afsonaviy-tarixiy qissalar ko'plab yaratildi. Jumladan „Novgorodlik va suzdalliklar jangi haqida afsona“, Ioann Novgorodskiy haqidagi afsonalarni kiritish mumkin.

XV—XVI asrlar rus adabiyotida ekspressiv-emotsional uslub yetakchilik qildi, afsona janr va publisistika rivojlandi. Ayniqsa Fyodor Karpov, Sevan Peresvetov va boshqalarning publisistik asarlarida Uyg'onish davri g'oyalari aks etgan. XVII asr adabiyoti mazmunan va janrlarning turlari jihatidan o'sdi, adabiyotda umum-bashariy jarayonlarni aks ettirish kuchaydi.

Rus adabiyotida klassitsizm barokko va o'rta asr adabiyoti an'-analari bilan kurash jarayonida shakllandi. A.D.Kantemir o'zining ijodida, V.K.Trediakovskiy „Rus she'r tuzilishida yangi va qisqa usul“ (1735) va „She'rshunoslik haqida risola“ (1747) nomli asarlarida, A.M.Sumarokov ijodi va M.V. Lomonosov „Ritorika“ sida adabiy janrlarning barcha asosiy turlari va ularga muvofiq stilistik normalar aniqlab, tavsliflab berildi.

XIX asr bosHLarida V.Jukovskiy romantizm ruhida ijod qila boshladi. Romantizmning isyonkorlik yo'nalishi yosh A.S.Pushkin hamda dekabrist-shoirlar K.Rileyev, V. Kyuxelbeker, A.Bestujev-Marlinskiy, A.Odoevskiy va boshqalar ijodida namoyon bo'ldi. A.Pushkin yangi rus adabiyotiga asos soldi. M.Lermontov uning an'analarini davom ettirdi. N.Gogol asarlarasi rus adabiyotida tanqidiy realizm uzil-kesil qaror topganligini tasdiqladi.

Shuningdek, XIX asrning 40-yillarda V.Belinskiy ilmiy-adabiy tanqidchilik asoslarini yaratdi. A.Gersen, N.Chernishevskiy, N.Dobrolyubov, D.Pisarev publisistikasi jamiyat illatlarini fosh etdi. O'sha asrning ikkinchi yarmida tanqidiy realizm barq urib rivojlandi. Bu ayniqsa F.Dostoevskiy, A. Pisemskiy, I.Turgenyev, I.Goncharov, A.Chekhov asarlarida yaqqol ko'rindi. L.Tolstoy „Urush va tinchlik“ romanida keng qamrovli tarixiy voqealar va insoniy taqdirlar xilma-xilligining badiiy tasviri namunasini yaratdi.

XIX asr oxiri, XX asr rus adabiyotida M.Gorkiy, I.Bunin, V.Bryusov, A.Blok, N.Gumelyov, A.Axmatova, O.Mandelstam, S.Yeschnin, B.Pasternak, V.Mayakovskiylarning ijodi yanada o'sdi. Ularning asarlarida o'sha davr jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy jarayonlar juda ustalik bilan fosh qilindi.

XX asrda rus adabiyoti boshqa xalqlar adabiyoti kabi kuchli mafkuraviy bosim sharoitida rivojlandi. Masalan, V.Odinsevning „Nonning o'zi rizq-ro'z emas“ romani, V.Ovechkining „Rayoning oddiy kunlari“ qissasi, A.Yashinining „Pishanglar“ hikoyasi, P.Nilining „Shafqatsizlik“ va „Sinov muddati“ qissalari, S.Antonov va V.Tendryakovning nasriy asarlarida mafkuraviy aqidalar rad qilindi, to'rachilik tanqid ostiga olindi, qishloqdagi qoloqliklar ochib tashlandi.

Ma'lumki, sobiq tuzum davrida ko'plab rus adiblari ham kuchli siyosiy-mafkuraviy tazyiqqa uchradiilar. A.Soljenitsin, V.Voynovich, B.Pasternak, S.Sokolov, V.Nabokov kabi adiblarning siyosiy qatag'onlar davri dahshatlarini insonlar taqdiri misolida tasvirlagan va jamiyat illatlarini fosh etgan asarlari Rossiyada nashr etilishiga ijozat berilmadi. Rasmiy tuzum mafkurasi qobig'iga sig'magan asarlar endilikda ommaviy tarzda nashr etilmoqda.

Rus me'morchiligi va tasviriy san'ati ham juda rivoj topganini qayd etish lozim. Hozirgi Rossiya hududida poleolit davrida ayol-larning haykallari, qush va turli jonivorlarning tasvirlari yaratilgan. Neolit davrida yer usti kulbalari ko'plab qurilgan, keramika naqsh bilan bezatilgan. IX–X asrlardan boshlab qadimgi rus shahar madaniyati rivojlana boshladi.

Ta'kidlash lozimki, X–XIII asrlarning o'rtalari qadimgi rus madaniyatining gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Serhasham tosh binolar qurildi, yirik bino (ibodatxona, saroy, cherkov) lar freska, mozaika bilan bezatildi, kitob miniatyurasi rivojlandi. Kiev, Chernigov, Novgorod, Polotsk va boshqa shaharlarda monumental saborlar qurildi, mudofaa inshootlari barpo etildi.

XIII asr boshlaridan mo'g'illar istilosи tufayli rus san'ati, me'morchiligi biroz susaygan bo'lsa-da, biroq u o'z rivojidan to'xtamadi. XVI asrda Moskvada tosh ibodatxonalarining o'ziga xos shakli—chodirsimon tomli minoralar vujudga kela boshladi. Bularga Kolomenskdagi Vozneseniya cherkovi, Vasiliy Blajenniy ibodatxonasi va boshqalarini kiritish mumkin.

XVII asr rus tasviriy san'atida dunyoviy mazmun avj oldi,

asrning o‘rtalarida Orujeynaya palata mamlakatning badiiy mar-kaziga aylandi.

Mamlakatda tasviriy san’atning portret janri ayniqsa kuchli rivojlandi. XVIII asrning ikkinchi yarmida D. Levitskiy, V. Borovikovskiy, F. Shubinlarning ijodi rus tasviriy san’atida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Romantizm manzara janri rivojiga katta hissa qo‘shti. XIX asrning o‘rtalaridan, ayniqsa, maishiy janr yuksala boshladi. Amaliy san’at badiiy uslublar ta’sirida, me’morchilik bilan hamohanglikda rivoj topdi. Yog‘och o‘ymakorligi, keramika, kashta sohasida nafis bromlar tayyorlandi.

Shuningdek, rus musiqasi ham o‘zining an’analari asosida rivoj topa bordi. Umuman, rus musiqasining sarchashmalari sharqiy slavyan qabilalarining madaniyati va turmushiga borib taqaladi. Rus qo‘shiqlari mazmuni, janri, shakl va ifoda vositasiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, mehnat, marosim, lirik, qahramonlik, hazil, raqs qo‘shiqlari, chastushka, bilina va boshqalardan iborat.

X asrdan xristianlik davlat dini sifatida qabul qilingach, cherkov xonandaligi rivojlandi, musiqa yozushi o‘zlashtirildi. XII asrda Cherkov xonandaligida bir ovozlilik o‘rniga ko‘p ovozli xonandalik paydo bo‘ldi. Peterburg va Moskvada opera teatrлari paydo bo‘ldi. XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida rus kompozitorlaridan Y. Fomin, V. Pashkevich, D. Bortnyanskiy, A. Alyabev, A. Verstovskiy, A. Varlamovlarning rus musiqasida milliy timsollarni yaratishdagi xizmatlari katta bo‘ldi.

S. Prokofev, D. Shostakovich, T. Xrennikov, D. Kabalevskiy, V. Muradeli, I. Dzerjinskiy operalari, R. Glier, S. Vasilenko, B. Astafiev, A. Kreyn baletlari, I. Dunaevskiy, B. Aleksandrov operettalari, V. Shcherbachev, V. Shebalin, G. Popov simfoniya va simfonik poemalari alohida e’tiborga loyiq bo‘ldi.

Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasida musiqiy sohadagi aloqalarda ham o‘ziga xos tarixiylik bor. Turli davrlarda L. Sobinov, A. Nejdanova kabi opera solistlari, M. Rostropovich, D. Shafran, Y. Bashmet, L. Kogan singari xonandalar, D. Shostakovich, A. Xachaturyan, T. Xrennikov kabi kompozitorlar, I. Arxivova, T. Milashkina, I. Kobzon, A. Pugachyova kabi xonandalar, V. Spivakov rahbarligidagi “Moskva virtuozlari” kamer orkestri, Y. Svetlanov rahbarligidagi Rossiya simfonik orkestri, “Bolshoy teatr” xonanda, raq-qosalari O‘zbekistonda gastrolda bo‘lishgan.

Ayni paytda, rus teatri, kinosi, ma’naviy madaniyatning boshqa sohalari jiddiy rivojlanib bormoqda.

MA'NAVIYAT NIMADAN BOSHLANADI?

Yaqinda chop etilgan asarlardan birini o'qib chiqdim. Unda inson avval-azaldan agressiya, tahdid solish hamda saqat o'zining manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatishga moyil, degan fikr ifoda etilgan.

Ammo, ayni paytda, inson yorug' dunyodagi barcha mavjudotlar ichida eng aqlisi, tafakkur egasi sifatida e'tirof etilishini ham bilamiz. Qolaversa, inson ijtimoiy taraqqiyotning asoschisi, yaratilgan barcha moddiy, ma'naviy boyliklarning ijodkori. Unga xos bo'lgan xususiyat boshqa biror-bir mavjudotda yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Shunday ekan, insonga tug'ilgandan agressiya va egoizm kabi illatlar mos va xos, deyish to'g'ri bo'larmikin? Yo'q, albatta. Inson o'zining uzoq ming yilliklar tarixi mobaynida o'z boshidan muayyan rivojlanish bosqichlarini kechirdi. U o'zida doimo o'zini rivojlantirish, taraqqiy ettirishga ehtiyoj sezdi. Bunday ehtiyoj esa insonga o'z tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratdi.

O'zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyoti ham shu tarzda kechdi. Qadimda turkiy qavmlarimiz Chin davlatiga tobe bo'lganlarida ularning barcha og'ir shartlariga ko'nganliklari, ammo, bir bo'lak cho'l parchasi uchun jangga kirganliklari ma'lum. „Tuproq millatning ildizidir, uni qanday berayin“,¹ deydi ajdodlarimiz.

Ushbu keltirilgan misol bizda azaldan milliy ma'naviyat, milliy axloq va milliy an'analar ustuvor ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. Qolaversa, bunday qadriyatlar – bizning mavjudligimiz va hayot-mamotimizdir.

Uzoq yillar davom etgan mustamlakachiliklarga qaramasdan o'zbek xalqi o'z milliy ma'naviyatini saqlab qola bildi. Bu – uning ma'naviyatidagi ko'hnalik va xalqchillik oqibatidir.

¹ *Usmon Turon*. Turkiy xalqlar maskurasi. T., 1995-yil, B.83-bet.

Mana, endi mustaqillik davriga kelib biz yo'qotgan, siyosiy tazyiqlar tufayli ayrılgan milliy madaniyatimizni qaytadan tiklash uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Endi bizga o'z an'anaviy madaniyatimizni o'rganishimizga hech kim xalaqit qilmayapti.

Ammo, bunday imkoniyatdan foydalanyapmizmi? Yo'q, albatta. Ta'kidlash lozimki, hozirda bizning yanada rivojlanishimizga, mustaqillikni mustahkamlashga yo'l qo'ymayotgan sabablarning eng asosiysi – ma'naviy hayotimizdagi, o'zimizning ma'naviy tafakkurimizdagi qusurlardir.

Biz ma'naviy komillik, erkin fuqaro haqida juda ko'p gapir-yapmiz. Biroq, bunday ma'naviy komillik faqat yangi asarlarni o'qish, o'rganishning o'zi bilangina hal bo'larmikin? Nazarimizda, hamma gap qabul qilingan, o'zlashtirilgan madaniy boyliklar tufayli sodir bo'ladigan xulosalar hamda ulardan fuqaroning amaliy faoliyatda qay daraja foydalana olishidadir.

Yuksak ma'naviyat badiiy asarlarni o'zlashtirish, chiroyliga gapirish, birov larga go'zal lutflar qilish bilangina cheklanmasligini anglashimiz kerakka o'xshaydi. Yuksak ma'naviyat – bizning kundalik turmush tarzimiz, unda o'zimizni qanday tutish darajamiz. Tevarak-atrofda ro'y berayotgan voqe-a-hodisalarga xolis baho berish layoqatimiz, asossiz, tag-tubida hech qanday mazmun-mantiq bo'Imagan mulohazalarga ko'r-ko'rona ergashib ketish emas, aksincha, unga baho berish imkoniyatidan foydalanish – shular bizning oddiy, fuqarolik ma'naviyatimizdir.

Biz ko'pincha atrofimizda yuksak ideallar nuqtayi nazaridan fikr-mulohaza qiladiganlarni ko'ramiz. Ular gap so'zi-yu, amaliy faoliyatini kuzatib, insonning qay darajada ikkiyuzlamachi, subutsiz ekanligini guvohi bo'lamiz. Bu – ma'naviyatsizlik emasmi?

Yuksak ma'naviyat – anglangan chtiyoj tufayli shakllanishi mumkin. Xo'sh, biz o'zimizni yangilashga ehtiyoj sezayapmizmi? Qiyin savol. Mavjud holatdan qoniqish hosil qilish taraqqiyotga olib bormaydi. Aksincha, biz o'zimizda ma'naviy chtiyojlarimizni shakllantirishga moyillik sezishimiz lozim.

Xorijiy davlatlarda mamlakat tozaligi, ko'cha-maydonlarning orastaligi, o'sha davlat fuqarolarining bunday narsalarni qadriyat darajasiga ko'targanliklarini og'iz to'ldirib gapiramiz. Ba'zan, bunday hol o'sha fuqaroning vatanparvarlik tuyg'usi asosidagina yuzaga kelishini ham bilamiz.

Bu — juda to'g'ri gap. Ya'ni, yuksak ma'naviyatsiz tom ma'nodagi Vatanparvarlik bo'lishi mumkin emas. Yoki, haqiqiy Vatanparvar bo'lmasdan tom ma'nodagi milliy ma'naviyatga erishish ham mumkin emas.

Xo'sh, shunday ekan, nima, bizlar Vatanparvar emasmizmi? Agar Vatanparvar bo'lsak, unda nima uchun oddiy hollarda axloqsizlik qilamiz. Nima uchun ko'cha-maydonlarimizda pista po'choqlari-yu, papiros qoldiqlari to'lib yotibdi? Nega shunday hol bizni qiyynamaydi?

Bu — bizning eng og'riq nuqtamiz. Ma'naviyat mas'ullik hissi bilan uyg'unlashgandagina real kuchga, amaliy faoliyatga aylanishi mumkin. Toza, orasta ko'chaga pista po'chog'i tashlayotgan go'zal qizlarga dashnom beradigan kishining yonini ola bilyapmizmi? Yo'q, go'yoki bizga tekin tomosha zarurdek!

Ma'naviyat yuksak qadriyat sifatida millatning mavjudlik holati bo'lsa-da, biroq uning aniq ko'rinishi oddiy fuqaroda aks etadi. To'g'rirog'i, insonning fe'l-atvori, turmush tarzi, xatti-harakatida ko'rinati ma'naviyat.

Xo'sh, unda nima uchun biz o'z uyimizni, xonadonimizni avaylab-asraymiz, unga gap tegishini istamaymiz-u, umumiy uyimiz bo'lgan muqaddas Vatan orastaligi biz uchun ahamiyatsizdek, bepisandlik qilamiz? Buning sababini bir so'z bilan aytib bo'lmaydi. Donishmandlarning biri aytgani kabi, bizning tarixdan olgan eng katta sabog'imiz tarixdan saboq olishni bilmasligimizda. Haq gap. Sobiq ittifoq tizimi bizda tevarak-attrofda bo'layotgan voqealarga nisbatan befarqlik hissini uyg'otdi. Befarqlik va mas'uliyatsizlik esa egizak tushunchalardir. Gap nimaning ustida ketayotganligini anglab yetgan bo'lsangiz kerak.

Ya'ni, u davrda fuqarolarda jamiyat va mamlakat muammo-laridan begonalashuv amaliyoti mavjud edi. Endi-chi? Mustaqillik, ma'naviyat, mas'ullik — bularning bari bizni jamiyatga qaytish imkonini bermoqda. Ammo biz o'zimizning azaliy o'zligimizga juda qiyinchilik bilan qaytmoqdamiz.

Yana bir muhim masala xususida fikrlashish joiz, deb bilamiz. Gap sharq va g'arb davlatlari va xalqlariga xos bo'lgan munosabatlari to'g'risida ketmoqda. Ma'lumki, biz hozir demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat qurmoqdamiz. Bizning taraqqiyotga erishuvimiz jahon hamjamiyatiga to'laqonli a'zo sifatida qo'shilishimizga bundan bo'lak yo'l yo'q.

Yangi jamiyat yangi talablarni ilgari surmoqda. Yangi talab-larning eng ustuvori sifatida biz kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishni buyuk maqsad sifatida oldimizga qo'yidik. Ya'ni, qonun ustuvorligiga erishish bizning pirovard maq-sadimiz.

Bu – dunyoning bundan keyingi rivojini belgilab beradigan mezon. G'arb davlatlarida qonun ustuvorligiga ma'lum darajada erishilgan. Bunday hol ayni paytda jamiyat a'zolarining ijtimoiy-madaniy, ruhiy, mafkuraviy-axloqiy munosabatlariiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ko'p hollarda ota bilan bola, aka bilan uka, qo'shnilar o'rtasidagi munosabatlар ham shu tarzda hal etiladi. Bu, shubhasiz, umuminsoniy, axloqiy qadriyatlarni chetlab o'tishga ham olib kelmoqda.

Bizda esa, bu masalaga munosabat boshqacharoq. Ya'ni, g'arb qonunlar bilan boshqarilsa, sharq, xususan, o'zbek milliy mavjudligi ma'naviy omillar orqali boshqariladi. Albatta, buning ham salbiy, ham ijobiy jihatlari bor. Ba'zan, „o'zbekchilik“, „odamgarchilik“, „urug‘ manfaatlari“ qonunni chetlab o'tishga olib kelmoqda. Bu – o'ta salbiy holat.

Ammo, ma'naviy omillar hozirgi o'zbek ijtimoiy-madaniy hayotida hal qiluvchi jihatlardan biri ekanligi ham sir emas. Ana shunday sharoitda „qonunlar hokimiyatidan“, „ma'naviylik hokimiyatiga“ o'tish bizda ustuvor ahamiyat kasb etsa, nur a'lo nur bo'lardi.

„Ma'naviy hokimiyat“ - fuqaroda erkinlik hissi tufayligina barpo etilishi mumkin. Erkin odamlar ma'naviyatigina jamiyatni erkinlashtirishi va pirovard natijada ozod va obod Vatan qurishga sharoit yaratishi mumkin.

Biz yuqorida ma'naviy ehtiyoj to'g'risida fikrlashgan edik. Nazarimizda, hozirgi kunda har bir fuqaro uchun o'ta zarur bo'lgan narsa bu – mustaqillik va ma'naviy ehtiyoj kabi o'ta zarur hodisalarning kuchli ravishda anglanmayotganligidir.

„Men mustaqillik taraf doriman“ degan gapning o'zi endi yetarli emas. Va umuman, „taraf dorlik“ ning o'zi ham mustaqillik uchun kurashuvchanlikni anglatmaydi. Bu – taraf dorlik emas. Qolaversa, „mustaqillik“ so'zi yuksak qadriyat sifatida suiste-mol qilinishi ham mumkin emas. Undan tashqari, mustaqillikni biz barchamiz og'izda emas, amalda mustahkamlashimiz lozim.



Mustaqillik og'izda bor, mustaqillik ko'ngilda bor. U amalda bor. Mustaqillik faqat va faqat ko'ngil hamda amalda uyg'un kelgandagina mustahkamlanishi mumkin.

Endi masalaning boshqa jihatni xususida: mustaqillik ma'naviy ehtiyoj tufayli aniq o'zining ifodasini topadi. Ma'lumki, ma'naviy ehtiyojlar juda ko'p. Biroq ularning ichida o'zimiz yashab turgan olamni bilish ehtiyoji, yaratuvchanlik ehtiyoji, muloqot ehtiyoji, o'z-o'zini o'zgarayotgan dunyoga moslagan holda shaxs sifatida voqe qilish ehtiyoji alohida o'rinni egallaydi.

Shularning ichida eng muhim, nazarimizda, muloqot qilish ehtiyojidir. Sir emas, biz birovlar to'g'risida gaplashishni xush ko'ramiz-u, biroq, birov bilan muloqot qilishdan hadiksiraymiz. Sababi? Sababi, birov bilan suhbatga kirishish ma'lum tay-yorgarlikni talab etadi. U yoki bu narsa to'g'risida fikrlashish, bahslashish uchun u to'g'risida ma'lum bilimga ega bo'lish lozim bo'ladi. Aks holda, bizning musohabamiz g'iybat gaplarga o'xshab qoladi.

Aslida, demokratik jamiyat qurish – bir-biri bilan bahsga kirishish, taraqqiyotning maqbul yo'llarini izlash orqaligina sodir bo'lishi mumkin. Bahsga kirishish, maqbul yo'lni topish – kishining yuksak ma'naviyati natijasi ekanligiga shubha yo'q. Chunki, ma'naviyat avval bizda ideallahadi, so'ng u bizning ongimizda aks etadi. Keyin obyektivlashadi, ya'ni inson faoliyatida ko'rindi.

Ma'naviyat ham shakl, ham mazmunda o'z aksini ko'rsatadi. Bizning odamlar o'rtasida o'zimizni tutishimiz, fuqarolar o'rtasidagi muloqot madaniyatimiz, kundalik hayotimiz uchun zarur bo'lgan turmush tarzimiz – bular ma'naviyatimizning shaklan ko'rinishi hisoblanadi. Ayni shu shakl ham, baribir ma'naviyatimizning mazmunli jihatidan kelib chiqadigan holatdir. Ya'ni, ichki ma'naviy dunyomizda insoniy xislatlarimizni rivojlantirishga rag'bat beruvchi his-tuyg'ularimizgina bizni barkamollik sari yetaklashi mumkin.

Kishilarning ma'naviyati jamiyatni ma'naviy parokandalikdan saqlashi mumkin. Ma'naviy parokandalik, ma'naviy kemtiklikning ayrim ko'rinishlari bor ekanligini ham e'tirof etishimiz kerak.

Ma'naviy buhronlik, ma'naviy kemtiklik, ma'naviy parokandalik bizning o'zimizni tutishimiz, jamiyat va davlat muammolariga

munosabatimiz, o'zimizda tafakkur islohotlarini amalga oshirish, ma'naviy boqimandalikdan qutulishga imkon bermayapti. Bizning milliy ma'naviyatimiz jamiyatdagi har bir fuqaroning shaxsiy ma'naviy fazilatlari tufayligina shakllanishi mumkin.

Biz yuqorida aytganimizdek, inson azal-azaldan agressiya, yo'q qilish, vayronkorlikka moyil emas, zero yaxshilik, yaratuvchilik, umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash bizning qonimizda bor. Faqat ana shu haqiqatni anglab yetishgina mustaqillik, Vatanni sevish kabi muqaddas tuyg'ularning mohiyatini tushuntira oladi. Aks holda biz yangilana olmaymiz.

Boy, ko'hna o'zbek milliy tafakkurining asl maqsadi ham shunda: yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go'zal insonga aylantirish. Ma'naviyatning boshlang'ich nuqtasi ham, mavjudlik mohiyati ham shunda.



MA'NAVIY - MA'RIFIY ISHLAR VA BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISH

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida istiqlolning aniq kuchga aylanganligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Buning, albatta, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy jihatlari mavjud. Ammo, mustaqillikning butun bo'y-basti bilan ko'rinishi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar tufayli yanada rivojlanmoqda. Shuning uchun ham mamlakat Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: „**Barchamiz yaxshi bilamizki, fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifikat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzliksiz ish olib borishdan iborat.**“

Bu hayotiy haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifikat kabi o'chmas qadriyatlar turmog'i kerak¹.

Darhaqiqat, O'zbekistonda ro'y berayotgan hozirgi iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning tabiiy ravishda amalga oshishining aks etishi sifatida baholash mumkin. Shunday sharoitda mustaqillikni mustahkamlash jamiyatda ro'y berayotgan barcha jarayonlardan o'z ustuvorligi bilan ajralib turadi. Masalaga boshqacha tarzda ham munosabatda bo'lish mumkin: hozirda sodir bo'layotgan barcha voqe'a-hodisalar, ijtimoiy yakdillik, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar, iqtisodiy-siyosiy islohotlar—bularning bari mustaqillik ildizlariga quvvat berishi, ularni yanada umrboqiy qilishi lozim.

Jamiyatda sodir bo'layotgan islohotlar, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan barcha sa'y harakatlar mamlakat aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina hayotiy kuchga, ijtimoiy ehtiyojga aylanishi

¹ „Xalq so'zi“, 2002-yil, 30-avgust.

mumkin. Bunday hol esa, shubhasiz, jamiyat a'zolarida kuchli tafakkur o'zgarishini talab etadi. Ayni paytda, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy o'zgarishlardan ko'zlangan maqsadga erishish esa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Hattoki, bunday o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda iqtisodiy-moddiy zamin, xalqaro miqyosda esa zaruriy siyosiy muvozanat hamda xalqaro hamjamiatning qo'llab-quvvatlashi ham yetarli bo'lmasligi mumkin.

Buning uchun eng avvalo mamlakatda ro'y berayotgan jaryonlar, umumiy asnoda aytasak — mustaqillikni mustahkamlashga jamiyat barcha a'zolarining yakdil holatda *daxldorlik tuyg'usi* kuchli bo'lishi lozim. Daxldorlik bu — mas'uliyat, o'tmish tarixiy, madaniy merosga sodiqlik, hozirda ro'y berayotgan voqealarda ijtimoiy faollik ko'rsatish, kelajak uchun o'zining kerak ekanligini anglashdir. Daxldorlik tuyg'usi tufayligina ijtimoiy hamda ijodiy faol fuqaroni tarbiyalash mumkin.

Masalaning yana boshqa bir jihatibor. Bu narsa mustaqillikning ma'naviy poydevori bilan bog'liqdir. Aynan ma'naviy poydevorgina istiqlolni hayotiy hamda davomiyligini ta'minlaydi. Aynan shu narsa istiqlolni mustahkamlashga *ruh*, *g'oya*, *tafakkur* beradi, ularni jamiyat a'zolari ongiga singdiradi. Milliy *ruhga* esa, avlodlarning mustaqillik *g'oyasi* bilan sug'orilgan, ijtimoiy faol *tafakkurga* ega bo'lgan xalq yengilmas hamda kelajagi porloqdir.

Ma'naviy poydevor istiqlolni mustahkamlashga xizmat qiladigan iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy omillarga ham ruhiy-ma'naviy kuch beradi, ularni amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarish uchun safarbar etadi. O'zining ma'naviy poydevori mustahkam xalqda o'zlikni anglash jarayoni juda jiddiy tarzda sodir bo'ladi. Milliy o'zlikni anglash millat, xalqning o'z o'tmishlari oldidagi mas'uliyatini his etish bilan birga, ayni paytda, u ko'proq, kelajak, millat va davlat ravnaqi oldidagi mas'uliyat va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarga daxldorlikdir.

Ana shunday vaziyatda jamiyatning bir ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy holatidan boshqasiga o'tishi davrida tarbiya masalasi oldingi o'ringa chiqadi. Tarbiya masalasi o'zbek xalqining eng ustuvor tavsifga ega bo'lgan faoliyat turidir. Tarbiya ayni paytda jamiyat holatining mezoni, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy ishlarning ko'rsatkichi, pirovard natijada millat va xalqning yetuklik darajasi hamdir.

O'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy, tarixiy taraqqiyotning qaysi bosqichini olib ko'rmaylik—barchasida tarbiya masalasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotning asosi, milliy poklik, ruhiy o'ziga xoslikning muhim ko'rinishi, millatning o'zligini anglatuvchi o'zak bo'lib hisoblangan. Shuning uchun ham istiqlol jarayonlari ro'y berayotgan hozirgi sharoitda ushbu masalaga juda muhim ahamiyat berilmoqda. Amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz natijasining tarbiyalanishi lozim bo'lgan barkamol inson bilan, uning o'ynashi lozim bo'lgan tarixiy o'rni va roli bilan bog'lanishi ham bejiz emas.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning davlatchilik-siyosati faoliyatida, uning ma'naviyat va ma'rifatga qaratayogan katta g'amxo'rligi ostida komil inson masalasi turibdi. Uning qayd etishicha, „... **biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq - atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi - qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi“¹.**

I.Karimov barkamol insonni tarbiyalashda, uni shakllantirishda jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, chunonchi, ta'lim tizimidagi yangiliklarga alohida e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha „ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga chtiyorj sezib emas, aksincha — o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy - ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq - chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi. Ularni o'zlari aql-

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1995-yil, 6-bet.

idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg‘itib ham bo‘lmaydi“¹.

XXI asr bo‘sag‘asida, O‘zbekistonda sifat jihatdan yangi jamiyat qurilayotgan bir sharoitda inson, shaxs masalasiga alohida e’tibor berilishi, uning ijtimoiy-taraqqiyotida tutgan o‘rni va rolining muhim ekanligiga urg‘u berilishi, yangicha ijtimoiy-ma’naviy, axloqiy-mafkuraviy muhitning yaratilishi—bularning barisi eng avvalo barkamol insonni shakllantirish bilan sababiy va mantiqiy aloqadorlikdadir. I.Karimov o‘zining qator asarlarida barkamol inson sifatlari xususida alohida to‘xtaldi. Bunday sifatlar pirovard natijada umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil „izm“lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan insonlarni tarbiyalashga olib kelishi lozim.

Masalaning yana bir o‘tkir jihatni mavjud bo‘lib, bu narsa Prezidentning o‘z faoliyatida o‘tmish tarixiy-madaniy, ruhiy-axloqiy merosimizga juda katta e’tibor berishi, unga O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi muhim omil sifatida munosabatda bo‘lishidir. Darhaqiqat, o‘zbek xalqining tarixi, avvalombor, madaniyat, ma’rifat tarixidan iboratdir. Har qanday ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy jarayonlarning asosida esa inson, uning tarbiyasi yotadi. Shuning uchun ham Sharqda, xususan o‘zbek xalqi ijtimoiy-ma’naviy hayotida barkamol inson masalasi ustuvor tavsifga ega va u davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgandir.

Ko‘xna tariximizning qaysi sahifasini o‘qimaylik ularning barida barkamol insonni tarbiyalash buyuk maqsad va uning bajarilishi davlatning taqdiri bilan mutanosib ravishda uyg‘unlashtiriladigan ijtimoiy hodisani ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham o‘tmishdagi jahonni o‘zlarining buyuk kashfiyotlari bilan dong qoldirgan allomalarimiz mutafakkir olim-u - fuzalolarimiz, Inson tarbiyasi, komil insonni shakllantirishga o‘zlarining mas’ulliklarini sezib, his etganlar. Ular ilm-fanning qaysi sohasi bo‘yicha shug‘ullangan bo‘lmasinlar, baribir shaxs kamolati masalasini ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida kun tartibiga qo‘yanlar.

¹ Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., 1998-yil, 22-bet.

Shuning uchun ham shaxs, komil insonni tarbiyalash o'zbek xalqining ming yilliklar tarixida buyuk ijtimoiy vazifa darajasiga ko'tarilgan. Natijada, dunyo amaliyotida kamdan-kam uchraydigan fenomen — Komil inson konsepsiysi aynan sharqda, xususan, o'zbek xalqi qadimdan istiqomat qilayotgan hududda yuzaga keldi.

Barkamol insonni tarbiyalash masalasiga buyuk vatandoshimiz Aziziddin Nasafiy ham juda katta e'tibor qaratgan. Chunonchi, komil insonga ta'rif berib, u yozadi: „**Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif**“¹. Haqiqatdan, buyuk ajodolarimizning bizga qoldirgan madaniy-ma'naviy meroslaridan bahramand bo'lish bizning komil inson to'g'risidagi tasavvurimizni yanada kengaytiradi.

Mustaqillik sharoiti ila yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, mada-niy-mafkuraviy muhit sho'rolar tizimi davrida toptalgan barkamol inson to'g'risidagi qarashlarimizni o'zgartirib yubordi. Prezidentimizning bot-bot ta'kidlashicha, barkamol insonni tarbiyalash mustaqillikni mustahkamlashning vositasi emas, balki bizning uzoq davrga mo'ljallangan, strategik vazifamiz, davlat siyosatimizning ustuvor yo'nalishidir.

Masalaga shu tarzda munosabatda bo'lish esa barkamol inson masalasida o'tmish merosimiz va hukumatimizning hozirgi kundagi siyosatida jiddiy mantiqiy bog'lanish va uyg'unlik borligidan dalolat beradi. Barkamol inson eng avvalo ijtimoiy va ijodiy faol shaxsdir. Bunday shaxsning faoliyati ayniqsa mustaqillik sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Gap shundaki, sho'rolar tizimi davrida mavjud mafkura barcha vositalar bilan fuqarolarda ijtimoiy passivlik, ruhiy-psixologik qo'rquvlik, ma'naviy biqiqlik, siyosiy mafkuraviy nochorlik sifatlarini yuzaga keltirishga harakat qildi va ma'lum ma'noda uning uddasidan ham chiqdi. Hadiksirash, qo'rquv, har bir ijtimoiy-siyosiy voqeя va hodisaga shubha bilan qarash, o'z so'zida sobit bo'lmaslik-bular shubhasiz jamiyatning o'zini ijtimoiy nuqtayi nazardan passivlashtirdi.

¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T., 1996-yil, 147-bet.

Biroq, mustaqillik bunday holga abadiy chek qo'ydi. Jamiyatda demokratik tamoyillarning amalga oshishi, fuqaro, huquqiy davlatni qurishdagi qat'iy yo'l, xalqaro hamjamiat bilan samarali o'zaro aloqalar hamda xalqning o'zida paydo bo'lgan kuchli ijtimoiy-siyosiy ong tanlangan yo'lning muqarrarligidan dalolat bermoqda. Mamlakatimiz Prezidenti fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, ijodiy faolligining oshishidan eng avvalo qurilayotgan yangi davlatimiz va jamiyatimiz naf ko'rishini yashirmayapti.

Xo'sh, aholining ijtimoiy-siyosiy, ijodiy faolligini, siyosiy manfaatlarini qaysi yo'nalishga va nima maqsadda burib yuborilishi deganda nimanii tushunish lozim? *Birinchidan*, har bir fuqaroda tanlangan maqsadning to'g'ri ekanligini anglash ruhiyatini paydo qilish. Bunday hol bizning mamlakatimizda to'liq amalga oshdi. Istiqlolning qisqa davr mobaynida bergan in'omlari, jamiyat a'zolarining mustaqillik tufayli qo'lga kiritgan yutuqlari ijtimoiy va ijodiy faollikning o'rni va roli benihoyaligiga guvohdir. *Ikkinchidan*, jamiyatning ayrim a'zolarida yurtimizda ro'y berayotgan o'zgarish va islohotlarga befarqlik kabi 80- yillar ikkinchi yarmi, 90- yillarning boshidagi holatning bartaraf etilishi sodir bo'ldi. Bu narsa xalqimizda milliy uyg'onishni paydo qildi. Bunday uyg'onishning zamini esa ijtimoiy faollikdir. *Uchinchidan*, fuqarolarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishidan o'zlarining manfaatdor ekanliklari to'g'risidagi ruhiyatning yuzaga kelishi, boshqaruva tizimida ishtirok etish har bir kishining barkamollik va kuchli siyosiy madaniyati ko'rinishi ekanligining ijtimoiy ong darajasiga ko'tarilishidir.

Darhaqiqat, barkamol avlod tarbiyasi — umum davlat, umum-millat vazifasidir. Uning natijasi esa mustaqillik kabi muqaddas ne'matni haqiqiy kuchga aylantiradi. Bunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati beiqiyos.



TA'LIM VA MA'NAVİYAT UYG'UNLIGI

Donishmandlardan birining ta'kidlashicha, tarixdan olgan katta sabog'imiz — tarixdan saboq olishni bilmasligimizdir. Haqiqatdan ham shunday. To'g'ri saboq olishga esa bir tomondan u yoki bu fuqaroda mavjud holatni anglashga bo'lgan ehtiyojning borligi yoki yo'qligi ta'sir etsa, boshqa tomondan, unga jamiyatdagi mafkuraviy muhit, siyosiy tuzum ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Olinadigan saboq esa alohida olingan shaxs yoki jamiyat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan maqsadga bog'liqdir. Belgilangan to'g'ri maqsad bizni rivojlanishga, o'zimizdagi ijobiy xislatlarni yanada ko'paytirish va takomillashtirishga rag'bat beradi. Noto'g'ri maqsad esa bir insonning, ayni paytda butun-butun xalqlarning tarixiy taqdirida mash'um rol o'ynashi mumkin.

Bunga tarixda misollar ko'p. O'zbek xalqi ham noto'g'ri belgilangan maqsadlar tufayli, ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi.

Mustaqillik esa xalqimiz buyuk kelajak sari eng oliy maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'llarini aniqlab olishga imkon yaratdi. Maqsadimiz tayin: demokratik, huquqiy, insonparvar, fuqarolik jamiyatini barpo etish.

Bunday jamiyatni barpo etishga yo'naltirilgan vositalar ham tayin. Ana shunday vositalardan biri—ma'naviyat, ma'rifat. Ma'naviyat, ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch hisoblanadi. Ma'naviy omillar pirovard natijada o'z haq-huquqini taniydig'an, sodir bo'layotgan voqe'a-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan shaxsni tarbiyalashga sharoit yaratadi.

Shu bilan birga erkin fikrlovchi o'z fikrini erkin, ochiq-oydin ifoda etuvchi, o'zida tafakkur o'zgarishiga moyillik sezuvchi shaxs mamlakat kelajagi uchun mas'ul ekanligi ham aniq.

Demak, rivojlanishimizning hozirgi bosqichida demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etishning, barkamol avlod shakllanishining eng muhim sharti ma'naviy omillardir. Yurtboshimiz tomonidan ma'naviyat- ma'rifatning davlat siyosatining

ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilishining zaminida ham o'sha haqiqat yotibdi. „Barchamiz yaxshi bilamizki,— deydi Islom Karimov,— fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida, shaxsnı muntazam kamol toptirish borasida uzlusiz ish olib borishdan iborat“¹

Yurtboshimiz barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor bermoqda. Barkamol avlod — iyomon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, mustaqil dunyoqarashga ega, ajodolarimizning bebaho merosi va zamona viy tafakkuriga tayanib yashaydigan erkin, komil insonlardir.

Darhaqiqat, shunday. Mustaqillik, barkamol avlod, ma'naviyat-ma'rifat, tafakkur o'zgarishi kabi so'zlar hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda ta'lim tizimi, unda milliy umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi, o'qitishda ma'naviy omillarning o'rni va roli to'g'risida ayrim fikrlarni bildirish muhimdir.

Ma'lumki, ta'lim ham, ma'naviyat ham madaniyat deb atlavchi o'ta muhim, ijtimoiy zarur hodisaning ustuvor yo'nalishlari, o'z ildizlaridir. Shu asnoda, ta'lim ma'naviy jihatdan ta'minlanmas ekan, yoshlар o'zlashtirayotgan har qanday bilimda madaniyatning eng oddiy ko'rinishlari bo'lmas ekan — unda bunday ta'lim biryoqlama bo'lib qolaveradi.

Demak, shunday ekan, eng avvalo ta'lim va ma'naviyat uyg'unligini ta'minlashga e'tibor berish lozim. Ta'lim va ma'naviyat aslida barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ammo ushbu har ikki fenomenal hodisaning o'ziga xos xususiyati, ijtimoiy vazifasi borligini esdan chiqarmaslik kerak.

Masalan, ta'lim tizimi insonning shakllanishi bilan bog'liq vazifalarini bajarishga jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Ma'naviyat esa ko'proq insonning o'zligini anglashi, uning ruhiy poklanishi, iyoni, irodasini, e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan yo'ldir.

¹ „Xalq so'zi“, 2002-yil, 30-avgust.

Shuning uchun ham, barcha zo'r mutaxassis, eng layoqatli xodim ham yaxshi odam, go'zal inson bo'lmasligi mumkin. Ma'naviyat kabi buyuk botiniy kuchning ta'siridagina mutaxassis xodim tom ma'noda komil inson bo'lib shakllanishi mumkin.

Ma'naviy omillar xususan, yaxshi badiiy asar, sahna, kino asarlari milliy birlashish uchun zamin yaratadi. Umuminsoniy va umummilliyl manfaatlarga zid asarlar esa vayronkorlik g'oyalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mamlakat Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Davlat konservatoriysi yangi binosining ochilishida so'zlagan nutqi bunga asos bo'la oladi. Jumladan, yurtboshimiz musiqani ilohiy mo'jiza, deb ataydi.

Musiqaning inson faoliyatidagi o'rniga e'tibor qaratgan I.Karimov uning insonning yuragida, albatta, aks-sado berishini ta'kidladi.¹ Prezidentning yana bir fikri o'rinnlidir. Ma'naviyatning mafkuraviy maqsadlar yo'lida foydalanish mumkinligi xususida to'xtalib, „ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan mu-siqada, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi.“², deydi.

Demak, ma'naviy omillar inson mavjudligi va uning o'zini o'zi namoyon etishning vositasidir. Xo'sh, shunday ekan, unda hozirgi sharoitda ta'lim va ma'naviyat uyg'unligi masalasining umumiyl holati nimadan iborat? Umuman, bunday uyg'unlik zarurmi?

Albatta zarur. Ijtimoiy bilimlar inson ma'naviy dunyosiga poydevor bo'lgani kabi, ma'naviy dunyoqarashi kuchli shaxsgina ijtimoiy faol fuqaroga aylanishi mumkin. Ya'ni, demokratik jamiyat sust faoliyat ko'rsatadiganlar bilan qurilmaydi. Ijtimoiy faollik, kuchli siyosiy madaniyat fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin.

O'tgan asrning 70-yillarida Boltiq bo'yi davlatlaridagi maktabalarda o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishi susay-ganligi aniqlangan. Shunday sharoitda qiziq tadqiqot o'tkazildi: musiqa, rasm predmetlarining soatlari ko'paytirildi. Natijada

¹ „Xalq so'zi“, 2002-yil, 23-mart.

² I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni—millat qilishga xizmat etsin. T., 1998-yil, 10-bet.

bolalarning matematikani o'zlashtirish darajasi, uni o'rganishga bo'lgan qiziqishi jiddiy ravishda ortdi.

Ba'zan, talabalar orasida bizga ijtimoiy- gumanitar, an'anaviy-ma'rifiy yo'nalishdagi predmetlar nima uchun zarur, axir biz bo'lg'usi injener, vrach, agronomlar bo'lsak, deyishadi. Nazarimizda, bu juda katta xato.

To'g'ri, bizga yuksak talablarga javob beradigan, zamonaviy tafakkur darajasiga ega xodimlar juda kerak. Ammo, ular birinchi navbatda ma'naviy pok, mafkuraviy pishiq, iyomon- e'tiqodli hamda o'z Vatani, millati uchun yuksak Vatanparvarlik tuyg'ulariga ega bo'lishlari ham lozim.

Mazkur holat bilan bog'liq yana bir narsa mavjud. Gap barkamol avlod tarbiyasida zamonaviy o'qitish usullari, kompyuter, internet tizimi, masofadan turib o'qitish, axborot olishning boshqa usullarining ahamiyati xususida ketmoqda. Hozirda eng katta tanqislik bu, ana shunday axborotlar olish tanqisligidir. Buning darajasi oshib boraveradi. Chunki musiqa eshitish, kino va boshqa sohalar, yangi adabiyotlardan foydalanishda internetlarning o'rmini ta'kidlab hech kimni qoyil qoldira olmaymiz.

Bu — tabiiy jarayon.

Ammo, ta'lif sohasida ro'y berayotgan bunday o'ta jiddiy ijobiy o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda, u tufayli sodir bo'layotgan ayrim kamchiliklar to'g'risida ham fikrashish kerak, deb o'yaylimiz. Masalan, hozir ayrim yoshlarimizda zamonaviy axborot texnologiyalariga sig'inishdek bir holat yuz berib, ularni haddan ortiq darajada muqaddaslashtirish yuzaga kelayotganligini esdan chiqarmaylik. Va bunday hol ayrim salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Shulardan biri — ta'lif tizimiga texnokratik yondoshuvdir. Ya'ni, talabalar kompyuter mavjud xonadan chiqmagan holda madaniyat, san'atning hohlagan turi bilan tanishishi mumkin, buning nimasi yomon, deyishlari mumkin.

Lekin, aslidachi? Aslida, bu haqiqiy madaniyat va san'at bilan bevosita muloqotda bo'lmay, teatr sahnasida spektakl tomosha qilmay, kitob o'qib undan ma'naviy ozuqa olmay turib haqiqiy mutaxassis, barkamol va har tomonlama tafakkur yurituvchi kishi bo'lishga intilishdir.

Texnokratik yondoshuv — odamda jamoa bo'lib yashash hissini so'ndiradi, o'zining manfaati bilan umuminsoniy manfaat

o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga olib keladi. Ayni paytda bunday yondoshuv shaxsda o'z tafakkurida isloh qilish hissini pasaytiradi.

Ma'naviyat esa shaxsni, ayniqsa yoshlarni tafakkur etishga, voqeа-hodisalarga noan'anaviy tarzda baho berishga undaydi. Boshqacha aytganda ma'naviy omillar shaxsda o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi rivojlantirishga rag'bat uyg'otadi.

Bir xil tarzda fikrلaydigan, an'anaviy usullarda o'ylaydigan shaxsda fantaziyaga moyillik bo'lmaydi. Axir,yaxshi she'r, badiiy asar o'qisak, badiiy publitsistik film tomosha qilsak, sahna asaridan bahramand bo'lsak, o'zimiz ruhimizda o'zgarish bo'lganligini sezamiz-ku ! Demak, biz ta'lim jarayonida ma'naviy omillarning o'rni va roli toboro ortib borishi va bu mamlakatda qurilayotgan jamiyat mazmun, mohiyatiga mos kelishini anglab yetishimiz muhimdir.

Ma'lumki, insonda bir-biri to'g'risida gapirishga istak doimo kuchli bo'ladi. Lekin, bir-biri bilan muloqot qilish, bahsga kirishish istagi hammada ham bo'lavermaydi. Nima uchun? Chunki, bir-biri bilan gaplashish, bahsga kirishish uchun shaxsda, ayniqsa yoshlarda bilimning u yoki bu sohasi bo'yicha ma'lum poydevori bo'lish kerak. Hozirda ayrim talabalarda muloqot va bahs madaniyatining yetishmasligi sir emas.

Zamonaviy talaba, qanday bo'lishi lozimligi to'g'risida har birimizda o'ziga xos tarzda javob bordek. Talaba aqlli, fikrlovchi, esli, o'zini va o'zgalarni hurmat qiluvchi bo'lishi kerak. Bularning bari to'g'ri. Ammo, bizning nazarimizda hozirgi kun talabasi eng avvalo o'z oldiga nostandard savol- masala qo'yish qobiliyatiga va unga mos ravishda nostandard javob berish layoqatiga ega bo'lish lozim. Nostandardlik— erkin fikr asosida yuz beradi. Uning natijasida yangilik yuzaga keladi.

Badiiy asar, madaniyat, san'atning u yoki bu turi bo'yicha bir xil xulosa bo'lishi mumkin emas. Ammo, sobiq tuzum davrida shunday bo'ldi. Bir xil fikrlovchi, bir xil mulohaza yurituvchi, bir xil harakat qiluvchi, bir xil natijaga erishishga intiluvchi—bularning bari o'sha davr illati.

Qolaversa, inson hayotini faqat tirikchilik tashvishi-yu qorin g'ami belgilamaydi. Inson uchun moddiy chtiyojdan ko'ra ko'proq tafakkurni qamragan, ruhiyatini band etgan ma'naviy omillar muhimroq ekanligi ayni haqiqatga aylanmoqda. Bunday omillar

har bir fuqaro, yosh talabalar yuragini to'lqinlantiradi, ularda madaniyat, san'atdan zavq olish hissini uyg'otadi. Bunday his, pirovard natijada inson faoliyatida amaliy harakat sifatida namoyon bo'ladi.

Har bir asar har bir odam uchun turlicha ta'sir darajasiga ega. Demak, har bir kishi undan o'z ma'naviy salohiyatiga yarasha xulosa chiqaradi, „yangilik“ yaratadi. Masalan, Leonardo da Vinchingning Mona Liza portreti bo'yicha 2 ta opera, 18 kitob, 6 tragediya, 8 kinofilm yaratilgan. „Gamlet“ to'g'risida 15 ming ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Rafaclning „Sikstinskaya madonna“ si bo'yicha 40 ming asar yaratilgan.

Xo'sh, bu nimadan dalolat beryapti? Tafakkuri bor odam, o'zini isloh etishga moyil shaxs noan'anaviy tarzda fikrlaydi, mulohaza yuritadi. Alisher Navoiy, Bobur asarlari, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlardagi yuksak madaniyat darajasi hisoblangan maqbaralardan bizning „topganimiz“ ham bir-biriga o'xshamaydi-ku!

O'zbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida talabalar o'rtasida noan'anaviy tarzda fikrflashga xalaqit qilayotgan jihatlardan yana biri — hozirgi yoshlarimizning ayrim qismida dialog — muloqot qilish madaniyatining yetishmasligidir. Axir, fuqarolik jamiyati dialogsiz barpo bo'lishi mumkinmi?

Mustaqillikning dastlabki yillarda biz asosiy e'tiborni o'tmish madaniy merosini tiklash, o'rganishga qaratdik. Bu o'ta muhim ish edi, zero biz o'z ma'naviy zaminlarimizda mustahkam tura olmas ekanmiz, unda buyuk kelajak to'g'risida fikr yuritish, undan ruh olish mumkin emasdi.

Biz, o'zbeklar, yurtboshimiz so'zi bilan aytganda, ma'rifatli dunyoga buxoriyilar, farg'oniyilar, xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklarni berdik. Ularga yuksak izzat- ikrom ko'rsatdik. Ammo, o'zgarayotgan dunyo, uchinchi ming yillik faqat o'tmish bilan faxrlanishdan kifoyalanishni talab etmaydi.

Buyuk o'zgarishlar davri bo'lgan hozirgi sharoitda demokratiya, ma'naviyat, barkamol avlod kabi yuksak umumbashariy qadriyatlar ta'llim tizimida o'zini yaqqol ko'rsata olyaptimi? Bir tomonidan olganda, bunday holat, darhaqiqat, yuz bermoqda. Boshqa tomonidan esa, talabalarimizdag'i ma'naviy boqimandalik kayfiyati saqlanib qolayotganligini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Boshqacha aytganda, o'zgarayotgan dunyoda yoshlар faqat iste'molchi bo'lib qolmasliklari lozim. Iste'molchilik — taraqqiyotga to'siq. Prezidentning bu boradagi qat'iy fikri shundan iboratki. „**chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilgan odam demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi**“¹.

Ma'lumki, yaratuvchilik ijodiy faollik tufayli sodir bo'ladi. O'z navbatida ijodiy faollik bo'lishi uchun unga zarur shart-sharoit yaratilishi lozim. Ta'kidlash lozimki, bunday imkoniyatlar bizda yaratilgan.

Birinchidan, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish, madaniyat sarchashmalaridan bahra olish uchun davlat barcha sharoitlarni yaratgan.

Ikkinchidan, fuqarolar, ayniqsa yoshlarda o'z ma'naviy dunyoqarashida isloh etish uchun anglangan chtiyoj mavjud.

Uchinchidan, ijodkorga erkin faoliyat ko'rsatish uchun ijtimoiy lozimlik kayfiyati ham mavjud.

Xo'sh, ushbu fikr — mulohazalarni bayon etishdan ko'zlangan muddao nimada? Gap shundaki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturining bajarilishi faqat va faqat ta'lim jarayoniga ma'naviy omillarni joriy etish tufayligina yuz berishi mumkin.

Umuman, ta'lim tizimida ma'naviy omillarga ustuvor ahamiyat berilishi ijtimoiy hayotda elitar holatga olib keladi. Elitar holat aslida ma'naviy muhit mavjud joydagina yuzaga keladi. Ta'lim- tarbiya tizimida elitar holat iqtidorlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun ham ko'pincha ijtimoiylik individuallikni yo'qqa chiqaradi, deyiladi. Bu gapda jon bor.

Qiziq bir holat: ta'lim sohasida avval boshidan qo'yilgan xato yo'l juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, o'rtacha, odatiy o'ylaydigan talabaga odatdagi, an'anaviy munosabat bildiriladigan bo'lsa, bu narsa o'rtacha mutaxassisning shakllanishiga olib keladi.

¹ „Xalq so'zi“, 2002-yil, 30-avgust.

Ammo, iqtidorli talabaga shunday munosabat esa uning ko‘pchilik ichida „yo‘qolib“ ketishi va „o‘chishi“ga olib kelishi ham mumkin. Bunday iqtidorlar juda ko‘p. Lekin, ularga nisbatan munosabatlarimizdagi „odatiylik“ ularning „yo‘qolib“ borishiga, jamiyat esa qanchadan-qancha „geniy“ larsiz qolishiga yuz tutmoqda.

Ta’limda ma’naviy omillarga e’tiborning kuchaytirilishi esa ana shunday achinarli holning oldini olishi mumkin. Zero, ma’naviyat talabani uyg’otadi, uni „boshqacha“ fikrlashga undaydi, uning qobiliyatlarini „ko‘rsatadi“.



XULOSA

Biz yuqorida o'zbek milliy madaniyati, uning jamiyat va millat ravnaqidagi o'rni va roli to'g'risida ayrim fikrlarni bayon etdik. Ma'naviyat-ma'rifatga suyangan, ulardan ma'naviy ozuqa olgan har qanday jamiyatning kelajagi porloq bo'lishi to'g'risida mulo-hazalar yuritdik.

I.Karimov qayd etgani kabi „**ma'naviyat“ uzliksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, xis-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi. Ma'naviyat deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iyomon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman”¹.**

Ushbu metodologik-nazariy masalaga O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy hayotida katta ahamiyat berilmoqda. Qurilayotgan huquqiy, demokratik, insonparvar jamiyatning asosini ma'naviyat-ma'rifat tashkil etayotganining sir-sinoati ham shundan.

Ta'lim tizimida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligiga e'tibor berilayotgani tufayli hozirgi paytda mutaxassis kadrlarga nisbatan talablar ham kuchayib bormoqda. Zamonaviy tafakkurga ega, xalqaro andozalarga javob bera oladigan mutaxassisning shakllanishi esa ko'p jihatdan ijtimoiy gumanitar fanlarning holatiga ham bog'liq.

Ta'kidlash lozimki, bizga hozir o'ta iqtidorli, milliy va global muammolarni va ularni yechish usullarini yaxshi tasavvur qiladigan xodimlar kerak. Ayni paytda, ularning yuksak ma'naviyatlari bo'lishi, axloq-odobli, yaxshi xulq egasi bo'lishi, milliy an'ana-qadriyatlarimizga sodiq bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, yaxshi Odam va go'zal Inson bo'lishi ham talab etiladi. „**Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, — deydi I.Karimov, — inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni**

¹ Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'shimiz bilan qurmoqdamiz. T., 1999-yil, 17-bet.

beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi — ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega¹.

Mazkur fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy fanlar insonda yuksak barkamollikni, uning intellektual darajasini belgilaydi. Bunday fanlarda madaniyat va san’at masalalarini targ‘ib etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Biz yuqorida o‘zbek xalqi milliy taraqqiyoti, uning tarixi eng avval ma’naviyat va ma’rifat tarixidan iborat ekanligini bot-bot takrorladik. Haqiqatdan ham shunday.

Madaniyat va san’at o‘quv yurtlarida bu narsaga alohida e’tibor berilishining sababi ham shundan. Qolaversa, bu hol kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonun talablariga ham mos, zero, ushbu hujjatlarning maqsadi — „ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan maskuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir².

Ta’lim tizimini isloh qilish barobarida ko‘plab yutuqlarga erishildi. Ta’limning sisfat darajasi yaxshilandi, zamonaviy kadrlar tayyorlashning huquqiy, ta’limiy asoslari yaratildi. Bular hozirdanoq o‘z natijalarini bermoqda.

Shu bilan birga bu borada katta muammolar ham yuzaga kelmoqda. Madaniyat va san’at sohasidagi bo‘lg‘usi xodimlar milliy-madaniy meroysi o‘rganish natijasida mutaxassis, xodim, shaxs sifatida yangilanadilar. Ularda sisfat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Ular, bizning nazarimizda, quyidagilardan iborat:

Birinchidan, madaniyat va san’at xodimlari o‘tmish madaniy meroysi, milliy-madaniy taraqqiyot evolutsiyasi to‘g‘risida mukammal bilimga ega bo‘ladilar, o‘zbek xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan tarixiy hissasini bilib oladilar.

¹ Karimov I. Milliy istiqlol maskurasi — xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., 2000-yil, 26-bet.

² Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997-yil, 39-bet.

Shu o'rinda har bir mutaxassis Sharq Uyg'onish davri (Renessans) to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lishi kerak. Biz bu to'g'rida yuqorida gapirib o'tdik. Fikrimizcha, ushbu Sharq uyg'onish davridan tashqari (agar uni birinchi Uyg'onish davri, deb shartli belgilasak) yana ikki shunday bosqich bor va ularni bo'lgusi madaniyat va san'at xodimlari bilishlari lozim.

Xususan, agar birinchi Sharq, uyg'onish davri IX–XV asr boshlarini o'z ichiga olsa, ikkinchisi XIX asrning oxirlari, XX asrning taxminan birinchi 30-yilligini qamrab oladi. Bu davrda ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi, uning yuqori ko'rinishi sifatida jadidchilik harakati yuzaga keldi.

Jadidchilik harakatining asl maqsadi xonliklar davridagi iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, madaniy qoloqlikni daf etish, Turkiston o'lkasida ma'naviyat-ma'rifat, ilm-fanni rivojlantirish orqali o'lkani rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish, millatni uyg'otish hamda shu asosda mustamlakachilikni yo'qotish, buyuk davlatchilik an'analarini tiklash edi.

Uchinchi Uyg'onish davri, nazarimizda, o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan va hozir ham davom etmoqda. Ushbu davrda sobiq ittifoq tizumining asl ijtimoiy-siyosiy qiyofasi ochib tashlandi, siyosiy-mafkuraviy biqqlikning milliy rivojlanishga keltirgan zararlari tahlil etildi. Ushbu davrdagi uyg'onish davri pirovard maqsadda milliy mustaqillikka olib keldi. Davlat tili to'g'-risidagi qonun, Prezidentlik boshqaruv tizimiga o'tish, mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi oqibatida O'zbekistonda milliy istiqlolga erishishning zaminlari yuzaga keldi.

Bu davrdagi Milliy Uyg'onish milliy-madaniy merosni tiklash, o'zbek xalqining o'z urf-odatlari, an'analariga ega bo'lishi, milliy davlatchilikning qaytadan barpo etilishi, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga mustaqil subyekt sifatida kirib borishi bilan ajralib turardi. Bularning bari ta'llim tizimida mukammal tarzda o'rganilishi zarur.

Ikkinchidan, madaniyat va san'at to'g'risidagi xolis bilimlar mutaxassis-kadrlarda ijtimoiy faoliytkni oshiradi. Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivoji ijtimoiy faol shaxslarning mavjudligi va ular harakatining darajasiga bog'liqdir.

Madaniyat va san'at — ijodiy faoliyat turi hisoblanadi. Ijod insonning bilim saviyasi bilan bog'liq. Ammo, inson ijtimoiy faol bo'lmasa, bu ijod hamda bilim saviyalari ham hech narsa bermasligi mumkin.

Shuniig uchun ham ijtimoiy faollik va jamiyatning, shaxsning ma'naviy qiyofasi bir-biri bilan uyg'un tushunchalardir.

Uchinchidan, madaniyat va san'at shaxsda erkinlik hissini uyg'otadi. Bu biz uchun o'ta muhimdir, zero qurilayotgan inson-parvar, huquqiy, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni faqat erkin shaxslar tomonidangina barpo etilishi mumkin. Erkin shaxs — o'z tafakkurini o'zgartirishga moyillik va ehtiyoj sezadigan, dunyo-qarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ustuvor deb biladigan fuqarodir.

Shuningdek erkin shaxs yuksak ma'naviyatga ega shaxsdir. Erkinlik anglangan ehtiyojdir. Bunday ehtiyoj esa o'zini ma'naviy jihatdan boyitishga rag'bat uyg'otgan kishilardagina bo'lishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, madaniyat va san'at to'g'risidagi bilimlar tufayligina demokratik jamiyatga mos erkin fuqarolarni tarbiyalash va shakllantirish mumkin.

To'rtinchidan, madaniyat va san'at to'g'risidagi bilimlar tufayli insonda siyosiy konservativizmga qarshi kurashish ruhiyati yuzaga keladi. Siyosiy konservativizm — tashabbusni bo'g'ish, itoatgo'ylik, qarshilik ko'rsatmaslik, mavjud holatdan qoniqish hosil qilish, buyruqlarga ko'r-ko'rona amal qilish, uni tahlil etishga ehtiyoj sezmaslidigidir.

Bunday salbiy holat bilan jamiyat rivojini ta'minlash mumkin emas. Siyosiy konservativizmga qarshi kurashishning muhim yo'llaridan biri — madaniyat va san'atni bilish, tushunish va uning qoidalariga amal qilishdir. Jamiyatning ma'naviy barkamolligi, shaxs komilligi bilan siyosiy konservativizm o'rtasida hech qanday uyg'unlik yo'q. Shu ma'noda madaniyat va san'atni jamiyatni turli xato, kamchiliklardan ozod etuvchi, poklantiruvchi kuch sifatida ko'rish mumkin.

Uchinchi ming yillikning ma'naviyat-ma'rifikat ming yilligi, deb atalishida ham, qurilayotgan jahon umumiyligi uyining ramziy ma'noda ma'rifikatli dunyo, deb nomlanishidagi sir-sinoat ham shu bo'lsa kerak.



MUNDARIJA

Kirish	3
Madaniyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	10
O'zbekistonning eng qadimgi madaniyati	14
Markaziy Osiyoning Arablar tomonidan istilo qilinishi va madaniy hayot	31
Xorazm Ma'mun Akademiyasi	49
Amir Temur omili va Temuriylar davri madaniyati	53
O'zbek madaniyati xonliklar va chor Rossiyasi yillarda	61
Sobiq ittifoq davrida O'zbekiton madaniyati	72
Mustaqillik sharoitida O'zbekiston ma'naviy hayotining o'ziga xos xususiyatlari	82
Qadimgi Misr madaniyati	90
Hindiston madaniyati	94
Qadimgi Gretsiya madaniyati	98
Qadimgi Rim madaniyati	102
✓ Qadimgi Rus madaniyati	106
‘ Ma'naviyat nimadan boshlanadi?	110
‘ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va barkamol avlodni shakllantirish	116
‘ Ta'lim va ma'naviyat uyg'unligi	122
Xulosa	130

ABDUHALIL MAVRULOV, ILHOM DEHQONOV

MADANIYAT TARIXI

Kasb-hunar kolleji talabalari uchun qo'llanma

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007*

Muharrir *B. Qodirov*
Badiiy muharrir *D. Mullaoxunov*
Texnik muharrir *S. Tursunova*
Musahhih *Z. Sodiqova*
Kompyuterda sahifalovchi *N. Kuzayeva*

Original-maktdan bosishga ruxsat etildi 2.10.2007. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Kegli
11 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 8,5. Nashr t. 8,5.
1750 nusxada bosildi. Buyurtma № 129.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa-
ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30-uy// Toshkent, Yunusobod
dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 12—114—07